

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMOY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Mutalipova M.J.

XALQ PEDAGOGIKASI

(ma'ruzalar matni)

TOSHKENT - 2012

1-mavzu: XALQ PEDAGOGIKASI FANINING MAQSADI, VAZIFALARI VA MAZMUNI. O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI

Xalq pedagogikasi mazkur xalq paydo bo'lgan kundan boshlanib, nihoyatda keng qamrovli va serjilo, serqirra bo'ladi.

Xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlarda va Qur'oni Karim hamda payg'ambarimizning hadislarida o'z ifodasini topgan. Demak, xalq pedagogikasi hozirgacha yashovchanligi asosan og'zaki tarzda bo'lib, u har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha yetib kelgan.

Xalq pedagogikasida tarbiyaning birlamchi, ikkilamchisi bo'lmaydi. Hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chekkada qolmasligi, ayni chog'da tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi, shuningdek, xalq tarbiyasida kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutadi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunning qadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boriladi. Unda hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko'rinish qisqasi jonli jonsiz neki bor, undan mukammal foydalanadi.

Xalq pedagogikasida ishontirish, isbotlash, ta'sir, ibrat namunasi, tajriba natijalari, tasdiqlash kabilar tarbiyada muhim o'rin tutadi. Masalan, dov-daraxt, tog'-tosh, parranda-darrandalarga bag'ishlangan folklor namunalari bularning zaminida ekologik tarbiya yotadi.

«O'zbek xalq pedagogikasi» xalq pedagogikasining ajralmas tarkibiy qismidir. Uning qamrovi nihoyatda keng, bag'oyat serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalq paydo bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi.

Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plangan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini lo'nda, ammo bag'oyat teran; donishmandnamo tarzda ifodalaydi. Ilk bor yaratilayotgan «O'zbek xalq pedagogikasi»da dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlari va uning ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usul-metodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas Qur'oni karim va payg'ambarimiz Muhammad Rasulullohning muborak hadisi shariflariga suyangan holda yoritish mo'ljallangan. Tadqiqotda

Ollohning ilohiy mo'jizasi - hayot sarvari Insonning ona qornida paydo bo'lishidan tortib, to tug'ilganiga qadar, ilk tarbiyasidan tortib, to voyaga etguncha hamda oila qurgunga qadar, yoshini yashab to omonatni topshirgungacha bo'lgan axloqiy, aqliy, estetik mehnat, ekologik tarbiyasi, shuningdek jismoniy chiniqish bilan bog'liq o'yinlar, xalq pedagogik an'alarining hozirgi zamon yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni hamda ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga o'zbek an'anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusmlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o'ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi bag'oyat dolzarb mavzularni yoritishga ham harakat qilinadi.

Ma'lumki, xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular bizga alohida qo'llanma-dastur yoxud darsliklar shaklida yetib kelmay, balki asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlar, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunosliklar qatida saqlab qolingani hamda Ollohning so'zi bilan bo'lgan Qur'oni karim va hadis-shariflarda o'z ifodasini topgan. Demak, xalq pedagogikasi hozirgacha yashovchanligi asosan og'zaki tarzda bo'lib, u har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda esa shu uzoq asrlar davomida ta'lim-tarbiya qo'llanmasi, vositasi bo'lib kelgan xalqning pedagogik qarashlarini to'plash, o'rganish va chop etish vazifasi turibdiki, bu vazifani bajarish yo'qolish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz, axloqimiz, urf-odat, rasm-rusumlarimizni, udumlarimizni, an'alarimizni asrab qolish va tiklash uchun nihoyatda zarurdir.

O'zbek xalq pedagogikasi an'alari o'quv qo'llanmasi uzoq yillik ilmiy, pedagogik izlanishlar, amaliy faoliyatlar natijalaridan kelib chiqqan holda jonli, ilmiy-ommaviy tilda yozilgan. Xalqning oilaviy-maishiy hayoti, ta'lim-tarbiyaviy axloq-odobga oid hayotiy yo'l-yo'riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa misollar - dostonlar, ertaklar, mehnat-mavsum marosim qo'shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tezaytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, aytimlari, olqish va qarg'ishlar, suyush-erkalash qo'shiqlari, erkalamalar, ovutmacholqlar, qiziqmacholqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldur-guplar, sanamalar, o'yin-kulgular bilan bog'liq lapar, aytishuv, o'lan, termalar, bolalar tarqalish, chorlash qo'shiqlari ramazon, boychechak, yomg'ir, quyosh, yulduzsuv aytimlari, chandishlar, tegishmacholqlar, masxaralamalar, «Navro'z», «Mehrjon», bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo'shiq ashulalari, dexqonchilik, chorvadorlik, kasb-hunarmandchilik bilan bog'liq nasriy va nazmiy asarlar; inson, tabiat va hayvonlar dunyosiga oid namunalar hamda mifologik tasavvurlar aks etgan asarlar bilan boyitilgan. Qur'oni karim, hadis hamda Sharq mutafakkirlarining axloq-odobga oid qarashlariga doir parchalar ham mazkur qo'llanmaning

sahifalarini bezashi tabiiydir. «O'zbek xalq an'anaviy pedagogikasi»ga oid materiallarni bamisoli ummonga qiyos qilish mumkin. Biz ushbu tadqiqotni faqat debocha deb bilib, shu ummondan olingan qatralar orqali xalqimizni, uning ayrim sahifalari bilan tanishtirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Ko'p jildlarga va ko'p yillarga mo'ljallangan — O'zbek xalq pedagogikasi katta kuchni, jamoa mehnatini talab qiladi...

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xalq nazdida, inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo'lib tug'ilmaydi — u birday tug'iladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, mahalla-ko'y, qishloq-ovul, qolaversa, jamiyat-tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan ota meros—oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek udumshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi sa'y-harakatlari hal qiluvchi o'rin tutadi. Xalq ta'kidlashicha, bola boshdan to'g'ri, haqqoniy tarbiyalansa u kelgusida yaxshi inson bo'lib yetishadi, egri yo'lda tarbiyalansa — yomon kishiga aylanadi. Zero, «ko'chat boshdan, bola yoshdan» maqoliga amal qilish xalq an'anaviy pedagogikasining bosh yo'nalishidir. Shu boisdan, xalq pedagogikasida tarbiyaning mayda-chuydasi, ya'ni birlamchi-ikkilamchisi bo'lmaydi: hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chetda qolmasligi, ayni choqda tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Xarakterlisi yana shundaki, xalq tarbiyada kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutadi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunni qadriga etishlik, kelajakka umid asnosida olib boradi...

Xalq pedagogikasining yana bir ibratli jihati bor. Bu hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko'rinish, qisqasi jonli-jonsiz neki bor, undan mukammal foydalanishdir.

Kezi kelganda xalq an'anaviy pedagogikasida ishontirish, isbotlash, ta'sir, ibrat namunasi, tajriba natijalari, tasdiqlash ham alohida o'rin tutishini aytib o'tish zarur. Buni ayniqsa dov-daraxt, tog'-tosh, parranda-darrandaga bag'ishlangan folklor namunalarida yaqqol ko'rish mumkin. Xalqning bunday qarashlari tag-zaminida to'rt unurni asrash, avaylash, ya'ni ekologik tarbiyani anglash qiyin emas.

Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so'zlar — duo-olqishlar ham tarbiyaga qaratiladi. Darvoqe, xalq an'anaviy pedagogikasida yaxshi so'z, duo-olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqod butunligi, qisqasi kishilarning har tomonlama mukammal kamoloti borasida tutgan o'rni va roliga alohida ahamiyat beriladi.

El-yurt uchun har tomonlama mukammal Insonni tarbiyalashga qaratilgan O'zbek xalq pedagogikasi ham ayrim shaxslar yoxud bir-ikki jamoa — ular qanchalik iqtidorli-iste'dodli bo'lishmasin,— tomonidan yaratilmagan, albatta. Uni xalqimiz asru asrlar bilan o'lchanuvchi hayotida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar kamoloti borasida tutgan tutimlari, sa'y-

harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aql-zakovatlari bilan yaratgan. Ayni choqda o'zbek xalq pedagogikasi o'z rivojida, boyib, mukammallashib borishida ilm-fanning boshqa sohalaridan, ya'ni mumtoz adabiyot, san'at, og'zaki ijod, elshunoslik, udumshunoslik, qadrshunoslik, odatshunoslik, ruhshunoslik kabi sohalar bag'rida shakllanib, ular bilan bevosita aloqada bo'ladi, eng yaxshi namunalarini o'ziga qabul qilib oladi...

Hamisha safarlarda bo'lib, o'zga yurt kishilari bilan muloqotlarda bo'lish, izlanishlar olib borishdan toliqmaslik kabi xislatlar o'zbek xalqi harakteriga xos fazilatlardandir. Insonparvarlik, baynalmilallik, hushyorlik, zukkolik, topqirlik, bilimdonlik, uquvlikni o'ziga e'tiqod qilib olgan o'zbek xalq pedagogikasi ayni choqda Sharq odobnomasi, ibratnomasidan doimiy ravishda bahramand bo'lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go'zal namunalarini o'ziga qabul qilib olgan.

Shunday qilib, o'zbek xalq pedagogikasi turkiy xalqlar — ota-bobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, saqlab kelgan ota meros, Sharq xalqlarining boy va betakror odobnoma va odatnomasi, xalq pedagogikasidagi eng yaxshi namunalar, allomalaru adabiyot va folklor ijodkorlari-ijrochilarining bu boradagi sa'y-harakatlari, yaratgan asarlari bilan qo'shilgan holda shakllanganligi, rivojlanganligi va boyib borganligini e'tirof etish birdan-bir to'g'ri yo'ldir.

Xalq pedagogikasi asrlar davomida yashab keldi. Ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi rol o'ynadi. Oddiy insonlarmi yoxud buyuk allomalar, shunchaki fuqaromi va yo yurt sultonlari, kichik suvoriymi yoki ulug' sarkardami, baribir xalq tomonidan yaratilgan, amalda bo'lgan xalqona tarbiya an'alariga to'la amal qilgan, unga suyangan, tayangan holda yashasa, faoliyat ko'rsatsa kam bo'lmagan, el-yurt nazariga tushgan, olqishiga sazovor bo'lgan.

Xalq pedagogikasining bunchalik ta'sir kuchi, ahamiyati nima-da? Yashovchanligi, «umri» ning shunchalar uzoq muddatlar bilan o'lchanishi, uni hech qanday kuch-qudrat bilan tenglashtirib bo'lmas-ligining boisi qaerda? O'zbek xalq an'anaviy pedagogikasini uzoq yillar o'rganishimiz, har bir nuqtalariga chuqur diqqat-e'tibor berganimiz oqibat-natijasida shunday xulosaga keldik. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, boyib borishining, fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan, uning hayotiyligi, ta'sirchanligi, serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan, uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani, uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya-maqсадlarga qaratilgan bo'lganligidir. Shu bois, boshqa dunyoqarash, mafkura, ma'naviyat omillari kabi, xalq

pedagogikasi tarix to'fonlari-yu ur-yiqitlariga, to's-to'polonlarga bardosh berib, tajriba-sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, toblanib, sayqallashib, hech bir payt, hech bir davrda — u qanchalik og'ir, murakkab, qiyin bo'lmasin, baribir o'z «faoliyatini» to'xtatmasdan, aksincha faol xizmat qilib, avlodlar tarbiyasi, kamoloti borasida hal qiluvchi rolni o'ynab keldi.

Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, xalq pedagogikasi bamisoli jonli organizm, qaynar buloq, o'lmas, o'chmas, doimo boyib, ko'payib boruvchi ilohiy, mo'jizaviy tarbiya sohasidir. Xalq bor ekan, el yashar ekan, bu soha yashayveradi, o'zining avlod-ajdodlarga beminnat «xizmati»ni o'tayveradi. Zero, xalq orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, g'am-g'ussasi-yu armonlari, shodlik, baxtiyorlik onlari-yu qadr-qimmatlari, ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, dunyoqarashi, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalari xalq pedagogikasida zuhr etiladi. O'zbek xalq pedagogikasi o'zining yo'nalishi, ibratli xulosalarga boyligi, bebaho asarlari, ma'no-mantiq jihatdan mukammalligi, teranligi, uslubi, odobnomasi, odatnomasi, ibratnomasi bilan har qanday millat, el havas qilsa arziydigan buyuk merosdir.

Mustaqillikka erishib, o'zimizning yorqin milliy istiqbolimizga ega bo'lgach, umuminsoniy va o'zbekona qadriyatlarni har tomonlama chuqurroq anglay boshladik. Mustaqil Vatanga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, ma'naviy ustuvor, iymon-e'tiqodi butun, o'z xalqi, o'z ona-Vataniga fidoiy, jismoniy barkamol kishilar yetkazish uchun ularning axloqiy-jismoniy tarbiyasiga alohida ahamiyat bera boshladik. Darhaqiqat, Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelgusi boshqaruvchisi — yangi avlod tarbiyasi birinchi o'ringa chiqdi. Juda qiyin, o'ta mas'uliyatli, katta g'ayrat-shijoat, kuch-quvvat, mehnat talab etadigan bu vazifani uddalashimizda og'zaki ijod, mumtoz va hozirgi zamon adabiyoti, elshunoslik, udumshunoslik, qadrshunoslik, marosimshunoslik qatorida xalq pedagogikasining o'rni va roli beqiyosdir. Xalq pedagogikasi hayotning, tafakkurning, odob-axloq, ta'lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan harakterlanadi. Uning oldiga qo'ygan maqsad vazifasi aniq, ravshan, ayni choqda xayrli, savobli va ilohiydir: hayot guli, sarvari, egasi insonni yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashdir.

Har qanday boylikning nihoyasi bo'ladi, oltin, zar, zarbobga o'ralishning umri qisqa. Osmono'par binolar qulashi, sulolalar kelib-ketishi, avlodlar ketidan yangilari kelishi tabiiy, ammo xalq pedagogikasi hayqirib oquvchi daryoday uyg'oq, musaffo chashmaday betinim, quyosh taftiday issiq, oy nuriday nurafshon, hayotning o'ziday go'zal, bedor insonlarday uyg'oq holda avlodlar tarbiyasida hamisha o'z vazifasi — aytilgandek, Inson odobi, xulqi, kamoloti borasidagi xizmatini o'tayveradi, hech qachon «toliqmaydi» — «charchamaydi».

Biz xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari,

xalqning o'ziga xosligining milliy to'ylarimiz, ommaviy bayram-sayllari, marosimlar, urf-odatlar va udumlarda ifodalanishi, xalq sport, jismoniy tarbiyaning tutgan o'rni, milliy maktab muammolari kabi shu kunlarda juda dolzarb, zarur va kerakli masalalar haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim deb topdik.

Bular: xalq og'zaki ijodida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi; do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning, yaxshi va yomon so'zning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi, adolat, insof va insofsizlik, do'st-birodarlik, og'a-inichilik va kon-qardoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo'rqqoqlik, odob-odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylilik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoat va sabrsizlikning oqibati, qadr va qadsizlik, muhabbat, vafo va bevafoqlik, tajribakorlik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylik va nosamimiylik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, reja va rejasizlik, me'yoriy va me'yorsizlik, mas'uliyat va mas'uliyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, sog'lom tarbiya, tozalik va ozodalik, tabiatni e'zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatlari, hayvonlar, qushlar, yer-suvni e'zozlash, kattaga hurmat, yoshga mehr-shafqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, to'y va motam, farzand va farzandsizlik, kiyinish, so'zlashish, yurish-turish, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati, muomala, sayohat qoidalarini, uxlash, yuvinish, jamoat va kattalar oldida o'zini tuta bilish, kitob o'qish madaniyati, kattalarga qarashish, uy yumushlarini bajarish, dars tayyorlash, o'zbek to'ylari axloqiy, aqliy va jismoniy maktab ekanligi kabi qadriyatlardir. Shuningdek, o'zbek xalq pedagogikasi an'alarida farzandlarni estetik idroki, hissiyoti va tasavvurlarini rivojlantirish hamda mukammallashtirish; bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va kamol toptirish, estetik did asoslarini shakllantirish va takomillashtirish; estetik tarbiyada bolalar o'yin folklorining o'rni va ahamiyati, bolalar folklor-etnografiya dastalari — estetik tarbiya markazi ekanligi, vorislik, ustoz-shogirdlik an'alarining pedagogik, axloqiy-estetik ahamiyati, yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish hamda badiiy-estetik tarbiyalashda xalq ommaviy tomosha san'ati, — sirk, dorbozlik, askiya, baxshi-shoirchilik, dostonchilik, ertakchilik, qiziqchilik, taqlidgo'ylik, maddohlik, qiroatxonlik, qissaxonlik, otunlik, voizlik, bo'za-xo'rlik alyorlari kabi san'atlarining tutgan o'rni va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati, xalq an'anaviy sporti, farzandlar jismoniy baquvvatligi va yetukligining garovi ekanligi, chaqqonlik, epchillik va har tomonlama garmonik rivojlanishning sinalgan vositasi ekanligi, bolalar o'yin folklorining pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati, xalq pedagogik tarbiyasida turizm va sayohatning, savdo-sotiq va tijoratning o'rni, jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalarida xalq qiziqarli tomosha san'ati, axloq-odob va ta'limning uyg'unligi va o'ziga xosligi xalq sport va jismoniy tarbiyasida

jinsiy tafovutlarga ahamiyat berishning, axloqiy-aqliy ahamiyati; xalq an'anaviy pedagogikasida tabiat va inson uyg'unlashuvi muammolari, tabiat va tarixni e'zozlash, saqlash va qadrlashning ahamiyati, hayvonlar dunyosi, qushlar olami hamda dov-daraxtlar, o'simliklar va giyohlarga: yer, suv, borliq-atrofga insoniy munosabat — xalq pedagogikasining ekologik tarbiyasi asoslarining asosi ekanligi, odatlar, udumlar, rasm-rusmlar, marosimlar, irim-sirimlar, qarg'ish va olqish-duolar, tabiat, diniy bayramlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, xalq ommaviy bayram-sayllari «Navro'z», «Mehrjon» «Ramazon Hayiti», «Qurbon Hayiti» va boshqalarning, bolaning dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, tish chiqishi, ilk qadami, beshikka solish, birinchi kiyim-bosh kiydirish, besh, yetti kun, o'n bir kunligi, bir yilligi, uch, to'rt, besh yilligining alohida bayram qilinishi, maktabga borishi, sunnat qilinishi, kokil qo'yish, kokil oldirish, mo'ylov oshi, uylanish—nikoh to'yi, birinchi farzand ko'rish, qirq, ellik, oltmish yoshlar tantanalari, payg'ambar yoshi, yetmish, sakson, to'qson yillik yubileyleri, kumush to'y, oltin to'y, marvarid to'y va boshqa bayram-sayllar, to'y-tomoshalar, odatlar, udumlar, marosimlar va an'analarning ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik yo'nalishi va ahamiyati va shu kabilar.

Sanab o'tilgan va boshqa yuzlab udumlar, rasm-rusmlar, odatlar, marosimlar, an'analar, boshqacha ibora bilan aytganda, qadriyatlar, xalq pedagogikasining qirralari naqadar ko'p va xo'bligini taqozo etadi.

2-mavzu: XALQ PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARINI O'QUV-TARBIYAVIY JARAYONGA TADBIQ ETISH

Xalq pedagogikasi xalq ommasi orasida hukmronlik qiluvchi tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasining sohasidir. O'zbek milliy maktabini yaratishda ta'lim-tarbiya ishiga xalq pedagogikasini joriy etish masalasi asosiy muammolardan biridir. Shunday ekan, xalq pedagogikasining zamonaviy maktab oldidagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, ularni mumkin qadar to'laroq amalga oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlash juda muhimdir. Yoki, xalq pedagogikasining o'quvchilarni tarbiyalashdagi va ularga ta'lim berishdagi imkoniyatlarini qay darajada ekanligini bilish lozim.

O'zbek xalqining har bir avlodi xalq ommasining bir necha asrlar mobaynida to'plagan tarbiya an'alarini bolanya hayotga va mehnatga tayyorlashda qo'llab kelgan. Yani, xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan amalda foydalangan. Bizning oldimizda esa zamonaviy o'zbek maktabi o'quv-tarbiya jarayonida milliy tarbiya madaniyatini qo'llash uchun ularning imkoniyatlarini aniqlash masalasi turibdi. Xalq pedagogikasining tarbiya ishini amalga oshirishdagi imkoniyatlari deganda nima tushuniladi?

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda xalq tarbiya tajribasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi(qulay shart-sharoit yaratishi) tushuniladi. Masalan, xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari maktabda tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi - har tomonlama yetuk insonni(shaxsni) shakllantirish. Uning tarkibiy qismlari esa rivojlanayotgan va shakllanib kelayotgan shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy mehnat va nafosat tarbiyalaridir. Maqollar esa, tarbiyaviy jarayonda shaxsni shakllantirishning sanab o'tilgan tarkibiy qismlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit yarata oladilar. Jumladan, xalq maqollaridan aqliy tarbiyaga oid, jismoniy tarbiyaga xos, axloqiy, mehnat va nafosat tarbiyalariga taalluqli o'nlab namunalarni tanlab olish mumkin. Ular esa o'qitishda, sinfdan tashqari tarbiyaviy faoliyatda va maktabdan tashqari tarbiya ishida yuqorida keltirilgan shaxsni shakllantirishning o'zaro bog'liq bo'lgan barcha yo'nalishlarini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan tadbirlarda keng qo'llanilishi mumkin.

Xalq pedagogikasinnig manbalari ma'lum tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ular eng avvalo maktabning (yoki oilaning) oldida turgan maqsad va vazifalaridan, so'ngra esa aniq pedagogik jarayonda hal etiladigan masalalaridan kelib chiqadi. Xususan, o'quv jarayonida yoki

sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlariga murojaat etish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarda, aniqrog'i 3-sinfda o'zbek xalq maqollari o'rganiladi. Mazkur sinf uchun "O'qish" darslaridan birida "O'zbek xalq maqollari" mavzusi bor. Dars jarayonida foydalanish uchun xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanadi. O'qituvchi xalq tarbiya an'analari imkoniyatlarini aniqlashda darsning maqsadlariga e'tibor beradi. YA'ni, "O'zbek xalq maqollari" mavzusidagi darsning quyidagi maqsad va vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin: xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, maqollarni o'rgatish va ular haqida tasavvur hosil qilish; maqollarning mazmunidan foydalanib, o'quvchilarni mehnatsevarlikka, kamtar va odobli bo'lishga, o'zidan kattalarni hurmat qilishga undash; xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va ularni asrashga chaqirish. Keltirilgan maqsad va vazifalarni hal etishga imkon beruvchi o'zbek xalq maqollari tanlab olinadi va bular xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashkil etadi.

«Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari» tushunchasini kiritishning o'zi xalq tarbiya an'alarini zamonaviy maktab va oila tajribasida qo'llash doirasi ma'lum darajada chegaralanganligini anglatadi. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari zamonaviy maktab oldida turgan vazifalar, uning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. O'quv-tarbiya jarayoni samarasini oshirishga to'la imkon bergan taqdirdagina xalq tarbiya tajribasiga murojaat qilish mumkin. Keyingi vaqtlarda O'zbekiston pedagogik davriy nashrlarida xalq pedagogikasiga keng o'rin berilganligini mamnunlik bilan qayd etgan holda, uning mavjud imkoniyatlarini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatish, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlardan ustun qo'yish, ilmiy pedagogikaga bir yoqlama, ya'ni faqat tanqidiy ko'z bilan qarash kuzatilayotganligini ta'kidlash lozim.

Bizningcha, xalq pedagogikasini maktab amaliyotiga tatbiq etishda uning tarbiyaviy imkoniyatlarini hozirgi kun talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, to'g'ri baholash zarur. Xalq pedagogikasi faqatgina ilmiy pedagogika bilan hamkorlikdagina chuqur o'tganiladi. Tarbiya va o'qitishning nazariyasi va uslubiyoti (metodikasi) xalq pedagogikasidan o'quv-tarbiya jarayonida ilmiy asosda foydalanish imkonini beradi. Milliy maktab yaratishda an'anaviylikni zamonaviylik bilan to'g'ri bog'lay olish evazigagina har tomonlama etuk shaxsni shakllantirish vazifalarini mumkin qadar to'laroq hal qiluvchi ta'lim-tarbiya sistemasini ishlab chiqarish mumkin. Yoki, so'z xalq pedagogikasini ilmiy pedagogika va zamonaviy maktab ta'lim-tarbiya tajribasi bilan asosli ravishda bog'lash haqida bormoqda. Bu o'rinda biz xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va ulardan milliy maktab o'quv-tarbiya jarayonida foydalanishning «tarbiya madaniyatida an'anaviylik va zamonaviylikning o'zaro ta'siri» prinsipini ilgari surdik. Bu prinsipning mohiyati quyidagicha.

Milliy ta'lim-tarbiya uchun tarbiyada an'anaviylik va zamonaviylikning o'zaro ta'siri muammosi xosdir. Ya'ni, xalqning etuk inson haqidagi ideallari, uni tarbiyalashga bo'lgan qarashlarini shaxsni shakllantirishga qo'yiladigan zamonaviy talablar bilan taqqoslash va ular orasidagi munosabitni aniqlash lozim.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o'stirish va axloqiy nafosat g'oyalarini egallashlarida qo'llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktab o'qitash jarayonida qo'llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san'atga o'rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa ko'plab amaliy can'at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o'z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta'limi darslarida yoki to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarga bilimlar va amaliy ko'nikmalar berishda foydalanish mumkin.

Xulosa tariqasida o'quv muassasalarida xalq pedagogikasidan foydalanish uchun uning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini bilish zarurligini aytish mumkin

3-mavzu: XALQ PEDAGOGIKASIDA OILA VA OILAVIY TARBIYANING AKS ETISHI

Yurtimiz O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin tarixiy haqiqat va adolatni tiklash uchun umum xalq yurishi boshlandi. Ming yillar davomida yaratilgan, xalqimiz qoni va joniga aylangan ma'naviy durdonalarga yangicha qarala boshlandi. Milliy an'analarning qadri ko'tarilishi kerakligi etirof etildi, bir so'z bilan aytganda, zo'rlik va ongsizlik oqibatida berkitilgan ezgulik buloqlari ko'zini tozalashga kirishildi.

Ilgarilari milliy an'analar va udumlarga ham hadiksirab qaraldi, uning tarbiyaviy xazinalaridan ham qandaydir «illat» qidirildi. Hayotbaxsh xalq an'analari kamsitildi. Ba'zi urf-odat va udumlarga diniy tus berilib, hayot sahnasidan tamom supurib tashlandi. Otabobolarimizning qimmatli pand-nasihatlar eskilikka yo'yildi, qadri toptaldi. Qariyalar hikmatomuz ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati e'tibordan qola boshladi. Ayollar rohatbaxsh allalarni unutayozdilar.

Ovrupocha madaniy hayotga tezroq ko'niktirish uchun bir yarim ming yillik tarix,

ma'naviy meros bitilgai alifbo ham shosha-pisha o'zgartirildi. Kaltabinlik shu darajaga borib etdiki, arab alifbosida bitilgan kitoblarning hammasi diniy deb yo'qotildi. Xullas, qalb ehtiyoji sanalgan urf-odatlar va an'analar ham, ma'naviy xazina durdonalari ham, hur fikrli xalq farzandlari ham deysaldi, yo'qotildi.

Bugun asossiz ravishda unutib yuborilgan asriy qadriyatlarimizni tiklashga urinayapmiz. Xalq an'analari madaniyatimizning bir qismi sifatida jamiyat uchun chinakam xizmat qilishini istayapmiz. Nega? Bunga to'liq javob berish uchun an'ananing o'zi nima? degan savolga javob izlab ko'raylik. . An'ana nima?

«An'ana» asli arabcha so'z bo'lib, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, otalardan bolalarga o'tib, davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabilardir. An'ana ijtimoiy va madaniy merosdir. Ular iqtisodiy, milliy, kasbiy, jangovar, ilmiy, oilaviy an'analar sifatida jamiyatda, ijtimoiy guruh va sinflar orasida keng yoyilgan. Shuning uchun ijtimoiy hayot va an'analarni o'rganish, ularning mazmunini bilish, odamlarning xulqi va xatti-harakatlariga ta'sir etishini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya ishlarida xalqimizning eng ilg'or, hayotda o'zini oqlagan an'analari oila, maktab va mehnat jamoalarida qo'llash, ulardan foydalanish kabi vazifalar hamisha dolzarb bo'lib kelgan. Shu kunlarda, ayniqsa, vatanparvarlik, millatlararo do'stlik, ekologik tarbiyaga doir an'analarni oilaviy tarbiya jarayoniga tatbiq etish, hozirgi avlod kishilarini xalq pedagogikasining xalqchil ko'rsatmalari asosida tarbiyalashni keng qo'llash nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda necha millat, necha xalq bo'lsa, hammasining o'ziga xos turmush tarzi, o'tmish, hayoti va kelajagi bilan chambarchas bog'liq an'analari mavjuddir. O'zbek xalqining ham urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek, hozirgi va kelajak avlod kishilarining ularni chuqur bilishi ma'naviyatining mag'zi to'qligi omilidir. Bu — hamisha, hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan haqiqatdir. Kaykovusning «Qobusnoma»sidan tortib, Al Xorazmiy, Abunasi al Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqat sovg'alari») kabi jahonga mashhur asarlarida, Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis Xorazmiyning «Savdita'lim», Qori Niyoziyning «Hayot maktabi», Abdulla Avloniyning «Guliston yoxud axloq» asarlarida sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan ibratli tomonlar ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo'lgan ota-onani hurmatlash, insoniylik, oqibat, mehr-shafqat, myohmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani (ayolni) ulug'lash, farzandga mehrli va fidoyi bo'lishlik kabi fazilatlar

dunyoga tanilgan bo'lsa, ajab emas.

Xususan, inqilobdan keyingi dastlabki yillardayoq ta'lim-tarbiya, ma'rifat va madaniyat borasidagi asl xalq tarbiyashunosligining ibratli tomonlari yuksak baholangan edi. Xususan, N.Krupskaya bolaga muhabbat, bolaga diqqat-e'tiborni rusiyaliklar Sharq xalqlaridan o'rganishlari kerakligini e'tirof etgan edi. Bu o'z navbatida Sharq xalqlarining asriy an'analari chuqur o'rganish vazifasini keltirib chiqarardi. Bu, masalaga bo'lgan qiziqish ilgaritdan ma'lum edi. Masalan, inqilobdan oldin ham Turkiston xalqlarining urf-odatlar, turmush tarzi, oilaviy marosimlar va shunga o'xshash ko'plab an'analari bir qancha rus etnograflarining ishlarida aks etgan.

Umuminsoniy oilaviy urf-odatlar va an'analarni chuqur o'rganish, ularni tahlil qilish, turkumlashtirish, ularning paydo bo'lish yo'llari, evolyusion taraqqiyotni bilish, aniqlash, ilmiy asoslangai g'oyalarni ilgari surish va shular asosida an'analardan foydalanish yo'llarini tavsiya etishni hayot talab etmoqda. Bularning hammasi kelajak kishisini tarbiyalashda amaliy yordam beradi.

Qadim zamonlardan, hatto o'zbek xalqining yozuvi bo'lmagan paytlardan ham yosh avlodni tarbiyalash asosan oilada amalga oshirilgan. Bunda tabiiy va ijtimoiy omillar hal qiluvchi o'rin tutganligi shubhasiz. Xalq pedagogikasi hamisha yaxshi samara bergan. Shuning uchun ham xalqning tarbiyaga oid bilimlarini chuqur o'rganish, tarbiya natijalariga asoslanib, ularning asliy manbalariga, tarbiya sirlariga nazar tashlash bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Har bir xalq o'zining milliy an'analari asoslangan tarixiy madaniyati va turmush tarziga egadir. An'ana xalqimizning asrlar osha to'plagan milliy boyligi bilan, shuningdek, uning yangi sharoitda yangi mazmun bilan boyitilishi, yangidan-yangi an'analarning vujudga kelishi bilan qimmatli va hayotbaxshdir. Masalaga shunday yondopshilgandagina, an'ana insonlarning turmushi va madaniyati asosi sifatida hozirgi zamon kishilari axloqiga ta'sir etishi mumkin.

An'analarning vujudga kelishi va shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir. Unda xalqning dono fikrlari, axloq mezonlari, insonni hurmatlash va qadrlash o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham yosh avlod ajdodlarimiz tomonidan tarixiy sharoitda vujudga kelgan ilg'or an'analarni o'zlashtirishi, unga rioya etishi, boyitishi nihoyatda zarurdir.

Hayotda mazmuniga ko'ra ilg'or umuminsoniy, shakliga ko'ra milliy an'ana qaror topmoqda. Eski va yangi an'ana qarama-qarshiliklar jarayonida saralanadi, sayqal topadi. Ayrim an'ana qanday bo'lsa, o'sha holda, ko'rinishda uzoq vaqt saqlanib qoladi, boshqalari o'z ko'rinishlarini o'zgartiradi, uchinchilari esa yangilariga uyg'unlashadi, takomillashadi.

Oilaviy an'analarga bolalarning tug'ilishlari bilan bog'liq bo'lgan marosimlar, urf-odatlar,

bolalar tarbiyasiga taalluqli bo'lgan va umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan amaliy maslahatlar, qoidalar, metodik usullar va vositalar kiradi. Ana shu xususiyatlariga ko'ra oilaviy an'analar nisbatan yashovchandir. Ayniqsa, umumxalq ko'rinishidagi oilaviy an'analarning umri boqiydir. Urf-odatlar qancha hayotiy, xalqchil, qancha keng tarqalgan bo'lsa, u xalqqa shuncha tez singadi, shuncha uzoq yashaydi. Masalan, hozirgi kunda mavjud bo'lgan an'analarning ko'pi uzoq tarixga ega. Biroq, ular o'z davrida qanday yaratilgan bo'lsa, shundayligicha qolgan deb bo'lmaydi. Hayot ularga o'zining yangi-yangi xislatlarini, davr silsilasini kiritgani aniq. Har davrning vujudga keltiradigan yangi an'anasida yangi avlod vakillarining milliy xususiyatlari, shuningdek, ularning o'tmish haqidagi yorqin xotiralari, mehnatkashlar ommasining kelajak uchun intilishi o'z aksini topib boradi. Oilaviy an'analar ham bundan mustasno emas.

Boshqa xalq an'analari kabi oilaviy an'analarda ham shu xalqning tarixi, uning turmo'sh sharoiti va hayot tarzi bilan bog'liq o'tmishi va kelajagi aks etdn.

Shu ma'noda o'zbek xalqining oilaviy an'analari qimmatli va azizdir. Ular faqat mazmuniga ko'ra qiziqarli bo'libgina qolmasdan, balki bolalar va yoshlarni mehnatga jalb qilishdagi tarbiya usullari va shakllari bilan ham hayotbaxshdir. Yangi davr, yangi sharoitda ular yangicha mazmun bilan boyib bordi.

O'rta Osiyoning boshqa xalqlarida bo'lgani kabi o'zbek xalqining inqilobdan oldingi hayoti haqida so'z ketganda, bironta oliy o'quv yurtining bo'lmagani haqida ko'p gapiriladi. Bu faktni inkor etmaganimiz holda, boshqa Sharq xalqlari kabi o'zbek xalqida ham avlodlar tarbiyasiga ta'sir etuvchi, kishilarni odamiylik, ezgulikka etaklovchi xalq dorilfununlari bulganini, ularning xalqqa ta'sir kuchi g'oyat katta bo'lganini e'tirof etmoqchimiz. Biz azal-azaldan xalqimizda ko'pchilik ishtiroki bilan o'tadigan hasharlar, bolalarning turli o'yinlari, bolalar ijodi, choyxona suhbatlari, uchrashuvlar, gap-gashtaklar, xalfanalar, to'y va ma'rakalar, mavsumiy bayramlar — gulbarra, lola sayllari, «boychechak» aytish, qovun sayllari, «yangi mehmon» tug'ilishini nishonlash, qizlar majlisi, kelinlarning qaynota, qaynonalar oldidagi «yuz ochdilari», «kelin salomlari», sumalaak, echki o'yini, uloq o'yini, kurash, mehmonda bo'lish, mehmon kutish kabi ko'plab marosimlarni nazarda tutayapmizki, ularning hammasi, ham xalq tarbiyashunosligining durdonalari sifatida avlodlarni o'zbek xalqiga xos bo'lgan «o'zbekona», «sharqona» tarbiyalashda muhim rol o'ynagan.

Xalq pedagogikasining umrboqiyligi, o'lmasligiga sabablardan yana biri uning avloddan-avlodga etkazish shaklining antiqaligidir. Hatto xalqimiz hozirgidek ommaviy axborot vositalariga ega bo'lmagan qadim zamonlarda ham xalq pedagogikasi xalq og'zaki ijodiyoti yo'li bilan qanot qoqqan. Uning tarbiyaviy ta'siri bolalarga ona allasi bilan singdirib borilgan.

O'zbek xalqining asrlar mobaynida to'plagan xalq og'zaki ijodi xazinasi g'oyat boydir. U

xalqimiz ma'naviy madaniyatining oltin xazinasini hisoblanadi.

Keksa avlod vakillari hayot tajribalari asosida to'plangan, shakllangan dono fikrlarini quyi avlodlarga og'zaki hikoya, ertak, afsona, rivoyat, topishmoq, matallar shaklida singdirishga, hikmatlari bilan xalq qalbiga kirib borishga intilgan. Xalq ertaklari, topishmoq va matallar orqali bolalarni ota-onalarining, kattalarning maslahatlariga diqqat-e'tibor bilan quloq solishni o'rgatgan, ertak qahramonlaridan namuna olishga undatan.

Ertaklar faqat bolalargagina ta'sir ko'rsatib qolmasdan, balki ota-onalarning o'ziga ham, ularning hayot tarziga, qarash va ishonchlariga, axloqiy qiyofalariga ham ta'sir etadi.

Xalq xotirasida saqlanayotgan, avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan eng yaxshi ertak va dostonlar, maqol va matallar ashula va topishmoqlar bolalarni tarbiyalaydi, yaxshilikka, mehnat qilishga va haqgo'ylikka undaydi. Xalq og'zaki ijodida inson hayotining hamma qirralari aks etgan. Ularda ota-onalarning bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish borasidagi yo'l-yo'riq va usullari ham o'z ifodasini topgan. SHuning uchun ham hozirgi paytda tarbiyaga ta'sir ko'rsatuvchi xalq og'zaki ijodiga bo'lgan e'tibor kuchayib bormoqda.

Xalq og'zaki ijodida bolalarni bosiqlikka, sofdillikka, oddiylikka undash bilan birga, ulardagi gerdayish, ichi qoralik, chaqimchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralangan. «Manmanlik qilma, netarsan, obro'yingdan ketarsan», «Sen o'zingni maqtama, seni birovlar maqtasin», «Egilgan boshni qilich kesmas», «Mevali daraxtning mevasi qanchalik ko'p bo'lsa, uning boshi shunchalik pastga egiladi», «Baxilning bog'i ko'karmas», «Birovga go'r qazisang, o'zing yiqilasang», «Egri o'ltirib, to'g'ri gapir», «Ko'rpangga qarab oyoq uzat» singari xalq maqollarida pand-nasihat ifoda etilgan.

Ko'plab maqol va matallarda bilimli bo'lish ulug'lanadi, bilimsizlik qoralanadi. «Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar», «Ilmi yo'qning ko'zi yumuq», «Ilmsiz bir yashar, ilimli ming yashar», «Ko'p o'qigan — ko'p bilar», «Olim bo'lsang, olam seniki», «O'qigan o'g'il — otadan ulug'» va hokazo.

Vatanparvarlik, vatanni sevish mavzusi ham maqol va matallarda aks etgan. Vatanparvarlik kabi sifatlarni shakllantirish muhim o'rin tutgan. Masalan, «Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l», «Ona yurtida omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas», «Elga qo'shilganning ko'ngli to'q, eldan ajralganning beti yo'q».

Oilaviy tarbiyada xalq pedagogikasi an'analar, ertak, maqol, topishmoq va matallar shaklida o'z ifodasini topgan va u tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositasi sanalib, tarbiyaning barcha qirralarini qamrab olgan. Ayniqsa, inson va uning tarbiyasi, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash, bolaning yosh davrlari, ularning dangasalik va injiqliklari, o'yinlari, qizlar tarbiyasi haqida ajoyib matal, maqol, aforizmlar yaratilgan bo'lib, ular xalq pedagogikasi sabog'ining

yorqin namunasidir.

Xalq donishmandligida ota-onalar haqida, ularning bolalari bilan munosabatlari, onaning madaniy, tarbiyaviy ta'siri, donoligi atroflicha yoritilgan. Masalan, oilada hamma kishi bir kishiga — otaga itoat etgan. Otaning yoki onaning gapi ikki qilinmagan. Otaning izmidan chiqish, u kishining buyrug'ini bajarmaslik, otaga rap qaytarish, unga tik boqish gu-noh hisoblangan. Ota farzandining nojo'ya ishi, qilig'i, gapi, qilmishi uchun haqorat qilishi, so'yishi, hatto urishi mumkin bo'lgan. Lekin farzand otaga tik boqmagan, otaga yoki onaga qo'l ko'tarmagan. SHu sababli ham bunday tartibli oilalarda bebosh o'g'il, nopok qiz bo'lmagan. Hadisda yozilganidek «Otaga itoat qilish - Tangriga itoat qilishdir. Uning oldida gunoh qilish Tangri oldida gunohkor bo'lish bilan barobardir».

SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, xalq donishmandligi, an'analar avlodlardan-avlodlarga o'tish jarayonida shakl jihatidan o'zgarishlarga uchraydi, lekin o'z mazmuni, tarbiyaviy ta'sirini yo'qotmasdan hozirgi va kelgusi avlodlarga xizmat qiladi. Xuddi shu ma'noda xalq pedagogikasini ilg'or tarbiya g'oyalari bilan uyg'o'nlashtirish, oilaviy tarbiyada qo'llanilgan an'analarni yildan-yilga shakllanib borayotgan yangilari bilan boyitish, tuzumimiz uchun sadoqatli yoshlarni voyaga etkazish davrimizning eng muhim muammolaridan biridir.

Xalq tajribasida tarbiya uslubi

SHarq xalqlari, jumladan o'zbeklar bolalar tarbiyasiga befarq qaramaganlar. Hayotdagi har qanday xatti-harakatning ham oqibati to'g'ri baholangan.

YOshga monand ta'sir ko'rsatish yo'l va vositalari yaratilgan. Kerak bo'lganda rag'batlantirish turlaridan foydalanilgan, lozim bo'lsa jazolangan. «Bir bolaga etti mahalla ota-on» deb bejiz aytilmagan. Tarbiya borasida xatolikka yo'l qo'ygan bola u kimligidan qat'i nazar jazolangan. Noaxloqiy xatti-harakatlarni qisqa va lekin o'ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan «yomon bo'ladi» iborasi bilan tavsiflangan.

Masalan, xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan odob-axloq qoidalariga ko'ra nonga hurmat ulug'langan va non ushog'i bexosdan erga tushib ketsa, «yomon bo'ladi» deb, uni qo'lga olib ko'zga surtib o'pib, og'izga solingan yoki chetga olib qo'yilgan.

Suvga tuflash -«gunoh» bo'ladi, «yomon bo'ladi» deb tushuntirishgan. qadimda hovuzlarning suvi haftalab, oylab toza turgan. Biroq, kishi uni «harom» qilishga botinolmagan. Bolalarga bu «yomon bo'ladi» iborasi orqali etkazilgan.

Qozonga mushuk yoki it, sutga sichqon tegsa o'sha idishlar «harom» hisoblanib, toza suvda yaxshilab yuvilgan. Qechqurun qozon yuvuqsiz qolsa «harom» bo'lgay... Kechasi uy

supurilmagan, supurgi yotqizib qo'yilgan... Ikki qo'lini orqaga tirab chalqancha yotish, barmoqlarni zanjir qilish, oyoqlarni chalishtirib, ko'pchilik oldida uzatib o'tirish odobsizlik hisoblangan.

«YOmon bo'ladi» iborasi orqali kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik tarbiyalangan, etim bolalarga, boshiga musibat tushgan oilalarga ozor etkazilmagan. Otaga tik qarash, ularga ters javob berish, qizlarga, umuman xotin-qizlarga bexayolik qilish «yomon bo'lish»ini yoshlikdan tushuntirilgan. Bunda bolaning yoshi, xatti-harakatlari, o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Ayrimlariga noaxloqiy xatti-harakatlarning yomonligi Qur'oni karim, hadislardan misollar keltirish, hikoyalar aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagi bolalar ota-ona, aka-uka, opa-singil, qo'ni-qo'shnilarning ijobiy xatti-harakatlari namunasida tarbiyalangan.

Bunday axloqiy fazilatlar bola aqlini tanimasdan, gapirishni bilmasdan oldin ota-onalar turmush tarzida ifodalangan. Keyinchalik esa, «yomon bo'ladi» iborasi orqali davom ettirilgan.

Masalan, musulmon farzandi quyosh chiqquncha uxlasa, «yomon bo'ladi», erta saharda eshik ochilmasa, «yomon bo'ladi», «kunlik rizqimizdan benasib qolamiz» iboralari bolalarni erta turishga undagan. Kechki payt quyosh botish arafasida uxlasa, «yomon bo'ladi» deb uqtirilgan.

Hayvonlarga, qushlarga tosh otma, ozor berma, «yomon bo'ladi», mevalarni tishlab tashlama, «yomon bo'ladi», qush uyasini buzma, ekinlarni payhon qilma, «yomon bo'ladi», kabi iboralari orqali ona tabiatga hurmat, uni avaylab-asrashga o'rgatilgan, hozirgi so'zimiz bilan aytilganda ekologik tarbiya asoslari berilgan.

Saranjom-sarishtalik — uyning bezagi, tejamkorlik — farovonlik kaliti, to'g'rilik, halollik—ko'ngil xotirjamligi ekanligini mehnatkash xalqimiz unutmagan va oilada bolalarni ana shunday fazilatlar asosida tarbiyalashga doimo vaqt topisha olgan. «Toma-toma ko'l bo'lur, tommay qolsa, cho'l bo'lur»—xalq, maqolining qimmatini ham ana shunda.

O'zbek xalqida bolalar bilan bog'liq juda ko'p yaxshi an'analar bor. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat, ularni sevish, erkalash, parvarish qilish, ta'lim-tarbiya berish, ehtiyotlash kabi insoniy qa-rashlarni targ'ib qilib kelgan.

Oilada yangi insonniig dunyoga kelishini barcha xalqlar qadimdan kishi hayotidagi eng quvonchli hodisa sifatida nishonlab kelganlar. Xalqimiz ana shu quvonchni ifoda etuvchi turli urf-odatlarini ijod etgan.

O'zbeklarning qadimiy urf-odatlariga ko'ra yangi chaqaloqning dunyoga kelishi faqat uning ota-onasi uchungina emas, balki hamma qarindosh-urug'lari va mahalla-ko'y uchun ham sevinchli hodisa hisoblangan.

Hozirga qadar saqlanib kelayotgan qadimiy odatlardan biri yangi chaqaloq sharafiga mevali daraxt o'tqazishdir. Bu bilan ular yangi chaqaloqning dunyoga kelishini an'anaviy marosimga aylantirish va tabiatga mehr-muhabbat uyg'otibgina qolmasdan, balki keyingi avlodlar hayotining farovonlashishini ham ko'zlashgan.

Xalqimizda faqat o'zining bolasinigina emas, umuman o'ziga yaqin hamma bolalarni sevish, ehtiyotlash, ularning tarbiyasi bilan shug'ullanish, payt kelsa, sho'x bolalarni tartibga chaqirish, ona suti berib, parvarish qilish an'analari avloddan-avlodga o'tib keladi. «Bir bolaga butun mahalla ota-ona» degan maqol shundan. Mahalladagi har bir bolaning yurish-turishi, tarbiyasi uchun hamma baravar mas'uliyat his qilgan. Ota-onasiz qolgan bolalarni boqishni butun mahalla o'z zimmasiga olgan. Emizikli bolalar uchun ko'ragida suti bor onalarni jalb etish g'oyat qadr-langan. Bu savob ish, olihimmatlik, bag'rioqlik deb hisoblangan. Boquvchisi yo'qlar ham mahalla e'tiboridan chetda qolmagan. Qazosi etganda butun mahalla ko'mgan.

Biz xalq og'zaki ijodi asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, xalqning nom qo'yish odatiga keng o'rin berilganini ko'ramiz. SHarq xalqlari, xususan o'zbek xalqida shunday odat bor: bolalarga oiladagi kattalar, elu yurt o'rtasida mo'tabar bo'lgan kishilar, e'tiborli qariyalar nom qo'yadilar. Bu qadimdan qolgan rasmdir.

Masalan, «Erali va SHerali» dostonida aytilishicha, o'sha zamonning rasmiga ko'ra bolaning birini podsho o'z qo'liga olib, birini xotiniga ko'tartirib, ipak alvon chodirlarning ichidan xaloyiqqa qarab, bolalarga munosib ot qo'yishni so'radi:

Birisini berdim haylo gulima,
Birisini o'zim oldim qo'lima.
Bir maslahat sizlarday el-kunima,
Birodarlar, ot qo'yinglar o'g'lima.

... ba'zilar aytdi; egizak bo'lganidan keyin Hasan-Husan bo'ladi, deb. Birovlar: SHamsi va Qamar... deyishdi, yana biri aytdi: Jalil va Karim deb. Hech birining degani podshoga yoqmay turganda to'qson yamoqli to'n kiygan Qalandar el o'rtasiga chiqadi. Ana shu qalandarning qo'ygan oti —Erali, SHerali hammaga ma'qul bo'ladi.

Ota-onalar bolalarga ism qo'yishda badiiy asar qahramonlari nomiga ham murojaat etishadi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidagi Otabek, Alisher Navoiyning «Farhod va SHirin» dostonidagi Farhod va SHirin, Oybekning «Dilbar — davr qizi» poemasiidagi Dilbar ismlari bilan yuzlab o'g'il-qizlarimiz ataldi.

«Bola- aziz, odobi undan aziz». Bu maqolda o'zbek xalqining tarbiyaga oid qarashlari o'z ifodasini topgan. Bu e'tiqod yillar davomida ular ongiga singib ketgan. Ota-onalar farzand ko'rish, ularni sog'lom o'stirish bilan birga, ularning odobli bo'lishlarini ham orzu qilishgan. Bola tilga kirishi bilanoq axloqiy tarbiyaning alifbosi bo'lgan salomlashishni o'rgatishgan. Bolalar uyga kirishda, o'zidan kattalar bilan uchrashganda, yo'lda ketayotganda o'ng qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda «Assalomu alaykum» deb so'rashadilar. Bu ham xalq tarbiyashunosligining azaliy o'lmas sabog'i bo'lib, o'zbek xonadonida mustahkam o'rin olgan.

Xalqimiz o'zining an'anaviy tarbiya uslublarida bolalardan kattalarga birinchi bo'lib salom berishni, kattalar suhbatiga aralashvermaslikni, ularni hadeb savollar bilan charchatmaslikni, kattalar o'z joylariga o'tirgunga qadar o'tirmaslikni, uyga mehmonlardan so'ng kirishni, lekin eshikni birinchi bo'lib ochib, ushlab turish, ularga yordam berish kabi odob qoidalariga rioya etishni har doim talab qilgan. Ota-ona dasturxondagi taomga qo'l uzatmaguncha hech kim qo'l uzatmagan. Dasturxon atrofida o'tirganda choyni yoshi kichiklar quyishgan. Piyolani o'ng qo'lga ushlab, chap qo'lini ko'ksiga qo'yib, piyolani oluvchiga uzatgan. Dasturxon atrofida o'tirganlar ovqatini eb bo'lsa yoki biror yoqqa bormoqchi bo'lsa, faqat yoshi katta kishilardan kechirim va ruxsat so'rab, keyin joyidan turganlar. Bunday qoidalariga rioya qilgan bolalargina, tarbiya ko'rgan bolalar sifatida baholangan. Bolalar xulq-atvoriga qarab ota-onalarning tarbiyaviy iqtidorlariga baho berilgan. Ijobiy baholar «Otangga rahmat!» kabi rag'batlarda ifoda etilgan bo'lsa, aksincha salbiy holatlarga duch kelinganda «Padaringga la'nat» kabi koyish o'zbek xonadoni sha'niga katta dog' hisoblangan. YUqoridagi odob qoidalari hozirgi kunimizda ham o'z ahamiyatini deyarli yo'qotmagan bo'lib, ular bolalarimizning madaniy xulq ko'nikmalarining qaror topishida muhim rol o'ynamoqda.

Xalq madaniyatining eng muhim belgilaridan xushmuomalalikka, hozirjavoblikka alohida e'tibor berilgan. SHarq xalqlari o'z bolalariga soxtalik, yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan, samimiy munosabatni ulug'lagan, o'rgatgan.

Xalq pedagogikasini chuqur o'rganar ekansiz, mutafakkirlarning ta'lim-tarbiyaga oid, odob-axloqqa oid asarlarini ko'zdan kechirar ekansiz, o'zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta'sirchan uslubi — o'yin shaklidan juda oqilona foydalanganini ko'rasiz. O'g'il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir qilib, qizlarni mehr-shafqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalaydigan shunday an'anaviy o'yin shakllari bo'lganki, ularni xalq etnografiyasini o'rganish yo'li bilan tiklash, hozirgi ishlarimizda ham qo'llash kerak. N.Krupskaya xalq tarbiyasi tajribasidagi eng yaxshi uslub va usullarni olishni targ'ib qilib, o'zbek bolalari o'yinlarining o'ziga xos xususiyatlarini ijobiy baholab, ularning tabiat bilan yaqin munosabatda yashashlarini, juda ko'p qiziqarli o'yinlarga egaligini, jismonan rus bolalariga nisbatan

chiniqqanroq, chaqqonroq ekanliklarini qayd qilgan edi.

Xalq pedagogikasida farzandni jismonan baquvvat, aqlan barkamol qilib tarbiyalash bilan birga ularni hayotga, turmushning og'ir-engil sinovlariga tayyorlab borishga ham qattiq e'tibor berilgan. Bunda ta'lim-tarbiyaning o'git, nasihat, namuna bo'lish, mehnatda chiniqtirish shakllaridan unumli foydalanilgan.

YOz kunlaridan birida bog'da ko'maklashayotgan bola otasidan so'rabdi:

— Nima uchun mana bu daraxt qiyshiq, mana bunisi esa to'g'ri?

— O'g'lim,— deb javob beribdi ota,— bu daraxtning qiyshiq o'sgan joylarini qirqib, parvarish qilib turilgan, ikkinchi daraxt esa o'z holicha o'sgan, shuning uchun qiyshiq.

— Unday bo'lsa, daraxtlarni doim parvarish qilish kerak ekan-da,— xulosa chiqaribdi o'g'il.

— To'ppa-to'g'ri,— deb javob beribdi ota,—o'g'lim, daraxtlarni parvarish qilish ko'p foyda keltiradi. Sen ham xuddi yosh niholga o'xshaysan. Sening xatolarinuni tuzatib tursam, yaxshi narsalarga o'rgatsam» sen esa mening so'zlarimdan chiqmasang, yaxshi odam bo'lib voyaga etasan. Agar sen mening gaplarimga quloq solmasang, xuddi mana bu ikkinchi daraxtga o'xshab egri o'sib voyaga etasan, debdi.

Ota-onalar farzand fidoyilaridir. Bu sharq xalqlari, xususan o'zbek millatiga xos bo'lgan fazilatdir.

Odobli va epli qiz — oila baxti

«...Ularning harakatlari chaqqon, jo'shqin, biroq hech qachon bir yoqlama emas. Qiz bolaning xatti-harakati yoshlik chog'idanoq kuzatib borilgan, shu sababdi qizning faqat xatti-harakatigina emas, balki xulqi ham tabiiydek ko'rinmas edi. U masalan, tez yurishni xohlaydi, lekin dinning siquvi ostida yurshiga majbur. Unga oyoqni uzatib, qo'lini ikki tomonga harakatlantirib yurish man etilganligi uchun ham uning yurishi alohida, faqat ayollarga xos harakter kasb etgan. U oyoqlari bilan tez, lekin mayda qadam tashlaydi, shu bilan birga, faqat qo'llarigina emas, balki elkasi va kallasi ham deyarli qimirlamaydi. Bunday ko'rinish va o'zini engillik bilan boshqara bilishi uning ma'naviy «men» ligini ifodalaydi.

Ko'plab qizlar o'zlarining taassurotlarini ba'zan lab va qosh harakatlari bilan oliy darajada ifodalaydilar. Masalan, savol bermoqchi bo'lsa, u qimirlamay qoshini tepaga shunday chaqqonlik bilan bip oz ko'taradiki, natijada haqiqatan boshqa har qanday savol uning tomonidan ortiqcha ekanligi ayon bo'ladi, chunki uning yuzi mukammal darajada o'z-o'zidan savol «belgisiga aylanadi...»

Darhaqiqat, o'zbek xonadonida qadim-qadimdan qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Ularniig xulqi, odobi, tarbiyasi hamisha diqqat markazida bo'lgan. «Bir qizga etti

mahalla ega» degan naqlning yashab kelayotgani esa qizlar tarbiyasi bilan, keng jamoatchilik shug'ullanganidan, bu masala ijtimoiy ruh kasb etganidan dalolatdir.

O'zbek xonadonidagi qizlar birinchi navbatda ota-onaga itoatda, kattalarga hurmatda bo'lish ruhida tarbiyalanib, odobning nozik tomonlariga o'rgatilgan. SHuning uchun ham ular har doim sernazokat bo'lishgan, ayniqsa, mehmonlar oldida muloyim odob saqlashgan. Ular yoshlik chog'laridanoq belgilangan xulq-odobni o'zlashtirishgan. Masalan, qizlar o'ltirgan uyga tashqaridan ota yoki katta akalari kirib kelishsa, ular darrov o'rinlaridan turib, salom berishga o'rgatilgan. Kattalar bilan bo'lgan muloqotlarda o'zlarini vazmin tutishga, berilgan savollarga erkak kishishshg yuziga deyarli qaramay, gavdani bir oz egib, osoyishta ohangda javob berishga undalgan.

Qiz bola bir yoshga etganda ikki qulog'ini teshib isirg'a taqishgan. Ulg'aygach sochlarini mayda o'rib, qirq kokil qilib orqasiga tashlab, boshiga do'ppi kiyib yurishgan. Sochining ko'pligi va uzunligi uning sog'lom, odobli, go'zalligi ramzi hisoblangan. Qiz bola etti yoshdan oshgach, na otasi, na aka-ukalari o'pib erkalatmaganlar. Uni akalari va ota-onalari bilan bir xonada yotqizilmagan va hokazo.

Tarixdan qizlar tarbiyasi bilan asosan onalar shug'ullanganligini bilamiz. Onalar ijtimoiy foydali mehnatga keng jalb etilishi munosabati bilan o'zbek oilalarida ota-onalarning tarbiya vazifalarida qayta taqsimlanish sodir bo'ldi. Masalan, otaning qizlar tarbiyasiga faol aralashuvi oqibatida qizlar dovyurak, jangovarroq, cho'rtkesar, so'zamol, epchil bo'lib tarbiyalanayotirlar.

Qizlar harakgeridagi bu o'zgarish jarayoni shu qadar tez va shu qadar shiddatli bo'ldiki, ko'p vaqt o'tmay oilalarda «qizlarni asliga qaytarish» muammosi ko'ndalang turdi. Ayol qudrati jami xatti-harakatda erkaklar bilan tenglikda emas, nazokat va mehr-shafqatda ekanini yoshlarga singdirish zarur bo'lib qoldi. Bu borada yana sharqona, o'zbeklarga xos odob-axloqni joriy etish, latofat, bosiqlik, mulohazalilik, andisha, o'zini tuta bilishlikni tarbiylash, xalq pedagogikasi durdonalaridan unumli foydalanish zarurligi borasida ko'p gapirila boshlandi. qizlar tarbiyasida ularning his-tuyg'ulariga, tabiat va jamiyat oldidagi burchini teran tushunib etishiga alohida ahamiyat berish kerakligi ta'kidlandi. Bularning hammasi oiladan boshlanadi. O'zbek xonadonida kichik yoshidanoq qizlarning kiyinishi, shaxsiy gigienasi, xatti-harakati nazoratga olinadi. Qizlarga og'ir ishlar buyurilmaydi. Ularning ma'naviy tarbiyasiga katta e'tibor beriladi. Qizlarning o'ziga xos iffati, odobi, kiyinish etikasi, kishilar bilan munosabatda iboli, andishali bo'lish kabi axloqiy sifatlar singdirib boriladi.

Nazarimizda qizlarning ibosi, odobi va ma'naviy kamolotiga faqat oiladagina emas, balki jamiyat nuqtai nazaridan ko'proq e'tibor berish, ularning didi, madaniyatlardan foydalanish darajasini nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday tarbiya namunalarini xalq

tarbiyashunosligidan o'rgansa bo'ladi. Uning hech qacda yozilmagan shunday saboqlari, nozik jihatlari borki, ularni o'rganish, tiklash payti keldi. Xalqning chuqur madaniyatidan dalolat beruvchi kichik bir udumni eslatib o'tmoqchimiz.

Qadim-qadimdan qiz bola uyda yolg'iz qolgan bo'lsa, uzoqdan kelgan erkak mehmon ham bu xonadonga bostirib kirmagan. Yukini uyga tashlab, xonadon sohibi kelguncha, ko'cha-ko'yda aylanib yurgan. Qariyalar, ayollar bo'lsa boshqa rap. Ularga ota-ona kelguncha, izzat-ikrom ko'rsatilgan, mehmon qilingan. Imkon bo'lsa, suhbatlashib o'tirish uchun qo'ni-qo'shni chaqirilgan. O'zbek oilalarida qizlar tarbiyasiga o'g'il bolalar-ga nisbatan mas'uliyatliroq yondashiladi. Nazarimizda, buning sababi ota-onalarning qizlarning kelajaklari haqida ko'proq qayg'urishlari, bobo va buvilarimizning an'anaviy uslublariga tayanib, ularni ro'zg'or mehnatiga ko'proq jalb etishlaridir. Qizlar uy yumushlariga ko'proq tortiladi. Ular yoshligidanoq epli qilib tarbiyalanadi. Uyni yig'ishtirish, tongda turib eshik ochish, hovli va ko'chani chinnidek qilib supurish, kiyim bichish-tikish, magazinlardan oziq-ovqat harid qilish, kir yuvish va ko'plab boshqa ishlarga o'rgatiladi.

Deyarli barcha ota-onalarning (ayniqsa onalarning) fikriga, qizlar tarbiyasiga bo'lgan bunday mas'uliyat, ularni mehnatga o'rgatishning oqibat maqsadi — ularni bo'lajak oilaviy hayotga iloji boricha yaxshi tayyorlashdan iboratdir. Qizlarning tabiatan intiluvchanligi, harakatchanligi, vazminligi va mehnatsevarligi ular bilan ishlashni bir oz engillashtiradi. SHarq xotin-qizlarining mehnatsevarligi, ibosi, hayosi va tabiatan vazminligi, ayniqsa, ularning mehnati g'oyat qadrlanmoqda, iftixor bilan tilga olinmoqda. Albatta, bundan hamma ishlarni ayollar bajarishlari lozim, erlariga tobe bo'lishlari kerak, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Ayni paytda ayrim oilalarda xotin-qizlarga nisbatan hozirgi kunda ham ayni shunday noto'g'ri munosabatlarda bo'linayotganligini, hatto kichik yoshdagi o'g'il bolalar ham o'zlarini har jihatdan qizlardan, ba'zan hatto onasidan ham ustun qo'yayotganining guvohimiz. Ayrim oilalarda erkaklar ayollarga nisbatan ko'proq huquqqa ega ekanliklarini ko'rsatishga uriadilar. Bu salbiy holatlarga chek qo'yish kerak.

Xullas, ota-onalar qizlarni aqlli, dono, chiroyli, mehnatsevar, keyinchalik oilani boshqara oladigan qilib o'stirishga harakat qiladilar, or-nomusli, iffatli bo'lishini istaydilar va ularni shu ruhda tarbiyalaydilar. Qizlarga «Sepli qizim bo'lguncha, epli qizim bo'l» deb nasihat qilinishining boisi ham shundadir.

Qari bilganni pari bilmas, keksalar haqida rap ketganda, biz ularni xonadonimiz farishtasi, xayru barakasi deb ataymiz. Xalq donoligi, ming yillik tajribalar, milliy an'analar qariyalarimiz ongida, faoliyatida, turmush tarzida jamlangandir. Ular yosh avlodning ustozlari, murabbiylari, hayot dorilfununidir. Donishmandlar qari bilganni pari bilmas, deb bejiz

aytishmagan.

YOsh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati, ayniqsa benihoyadir. Bobo va buvilar oilada tarbiyani mukammal yo'lga qo'yishda, chinakam xalqchil tarbiyani, oilaviy tarbiyani yaratishda jonkuyarlik qiladilar. YOshlarga ta'sir etishning eng samarali shakllarini tanlaydilar.

Oila jamiyatning eng kichik o'chog'idir. Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga etadi. Keksalar ko'pincha «Bug'doy eksang bug'doy olasan, arpa eksang — arpa olasan» deyishadi. SHuning uchun ham kelajagimizning qanday bo'lishi bugun qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg'ular, qanday orzular bilan to'ldirayotganimizga bog'liq. Hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan, sinovlariga bardosh bergan keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas'uliyat bilan qaraydigan kishi bo'lmasa kerak. Ular o'zlari bilganni sidqidildan farzandlarga o'rgatadilar, ayni paytda donishmandlik bilan yoshlarni yomon xatolardan asrashga harakat qiladilar. Ular insoniyat abadiy zanjirida o'tmishda erishilgan boy ma'naviy qadriyatlarni kelajak avlodga etkazuvchi bebaho xalqdir.

Ana shunday ulkan mas'uliyatli vazifani bajarishda katta avlod vakillari hissasini o'zida aks ettirgan oilalar juda baxtli dirlar. SHahrimizdagi maktablarning birida 5—6- sinf va 8—10- sinf bolalari bilan suhbat o'tkazdik. Ma'lym bo'lishicha, oilasida buva va buvisi bor bolalarning o'zlashtirishi, xulqi boshqa yosh oilalardagiga qaraganda bo'lakcharoq. Ular o'qituvchilardan kam tanbeh eshitishadi, darsda, ayniqsa mehnat darslarida o'zlarining uquvliroq va idrokliroq ekanliklarini namoyon etishadi.

Biz juda ko'plab oilalarni kuzatganimizda nabiralar, ularni parvarish qilish, tarbiyalash kabi vazifalar buva va buvilarga alohida mas'uliyat yuklashining shohidi bo'ldik.

Hozirgi buva va buvilarni yosh jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin. Ularning birinchisi yosh «qariyalar», ya'ni nafaqaga chiqqunga qadar yoshdagi buva-buvilar, ikkinchisi esa nafaqaga chiqishdan qariyalardir.

Biz keksalar va kabiralar orasidagi iliq munosabat haqida gapirganda, asosan ikkinchi guruhga kiradigan, ya'ni nafaqa yoshiga etib «buva-buvilik gashtini surayotganlar»ni nazarda tutayapmiz. Chunki birinchi guruhdagilar «yosh qariyalar» hali 50—60 yoshga bormagan, xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'ida ishlashadi, tom ma'noda buva-buvilik qilishga vaqtlari yo'q. Hali ularning moddiy-madaniy ehtiyojlari «so'n-magan» bo'ladi. Ular yaxshi kiyinishni, yaxshi eb-ichishni, bo'sh vaqtlarini ko'ngilli o'tkazishni, televizor ko'rishni, radio tinglashni.. gazeta-jurnal o'qishni, kino-teatrlarga borishni, yangicha urf-odatlar va marosimlarda ishtirok etishni istaydilar va bu tabiiy. SHuning uchun bu toifa «qariyalar» nabira boqishni uncha xush

ko'rmaydilar, ularni ota-onalariga yopishtirishga harakat qiladilar, bolalarni yasli va bog'chalarga joylashni maslahat beradilar. Umuman, bu yoshdagi qariyalarni bolalarni—nabiralarni tarbiyalashdagi ta'siri oz bo'lgani uchun ham, rap asosan boshqa toifadagi qariyalar, ya'ni 50-60 yoshdan ortgan qariyalar haqida boradi. Ularning hayot tarzi boshqacha. Ularning ko'pchiligi nafaqaga chiqqan. Moddiy, madaniy ehtiyojlari birmuncha ta'minlangan. Ular o'zlarining ko'p vaqtlarini mahalla-ko'y va qarindosh-urug'lardagi marosimlarda ishtirok etishga bag'ishlaydilar, nabiralar parvarishiga ham fursat topadilar. Ko'pincha nabiralar parvarishi, ularning asosiy va sevimli mashg'ulotiga aylangan bo'ladi. Ularning bolalarga ta'siri beqiyos.

SHaxsiy namuna esa hamma vaqt yaxshi samara beradi. Bunday keksalar oilada o'zlarini yagona tarbiyachilar deb biladilar. SHu nuqtai nazardan bolalar tarbiyasiga alohida mehr bilan qaraydilar. Bolalar

ham ularning samimiy, fidoyi mehrini sezaдилar, ularga ishonadilar, ergashadilar. Kezi kelganda buva-buvilarning kichik avlod tarbiyasi oldidagi mas'uliyati oila to'liq bo'lmagan (bola yo otasiz, yo onasiz o'sayotgan) oilalarda, ayniqsa ortiq ekanini aytib o'tmoqchimiz. Bunday oilalarda keksalar bolalar otasiz yoki onasiz o'sayotgani uchun ko'ngli o'ksimasin debgina qolmay, bolaning ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi uchun harakat qiladilar. Odatda bunday oilalarda buva o'lgan otaning o'rnini, buvi o'lgan onaning o'rnini bosadi, bolani nevaram deb emas, bolam deb muomalada bo'ladi. YAqin o'tmishda «tarbiyalash sinovidan» o'tganliklari uchun ham, ya'ni o'z bolalarini tarbiyalaganliklari, bu faoliyatni boshidan kechirganliklari uchun ham tarbiyaning xilma-xil usul va shakllarini yaxshi biladilar, ulardan bilib foydalanadilar. Jumladan, oilada bolalarni tarbiyalash uchun xalq pedagogikasi qo'l kelishini yaxshi biladilar. Ularda xalqning ilg'or anʼanalari urf-odatları, ertak va maqollari, qo'shiq va dostonlari, topishmoq va matallari mujassamlashgan bo'ladi. Xalq og'zaki ijodida aqliy, axloqiy va jismoniy kamolot, ilm va hunarga muhabbat, insonparvarlik va mehnat-sevarlik, rostgo'ylik va mardlik kabi tarbiyaning hamma tarkibiy qismlari mavjud.

Darhaqqat, xalqning ko'p asrlar mobaynida to'plagan, sayqal bergan ijodiyoti durdanalarining tarbiyadagi roli bebahodir. Xalq donishmandligi ildizidan bahra olib tarbiya ko'rgan, eng ezgu tilaklari ma'naviy kamolot, madaniyatga borib taqaladigan xalqimiz ruhida bu donishmandlikka hurmat bilan qarash, ergashish, o'rganish hamisha oldinda bo'lib kelgan.

Biz ajoyib yozuvchilar, olimlarning biografiyalariga nazar tashlar ekanmiz, ularning o'sib yuksalishi-da, insoniyat tarixida buyuk kishilar bo'lib etishishlarida buvi va buvalarning katta hissasi borligini ko'ramiz.

Hamza, Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Quddus Muhammadiy kabi atoqli adiblarimiz asarlarida xalq og'zaki ijodiyotining ta'siri beqiyos ekanligini yaxshi bilamiz.

Hamid Olimjon bolalik kunlarida buvisidan tinglagan ertaklari va ularning ta'sir kuchini shunday eslaydi:

Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko'p ertak eshitgandim,
So'zlab berardi buvim.
...Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi.
Havasim ortar edi.
Tinglar edim betinim,
Uzun tunlar yotib jim,
Seza olardim kuchin.

Bolaning odobli, axloqli va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun har bir oiladagi sharoit, oila boshliqlarining namuna bo'lishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ularning yaxshi odatlari, muomala madaniyati, so'zi bilan ishining birligi farzandlar uchun ibratdir. Keksalarning yana bir ajoyib fazilati, bolalarning ruhiy holatlarini doim kuzatib borishlari ular qalbini anglashga intilishidir. Sezasizmi, o'zbek oilalarida bobo va buvilar bolalar bog'chasi yoki maktabdagi hayoti bilan, o'rtoqlari va mashg'ulotlari bilan batafsil qiziqadilar, nabiralarning hamma o'rtoqlarini taniydilar. Ana shu jihati bilan ham oilada bolalarni tarbiyalashda buvi va buvalarning hissasi ota-onalarnikidan ortiq bo'lsa borki, kam emas. Ota-onasini tarbiyaladim etar, nevaramni o'zi tarbiyalasin, o'zi qarasin, degan rap juda ko'pchilik uchun yotdir.

Yoshi ulug'larni hurmat qilish, e'zozlash o'zbek xalqining qadimiy udumidir. SHunga ko'ra keksa avlod vakillarining yoshlarni mehnatsevar, vijdonli, chidamli, aqlli, xushchaqchaq, dilkash qilib tarbiyalashlari, kichiklar haqida qayg'urishni, yomonlikka nafrat bilan qarashni o'rgatishlari yaxshi samara beradi. Biz SHarq xalqlarining milliy-etnik an'anasi hisoblangan qariyalarga hurmatning tarbiyaviy kuchini yana bir e'tirof etmoqchimiz, xolos. Bu an'analarning tarbiyaviy kuchi shundaki, ular yoshlarni keksalarning ko'p yillik mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida to'plagan tajriba va donoligini hurmatlashga o'rgatadi. O'zbek oilalarida yoshlar akalari, opalari, ota-onalari, umuman kattalarni chuqur hurmat qilish ruhida tarbiyalanadi.

Kattalar oldida sukut saqlash, tartibli, intizomli bo'lish, kattalar topshirig'ini so'zsiz bajarish, o'zidan kattalarni to'rga o'tkazish, yoshi ulug'lar oldidan salomlashib o'tish,

kattalardan oldin taomga qo'l uzatmaslik, so'zni qunt bilan tinglash, o'rnidan turib qarshi olish, kuzatish, suhbatni bo'lmaslik, qo'lga suv quyish, kattalar kavushini o'nglab qo'yish kabi qoidalar, odatlar o'zbek xonadonida bolalikdan o'rgatib kelingan. Bular xalq hayotiga singib ketgan.

Qariyalarimizga hurmat-ehtirom SHarq oilalarida ham kuchli. Bu insonparvarlikning bir ko'rinishidir. Ma'lumki, bir-biriga madad berish, nochor odamlarga rahm-shafqat, saxovat ko'rsatish insoniy fazilat, vijdoniy burch sanaladi. Eng og'ir paytlarda xalqimiz borini bir-biri bilan baham ko'rib, saxovatlik va rahmdillik namunalarini ko'rsatgan, bemorlar holidan xabar olingan, ularga hech bo'lmaganda, ikki og'iz umidbaxsh so'z bilan dalda berish xayrli ish hisoblangan. Insonparvarlikning ana shunday ko'rinishlari avloddan-avlodga o'tib xalqning yaxshi udumi sifatida hamisha ardoqlanib kelinad.

Mehnat baxt keltiradi

Xalqimiz mehnatni bosh tarbiyachi deb ataydi. Sababi inson tarbiyasi asosan mehnatga bo'lgan munosabatlariga qarab belgilanishi bejiz emas. Mehnat hayot demakdir. Mehnat, baxt kalitidir. Mehnat tarbiyasi esa tarbiyaning mag'zini, mehnatkashlarning tarbiyaviy faoliyati mazmunini tashkil qiladi. Hamma xalqlarning eng ilg'or an'analari mehnat jarayonida paydo bo'ladi, takomillashadi. Xalq ommasi har doim eng ilg'or, yaxshi va ulug' narsalarning ijodkori hisoblangan. Xalq hayotini, yashash tarzini o'rganish uchun ham mehnat an'alarini bilish lozim.

Mehnat an'alarining tarbiyaviy ahamiyati ulkanligini unutmaslik kerak. CHunki mehnatga munosabatni qaror toptirish yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi. Mehnat an'alarining tayanchi sifatida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim rol o'ynaydi. CHunki mehnat an'analari zahirida shaxsning axloqiy sifatleri — mehnatsevarlik, erga va tabiatga muhabbat, suvni isrof qilmaslik, saxiylik, har bir so'mning qadriga etish, qahramonlik, mehnat baxt keltirishini anglash kabilar qaror topadi.

Bolalarning mehnatga muhabbat qo'yib o'sishida Oiladagi ijtimoiy muhit juda, katta rol o'ynaydi. Bunda ota-onalar, barcha oila a'zolarining xizmati byoqiyosdir. SHaxsning axloqiy shakllanishi, mehnatsevarlik, ilmga intilish, o'z xalqining an'alarini hurmat qilish, o'z Vataniga sodiqlik, jasurlik, sadoqat, uni dushmanlardan himoya qila olishlik kabi tarbiya ko'rinishlari bilan kamol topadi.

O'zbek oilalarida bolalarning mehnatga mehr qo'yishida qadimdan kattalar namuna ko'rsatib kelganlar. Odatda qizlar uy xo'jaligida onaga yordam berishgan, ovqat tayyorlashgan,

ukalariga qaragan, uyni sarishta qilishib, tikish-bichishni o'rganishgan. O'g'il bolalar esa ekin ekish, uni parvarishlash, yig'ish, yanchish, hayvonlarni boqish kabi yumushlarni bajarishgan. Oila a'zolari etishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ishda, ayniqsa, paxta, poliz ekinlari, uzum va mevali daraxt hosilini yig'ib-terib olishda katta-yu kichik barobar ishtirok etishgan.

Xalq pedagogikasida tarbiyalashning turli-tumai yo'l va usullari, vositalari, manbalari mavjud. Bunday yo'l va usullar rang-barang bo'lib, u faqat tarbiyachining qarashlariga bog'liq bo'lmasdan, balki bolalarning o'ziga xos xususiyatlariga ham asoslangandir. Bu yo'l va usullar xalq ijodi manbalarida o'z ifodasini topgan. Bunday ijodiy manbalardan biri xalq ertaklaridir. Masalan, bir ertakda ota bolasini mehnat qilishga oltin va'da qilib qiziqtiradi, o'zining shaxsiy namunasi bilan hunarning foydali, afzalliklarini hikoya qilish orqali hayotga tayyorlaydi, tarbiyalaydi.

Namuna sifatida quyidagi ertaklarni tahlil qilaylik. Bir kambag'al o'limi oldidan o'zining uch o'g'lini chaqirib, uzum ishkomlaridan birining tagiga oltin ko'mganligini, lekin hozir aynan qaysisining tagiga ko'mganligini eslay olmasligini aytibdi. Agar bolalari oltinlarni topib olishsa, boyib ketishlarini uqtiribdi va olamdan o'tibdi. Aka-ukalar ota o'limidan keyin oltin topish ilinjida zudlik bilan bir necha kun davomida bog'ni bir boshdan chopa boshlashibdi. Ular qancha chuqur kavlashmasin, oltinni topisha olmabdi. YAxshi chopilgan er va uzumzor kelgusi yili juda katta hosil beribdi. Hosilni vaqtida terib, sotgan aka-ukalar tezda boyib ketishibdi. SHunda ular, ota uzumzorlarga oltin ko'mmaganlikni, shu hiylasi bilan boqqa yaxshi qarash, parvarishlash lozimligini, halol mehnat qilishlari kerakligini aytganini fahmlab olishibdi.

Boshqa bir ertakda o'jar, injiq bolani tarbiyalash masalasi olg'a surilgan. Kunlardan birida ota-yosh o'g'li bilan daladan qaytayotganda, yo'lda yotgan taqani ko'rib qolishadi va ota o'g'liga:

—Taqani ol! — deydi:

—Nimaga olaman? Bu menga kerak emas, singan taqa-ky?— deb javob beradi o'g'il.

Ota hech nima demasdan, taqani olib, yo'lida davom etadi. Ular shaharga kirib kelishadi. Ota taqani temirchilarga sotadi va puliga holva sotib oladi. O'g'liga e'tibor bermagan holda, holvani eb, uyi tomon jo'naydi. O'g'il ham holvani egisi, totib ko'rgisi keladi. Buni otasi payqab turgani uchun qo'lidagi holvaning bir donasini atay erga tashlab yuboradi. O'g'il darrov engashib holvani olib, og'ziga soladi. Bir ozdan keyin ota yana bitta holvani erga tashlaydi.

SHunday qilib, ular manzilga etib kelgunicha o'n martacha holva «tushib» ketadi va har safar bolasi uni terib, og'ziga soladi. Nihoyat ota to'xtab, qolgan holvani o'g'liga berar ekan, dedi:

—Ko'rdingmi, bir marta erga egilib, taqani olishga bo'yning yor bermadi, dangasalik

qilding, taqaning puliga kelgan holvani erdan olish uchun esa o'n martalab erga egilding. Endi quloq sol, agar sen oson ishni og'ir deb o'ylasang, undan ham qiyinroq ishlarga duch kelasan, agar oz bilan qanoat qilishni o'rganmasang, ko'pni hech qachon qo'lga kirita olmaysan.

Xalqning donoligi shundaki, u bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga ola bilgan va oilaviy tarbiyani xalq faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda olib, borgan. Yana bir jihatga e'tiborni qaratmoqchimiz. SHarq xalqlari ishyoqmas, bekorchilarni hamisha qoralab kelgan. Shuning uchun ham oilada ishsiz yurishdan uyalish hissini tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan. «Bekor turguncha, bekor ishla», «Ishlagan— tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Ishlagan xor bo'lmas», «Yalqovlikning oxiri xo'rlik», «Bekordan xudo bezor» kabi maqollarda xalqning mehnatsevarlik ruhi aks etib, maqsadsiz hayot kechirish qoralangan.

4-mavzu: XALQ PEDAGOGIKASIDA YOSHLARNI TARBIYALASHNING METOD, USUL VA VOSITALARI

1) Tarbiya metodlari

O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mavjud ekanligi ko'rinadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo'llaniladigan: tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish (o'rganish, mashq qildirish), iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, olqish (oq yo'l tilash), taqiq qilish, ta'na (gina, o'pka) qilish, mashara - mazax qilish, majbur qilish, tanbeh berish, koyish, qarg'ash, qo'rqitish, uzr so'rash, ont - qasam ichirish, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash metodlari bo'lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan: o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va maqtash, alqash, mukofotlash, qoralash - qarg'ish, jismoniy jazo berish kabi metodlardan foydalanilgani ko'zga tashlanadi.

Ugit va nasihat xalq og'zaki ijodida bolalarda inooniy-fazilatlarni tarbiyalab etishtirishda eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Avvalo kishilarni kishi tomonidan "qadrlanishi, kishilik burchini anglash, halol va rostgo'y bo'lish, yaxshilik haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan pand-nasihat shaklida tinglovchiga (II shaxs) nisbatan maslahat, nasihat, istak va buyruq shaklida ishlatiladi.

Masalan:

Qoramug'ning donasi bo'lguncha,

Bug'doyning somoni bo'l!

Joy berganga joy ber,

Jon berganga — jon.

Emonning yaxshisi bo'lguncha,

YAxshining yomoni bo'l!

Qadrlasang qadring oshar,

Qadrsizdan hamma qochar.

YOmon bilan yo'ldosh bo'lma,

Nodon bilan sirdosh bo'lma!

Sen o'zingni maqtama,

Seni birovlar maqtasin.

Birovga o'lim tilaguncha

Uzingga umr tila!

kabi maqollar tinglovchilarga nisbatan o'git-nasihat shaklida aytilgandir.

Bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng harakterli shakllardan biri, xalq donishmandlarining axloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so'zlari - maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammo sifatida ishlatilishidir. YA'ni axloq va odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy haqiqat ekanligini ma'lum ertak mazmuni orqali ochib berilishidir.

Masalan, «Har kim etsa — o'ziga» ertagida bir kambag'al bo'zchi kampir bo'lib, u har doim «Har kim etsa — o'ziga» deb yurar ekan. Undan qo'shnilar bezor bo'ladi va podshoga arz qilishadi. Podshoh zaharlangan osh edirib o'ldirishni maslahat beradi. Kampirning qo'shnilar bir laganda zaharlangan osh olib chiqishadi. Kampir oshni tokchaga olib qo'yadi-da, ishini davom ettira beradi.

"Podshohning ikki o'g'li bo'lib, shu kampirga yaqin joyda yashaydigan domladan ta'lim olishar ekan. Ular har kuni o'qishdan keyin kampirnikiga kirib uning bo'z to'qishini tomosha qilishar ekanlar. Ular bugun ham kampirnikiga kirishadi, suv so'rab ichisha-di. Ularning tokchadagi oshga ko'zi tushadi va qattiq turib oshni so'rab olib eyishadi. Podshohning bolalari til tortmay o'lib qolibdi. Podshoh kampirning «Har kim etsa — o'ziga» naqlining ma'nisiga tushunibdi. Biroq kampirga yomonlik qilgani uchun ikki bolasidan ajralibdi. Kampirning qo'shnilariga jazo beribdi, lekin foyda bermabdi. Donolarning: «YOqma pisharsan, qazima tusharsan» deganlarining ma'nisi ham shunda ekan».

Ana shunday voqeani «Uch og'iz o'git» ertagida ham ko'ramiz. «...Bir odamning Takash degan o'g'li bor ekan. U odam o'g'lini cho'pon qilib, cho'llarda mol boqishga qo'ygan ekan... Kunlardan bir kuni Takashning oldiga bir chol kelibdi-da, yigitga: «Agar sen qo'ylaringni menga bersang, men senga uch og'iz o'git aytaman» - debdi. Yigit ko'nibdi. SHunda chol quyidagi uch og'iz o'gitni:

— Azondagi oshni tashlab ketma;

— Tuz ichgan erga yomonlik qilma;

CHap qo'ling urishsa, o'ng qo'ling aralashsin,— deb aytibdi.,

Yigitni otasi uydan haydab yuboribdi. U borib podshohning xizmatiga kiribdi. Podshohning kichik xotini yigitni yo'ldan urish uchun ko'p urinibdi. Lekin yigit «Tuz ichgan erga yomonlik qilma» o'gitiga qattih amal qilibdi. Alamzoda bo'lgan podshohning xotini yigitni podshoga yomonlabdi. Podsho uni o'ldirmoqchi bo'lib, keng maydonga katta qozon qurdiribdi, suv qaynattirib shu suvga tashlatib o'ldiradigan bo'пти. Xiz-matchilarga erta ertalab kim birinchi bo'lib maydonga kelsa shuni qozonga tashlashni buyuribdi. Yigitni yoniga chaqirib ertasi erta bilan o'sha erdan egarloq turgan otni olib kelishini buyuradi.

Ertalab yigit maydonga jo'naydi. Podshoning xotini bu ishlardan xabardor ekan, u ham o'limi oldi-da bo'lsa ham yigitni yana bir ko'rish maqsadida uning izidan maydonga jo'naydi. Yo'lda bir kampir yigitni nonushta qilib ketishga qistaydi. Yigit oldin rad qiladi. So'ng «Ertalabki oshni tashlab ketma» degan o'git esiga tushib ovqatlanishga o'tiradi. SHu zamon podshoning xotini ilgarilab maydonga etib boradi. Xizmatchilar uni tutib qozonga tashlashadi... Podsho yigitga katta in'om beradi. U uyga qaytadi. Qarasa, xotinining oldida bir yosh yigit yotgan emish. U xanjarini olib har ikkalasini o'ldirmoqchi bo'ladi. SHunda «CHap qo'ling urishsa, o'ng qo'ling aralashsin» o'giti esiga tushib, ularni uyg'otadi, qarasa, xotini yonidagi o'z o'g'li bo'lib, u etti yil davomida katta bo'lib o'sib qolgan ekan.

«Nurali boyvachcha» ertagida ham yuqoridagi ertakning mazmuni boshqacha shaklda beriladi.

SHu bilan birga xalq donishmandlari tomonidan yaratilgan maqol shaklidagi o'git-nasihatlariga amal qilmaydigan qaysar, o'jar kishilarni xalq tajribalarini tan olishga, unga amal qilishga da'vat etadigan hamda shu orqali yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan ertaklar ham ko'plab uchraydi.

Jumladan «Zolim podshoh» ertagida: «Qari bilganin pari bilmas», «Eshonim deb eshagimdan ayrildim» ertagida: «Er-xotin qo'sh ho'kiz»; «Maslahatli ish bitar, bemaslahat ish boshga etar» kabi maqollar o'git-nasihat yo'sinida uqtiriladi.

Demak, xalq og'zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash haqidagi o'git-nasihatlarini maqollar orqali uqtirilishi bilan birga ayrim ertaklarda axloq va odob yuzasidan aytilgan maqollarning mazmunini obrazli bayon qilib berilishi orqali ham o'sha maqollarni naqadar hayotiy haqiqat ekanligi uqtiriladi. SHuningdek, maqollarning g'oyalari xalq donishmandlarining uzoq tarixiy davrlar davomida to'plangan va takror-takror sinovdan o'tgan turmush-tajribalari sifatida vujudga kelgan, yaratilganligi ilgari suriladi. SHu orqali yoshlarni ijobiy xatti-harakatlarga ega bo'lgan obrazlardan namuna olishga, unga erishishga targ'ib qilinadi.

Ko'pchilik ertak va dostonlarda ota-ona va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar shakli ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Masalan, «Ro'zivoy bilan Munavvar chehra» zrtagida og'ir ahvolda qolgan Ro'zivoy tirikchilik yo'lini axtarib safarga jo'namoqchi bo'ladi. Onasini zo'rg'a ko'ndiradi. Ona bolasiga ijozat bera turib: «Xo'p, bolam, aqlu-xushing joyida bo'lsin, borgan eringda beadabchilik qilma, katta-kichikni farqiga borsang obro' topasan», deb nasihat qilady.

«Qorasoch pari» ertagida Nodir juda yosh chog'ida otadan etim qoladi. Uning onasi — doya kampir — aqlli xotin. U Nodirni safarga jo'natish oldidan:

«...Nodirni bag'riga bosib:

— Mening uch nasihatimni qulog'ingdan chiqarma, birinchi — birovga xiyonat qilma, ikkinchi — birovning dilini og'ritma, uchinchi — qaysi shaharga borsang, eng avval o'sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish qil!» deb nasihat qiladi va bola umrining oxirigacha ona nasihatiga amal qiladi. Murod-maqсадiga etadi.

Insoniylikni tarbiyalashning o'git-nasihat shakli ertaklardagi kabi dostonlarda ham ko'plab uchraydi.

Masalan, «Erali va Sherali» dostonida Erali bilan Sheralining domlasi shogirdlarini o'z oldidan kuzatar ekan, quyidagicha nasihat qilib qoladi:

Senda ko'pdir, o'g'lim, aqlu-farosat,
Oxir sendir taxtu viloyat.
Aqling rosa, duo qilar jamoat,
Men sening qurboning bo'lay, Erali

Yaxshilikdan ajratmagin dilingni,
Ham yaxshilik ustun qilar qo'lingni,
Miskinlarga sarf ayla, ber pulingni
Men sening qurboning bo'lay Ernazar.

Kuch-quvvating g'oyiblardan tilagin,
G'ariblarning manglayini silagin
Sen ulardan oltin — duo tilagin,
Duo oltin bo'lar, bilgin, Erali.
Mulla Haydar, berdi shu nasihatdi,
Sen ham bo'lding mening bir farzandim.
Qulog'ingda tursin shu nasihatim,
Ming yashagin, aslo o'lma, Erali.

Demak, insoniylikni tarbiyalashda o'git-nasihat metodlari xalq ijodining deyarli hamma janrida turlicha shaklda va eng ko'p qo'llaniladigan metoddir.

Hozir ham bu metod ota-ona, tarbiyachi va umuman kattalar tomonidan turli shaklda keng ishlatiladi.

b) Namuna ko'rsatish

Insoniy fazilatlarni tarbiyalashda namuna ko'rsatish metodi ustida rap yuritilar ekan, avvalo shuni aytib o'tish kerakki, insoniylik mavzusida aytilgan ertak va dostonlarning o'zi katta tarbiya vositasi, metodi sifatida xizmat qiladi. Biroq rap axloqiy tarbiya yuzasidan namuna ko'rsatish ustida borar ekan, biz bevosita asarda tasvir etilgan voqeaga bog'liq holda bolalarga axloqiy namuna ko'rsatish yo'li bilan tarbiyalab etishtirish borasidagi masalalarni yoritishni nazarda tutamiz.

O'zbek xalq ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo'llaniladigan namuna ko'rsatish metodi juda ko'p shakllarda uchraydi. Ertak va dostonlarda uchraydigan namuna ko'rsatish metodining harakterli tomoni — uning asosan "ikki yo'nalishda ko'zga tashlanishidir. Bir tomondan, ijobiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning xatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomondan salbiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojo'ya xatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga, yaramas urinishlardan qochishga targ'ib qilinadi.

Masalan, «Erali va SHerali» dostonida, aka-ukaning domlasi-ustoz bolalarga odob va axloq haqida juda ko'p pand-nasihatlar aytadi. SHu o'git-nasihatlardan xulosa chiqarib, Erali ukasiga: — «Aqli rasolarning gapini ko'rdingmi?» deb, o'shanday donolardan ibrat olish kerakligini aytadi.

«Orzigul» dostonida Suvonxon otasi Sultonxonning o'zi ustida parvona bo'lishining qadriga etmaydi. Arzimagan rap bilan otasiga nisbatan ginaxonlik qilib yuradi. Otasi esa bundan ranjiydi. SHu orada Suvonxon farzand ko'radi. U bolasini juda sevadi. U:

«Farzand qanday yaxshi! YUrakning moyidan, kishining mehri joyidan bo'lur. Ko'rar ko'zimni yig'latma,—deb, Orzigul bilan o'g'lining qoshiga kelib: «Kishi farzand ko'rmaguncha ota-onaning qadrini bilmas ekan. Buning yig'lagani uchun yuragimga olov tushdi. Otam menga ham shunday kuygandir» deb o'g'lini qo'liga olib, bir so'z dedi:

Otam qadrin endi men ham bilaman,
Bosgan izin men ziyorat qilaman.
Bola bo'lar jondan aziz kishiga,
Yig'lama, Dilmurod, darrov kelaman.

Suvonxon o'z vaqtida otasining qadriga etmadi. Otasi Suvonxonga nisbatan juda ko'p tarbiyaviy ta'sir qiluvchi namunalar ko'rsatishga urindi. Biroq, Suvonxon parvo qilmadi. Uzi farzandli bo'lishi bilan ota-onaning bolaga mehribonligi va muhabbatini anglay boshladi. Endi u otasidan ibrat olishga, uni qadrlashga ahd qildi.

«Men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga» ertagida yuqoridagi ertak mazmuni yanada rivojlantiriladi. Odil yosh dehqon, u endigina bir farzand ko'rgan. Uning ikki yoshga kirgan o'g'li bo'ladi. Odilning onasi har kuni kosachada o'g'liga ovqat qilib olib kelardi. U kelishida har gal nabirasini ergashtirib kelardi. Bugun kelib qarasa, o'g'li ochiq maydonda, jazirama oftobda ketmon chopayotir. Kampir tol salqiniga kelib to'xtab, o'g'lini ovqatlanishga chaqirdi. O'g'li ana-mana deb tezda kelavermaydi. SHunda kampir nabirasini jazirama oftobning tig'iga obchiqib o'tqazib qo'yadi. Buni ko'rgan Odil onasidan xafa bo'lib:

«Ho ona, bolani oftobdan oling» deb qichqirib kela beradi. SHu bahona bilan ishdan chiqib ovqatlanishga o'tiradi. SHunda kampir: «Bolam, men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga» deb shunga aytganlar» deb ta'na qiladi.

Bunda ham ona o'z o'g'liga ota-onani qadrlash yuzasidan o'rinli namuna ko'rsatadi. Kampir bu yoshdagi o'g'liga o'zining ichki tuyg'ularini, unga achinish, ayashi va mehru shafqatini jonli so'z orqali izhor qila olmas edi, albatta. Nabirasini oz fursat quyosh tig'ida qoldirishi va yosh otaning o'z farzandini oftobda qolishiga toqat qila olmay maydondan yugurib chiqishi, onaning ham bola uchun shunchalik g'amxo'r ekanligini, amalda namuna qilib ko'rsatish edi.

Ba'zi ota-onalarning oiladagi bolalar oldida mas'uliyatsizlik bilan muomalada bo'lishlari, nojo'ya xatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, «Sen ham bo'lursan mendek» ertagini ko'raylik. «Rasul ota to'qson yoshdan oshib, asablari bo'shashib, kuch-quvvatdan qolgan kezlari. Unga qanday chinni idishda ovqat bersalar ham qo'llari bilan tuta olmay tushirib sindira beradi. Kelin o'ta xasislik bilan cholni ranjitadi, o'g'liga shikoyat qiladi. Nihoyat o'g'il yog'ochdan yo'nib otasi uchun maxsus yog'och kosa (to's-tog'on) qilib beradi. CHol faqat shu kosadagina ovqatlanadigan bo'lib qoladi. Bu ahvol oiladagi to'rt yashar nabirasiga qattiq ta'sir qiladi. Bir kuni ertalab otasi ishga ketayotsa bola qo'lga pichoq olib, ha deb bir yog'ochni yo'nayotgan emish. SHunda otasi:

— Nima qilayotirsan, o'g'lim? — deb so'paca, bolasi:

— Siz qariganingizda buvamga o'xshab ovqat eydigan yog'och kosa qilayotirman,— deb javob beribdi.

Bolaning javobi otaga qattiq ta'sir qilibdi. qilmishidan pushaymon bo'pti. YOg'och kosani chinni idishlar bilan almashtiribdi».

Demak, ota-ona va oiladagi kattalarning ijobiy fe'l-atvor va xatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobiy ta'sir qilgani kabi oiladagi kattalarning nojo'ya xatti-harakatlari bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi yosh bolalar, o'z tabiatlariga ko'ra, ko'pincha kattalarga ko'r-ko'rona taqlid qiladilar. SHuning uchun ham ular o'z oilalaridagi kattalar misolida ijobiy yoki salbiy fe'l-atvorga zga bo'lishlari mumkin.

v) Rag'batlantirish va qoralash metodi

O'zbek xalq og'zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo'llaniladigan rag'batlantirish va qoralash bir necha shaklda ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik ertak va dostonlarda rag'batlantirish metodi: 1) ma'qullash va maqtash, 2) alqash, 3) mukofotlash shakllarida; qoralash metodi esa: 1) qarg'ash, 2) jismoniy jazo berish shakllarida uchraydi.

Rag'batlantirish

Rag'batlantirish metodi axloqiy tarbiya yuzasidan eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, xalq og'zaki ijodida u turli shaklda ishlatiladi. Ularni shartli ravishda quyidagi uch guruhga ajratgan holda talqin qilish mumkin:

1) Ma'qullash va maqtash

Xalq og'zaki ijodiyoti asarlarida bolalarni insoniylik yuzasidan amalga oshirgan ibratli ishlarini kattalar tomonidan ma'qullash, taqdirlash, rahmat aytish va maqtov bilan bir o'rinda tasvirlanadi.

Masalan: «Erali va SHerali» dostonida, Erali bilan SHeralining insoniylik yuzasidan el-yurt, oshna-og'ayni o'rtasidagi munosabatlari usta Odilni juda quvontiradi, ularning fe'l-atvoriga qoyil bo'ladi.

«Usta Odil ikkalasining yuziga qarab:— Barakalla, aka-ukalikda o'zgalar sizlardan ta'lim olishlari kerak. Ta'lim bergan ustozingga ming rahmat, ustoddan ibrat olgan aqllaringga rahmat, ikkinchi padaringga rahmat!—deb ikki kalima so'z deb turibdi:

Bir-biringga ma'qul bildim so'zingni,
Ziyorat aylasam bosgan izingni,
Botir bo'nglar, sarg'aytmanglar yuzingni,
Dushmanga oldirma elu-tuzingni...
Odil deydi, men sizlardan parvona,
Xush qilig'ing qildi meni devona,
Ikkoving shamdirsan, men bir parvona,
CHiqarib berayin, o'g'lim sozingni».

«Quyosh erining pahlavoni» ertagida, Rustam hali yosh yigit, u podshohlikka qarshi

kurashadi. Asir qilingan xalq va qafasda saqlanayotgan yosh go'daklarni ozod qiladi. SHunda har kim o'z farzandini o'zi olib (temir qafasdan) Rustamga ofarin aytib, archazor tomon ketadilar».

«Suxrob bilan Mirzob» ertagida tasvirlanishicha, Suxrob bilan Mirzob ikkisi katta bir mamlakat xalqiga tahlika solib turgan devlarni o'ldiradi. SHunda «Saroyga yig'ilgan kishilar Suxrob bilan Mirzobning bahodirlarcha qilgan xizmatlariga ofarinlar aytib, qoyil qolishibdi, shuningdek Qo'zixon bekaning ham aqlu-hushi, idrokiga tahsin, ofarinlar aytib podshoning bu haqda chiqargan farmoniga xursand bo'lib tar-qalishibdi».

YUqorida keltirilgan asarlarda bolalar o'zlarining odobi, insonparvarliklari bilan ota-ona, ustoz ham xalq ommasining olqishlariga sazovor bo'ladilar. Ba'zan ertak va dostonlarda bolalarning taqdirlanish sabablari ko'rsatiladi, ularning kelajakda ham shunday bo'lishiga da'vat etiladi. Masalan: «CHambil mudofaasi» dostonida shunday voqeani ko'ramiz: Go'ro'g'libekning o'g'li Avaz Xoldorxonnikiga to'yga boradi. To'y davomida Xoldorxonning dushmanligini sezib ke-ladi va bo'lgan voqeani otasiga aytib beradi. SHunda Go'ro'g'libek: «Avazning bu so'zlarini eshitib, sherday hayqirib, yo'lbarsday cherpini, qoplonday chopinib, ko'zlari o'tday yonib:

«Barakalla, o'g'lim, yaxshi ish qilib kelibsani!... Indamay kela berganingda mening o'g'lim bo'lmas eding, men sendan xush vaqt bo'lmas edim...

...O'g'lim barakalla! Har ish vaqti-soatida bo'la-di,— dedi».

Ko'rinib turibdiki, Go'ro'g'libek o'z farzandi Avazning faoliyatidan minnatdor bo'lib, uni rag'batlantiradi. Otaning nima sababli farzandidan minnatdor ekanligi ham o'quvchiga ma'lum. Bunday taqdirlash boshqa dostonlarda ham uchrab turadi.

2) Alqash

Alqash xalqimiz o'rtasida qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan rag'batlantirish shakllaridan biridir, alqash xalq og'zaki ijodida rag'batlantirishning boshqa shakllariga qaraganda ko'proq uchraydi.

Odatda alqash va qarg'ish ma'lum ijtimoiy guruh va alohida shaxslarning o'zaro munosabatlarida, bir-birlarining ijobiy yoki salbiy xatti-harakatlariga nisbatan minnatdorchilik yoki g'araz, noroziliklarini izhor qilishlarida qo'llangan.

Asosan, ota-ona, keksalar va umuman ayrim shaxslar o'zgalarning ijobiy xatti-harakatlariga minnatdorchilik izhor qilishga qodir bo'la olmasalar taqdirlash, mukofot, armug'on, in'om o'rnida o'zlarining chuqur ichki istak va armonlarini izhor qilganlar. Keyinchalik o'zgalar uchun bag'ishlanadigan istak va orzular o'ziga nisbatan qudratli va qodir bo'lgan — tashqi kuch — Ollohdan so'raydigan bo'lganlar. SHu munosabat bilan ko'pincha

alqash duo tariqasida qo'llaniladigan bo'lgan.

O'z navbatida alqash — duo ham bir necha yo'nalishda ko'rinadi.

Birinchidan — o'z fe'li-atvori va xatti-harakati bilan kattalarni manzur qilgan bolalarning sog'-salomat bo'lishlariga nisbatan ishlatiladigan alqash: umringdan baraka top (ilohim — xudoyo-xudovando umringdan barakat top), dard ko'rma, tani-joninig sog' bo'lsin (ilohim...) va hokazo.

Ikkinchidan — bolalarning kelajagi haqida: baxtiyor bo'l, niyatingga et, tuproq olsang oltin bo'lsin, ulug' martabalar nasib qilsin (ilohim baxtiyor bo'l...).

Uchinchidan — tashqi ta'sirga nisbatan: do'stga zor, dushmanga xor bo'lma, qast qilganlar past bo'lsin (ilohim...) va hokazo.

Masalan, «Usta Nishon» ertagida: «Oq buloq» qishlog'ida yashovchi xalq «Oq buloq» ko'li atrofida yashasa ham suvdan bahramand bo'la olmas ekanlar. Qo'shni qishloqlik usta Yo'ldoshning o'g'li usta Nishon Oqbuloq qishlog'ig'a keladi va xalq kuchi bilan katta charxnov (charxpalak) quradi. Qishloqda yana suvga ma'murchilik boshlanadi. Usta Nishon ham shu qishloqda yashab qoladi. Xalq uni juda sevib hurmat qiladi. O'z farzandlaridek g'amxo'rlik qilishadi.

Biroq ko'p o'tmay otasi chaqirtiradi. U ketish uchun xalqdan ijozat so'raydi. Qishloqning katta-kichik hamma odamlari yig'ilib keladi. SHunda usta Nishon xalqqa qarab:

«Otalar, akalar, ukalar, men arzimagan sabab bilan sizning qishlog'ingizga keldim. Tuzlaringizni ichdim, izzat-hurmatlaringizni ko'rdim. Meni dehqonchilik qilishga, bog' tutishga o'rgatdilaringiz. Sizlardan men juda xursandman. Endi menga ijozat bersalaringiz o'z qishlog'imga, ota-onam oldiga ketsam. Sizlardan oq fotiha so'rayman» debdi. SHunda qishloq keksalari: «O'g'lim, biz sizdan juda xursandmiz, bizning mushkulimizni oson qildingiz, suvga serob qildingiz, bog'-rog'larimiz qayta ko'kardi, sizdan hech yomonlik ko'rmadik. Otangiz chaqirtirgan ekan ilojimiz qancha. Ota-onangizning oldiga boring, umringizdan baraka toping, badavlat bo'ling, yaxshi qalliq uchrasin, bola-chaqali bo'ling. Otangizga, volidangizga bizdan duo deng» - deb javob beradilar.

SHuningdek «Ernazar bilan Kishonazar» ertagida akalarining tazyiqi natijasida o'z shahridan chiqib ketgan Ernazar, bir shaharga borib kabobpazga shogird tushadi. «SHu bozorga bir chol har kuni qatiq olib ke-lib, sotib ketar edi. Ernazar cholni chaqirib, oldiga non, ikki-uch six kabobni qo'yib: «Ota charchab kelgansiz. Bularni eb, meni duo qiling!» der ekan. CHol ham nonu, kabobni eb: «Iloho! Tuproq olsang oltin bo'lsin deb duo qilar ekan».

Bugina emas, alqash bola tarbiyasi yuzasidan oilada ota-ona, tarbiyachi, ustoz va umuman kattalar tomonidan keng qo'llaniladi.

3) mukofot

Xalq ijodida rag'batlantirishning mukofot shakli ham uchraydi. Lekin, xalq og'zaki adabiyoti namunalarida ba'zi obrazlar — xalq orzu qilgan — adolatli va xalqsevar podsholar, qurbi etgan keksalar, o'z fe'li-atvori va xatti-harakati, donishmandligi bilan ko'pchilikka manzur bo'lgan, keksalarni shuningdek, el-yurt va hukmdorlarni ma'lum bir topshiriq va niyatlarini mardlik va matonat bilan ado etgan yoshlarni mukofotlaganliklari, ularning mehnatini qadrlaganliklari ifodalanadi.

Masalan: «Quyosh erining pahlavoni» ertagida Rustam ajoyib qahramonliklar ko'rsatadi, azob-uqubatda yotgan xalqni dahshatlardan xalos qiladi. SHunda: «SHahar oqsoqoli Rustamning peshonasidan o'pib:

«Esdalik va yo'lingda hamrohing bo'lsin, deb bobosidan qolgan kamon bilan besh gaz uzunlikdagi o'q-yoyni beribdi. Rustam shahar xalqi bilan xayrlashib, tog' tomon yo'l olibdi».

«G'ulombachcha» ertagida... Podshoga ajdahoning o'lgani rostligini xabar berishibdi. Podsho G'ulombachchadan xursand bo'lib quchoqlabdi «barakalla, seni o'stirgan ota-onangga rahmat» debdi... ustidan tilla, javohirlar sohibdi, shundan keyin har bir shahar podsholari kelib, u podshoning ajdaho kulfatidan qutilganini muborakbodlabdilar».

Qoralash (jazolash) metodi

Xalqimiz o'rtasida bolalarning axloqiy tarbiyasi yuzasidan qo'llaniladigan qoralash metodi turli shaklda — uyaltirish, koyish, urishish, so'kish, (haqorat), qarg'ish, och qoldirish, uydan haydab chiqarish, oq qilish va jismoniy jazo berish shakllarida qo'llanilgani ma'lum. Biroq xalq og'zaki ijodida asosan qoralash metodining qarg'ish va jismoniy jazo berish kabi ayrim shakllarigina uchraydi.

1) Qarg'ish

Qarg'ish ham alqash kabi ma'lum ijtimoiy guruh yoki ayrim kishilar o'zaro shaxsiy adovatda bo'lganlarida, raqibi qarshisida o'zi kuchsiz ekanligini anglab, o'ziga nisbatan qudratli bo'lgan ikkinchi bir kuchning ko'magidan madad tilab murojaat qilish, ya'ni o'sha kuch orqali o'z raqibiga ko'ngilsizlik, baxtsizlik, qayg'uli hollar, hatto o'lim tilaganlar.

Qarg'ishda uchraydigan ayrim iboralar xalqlar o'rtasida qarg'ishning qadimdan davom etib kelayotganligidan dalolat bersa ham, din, shu jumladan islom dini paydo bo'lgach, qarg'ish ham ilohiy kuchning madadiga singgan holda ishlatiladigan bo'ldi.

Qarg'ish ota-ona va umuman kattalarning o'z bolalari yoki begona bolalarga nisbatan

qo'llanilib, u ham o'z navbatida bola shaxsi — jismoniy va fe'l-atvoridagi xususiyatlarga ko'ra turlicha ishlatiladi.

Odatda qarg'ish bola tarbiyasida eng ko'p qo'llaniladigan, shu bilan bir vaqtda eng zararli jazo shakllaridandir. Bunday jazo orqali bolalarda ruhiy azob, tushkunlik va alam ortadi. Ota-ona va kattalarning tarbiyachi sifatidagi ta'siri yo'qoladi, kattalar bilan bolalar o'rtasidagi mehribonlikka putur etadi, ahillik va obro' yo'qoladi. SHuning uchun ham xalqimiz:

Ura bersang, eti qotar,
Qarg'ay bersang, beti qotar

deydi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarining ko'pchiligida asosan xotin-qizlar tomonidan ishlatiladigan jazo shakllaridan biri qarg'ish ekanligini ko'ramiz.

«Bektemir» ertagida Bektemir qirqquloqlik oltin soqqani osmonga otib mashq qilayotganda, soqqa bir kampirning uyiga borib tushadi. SHunda kampir:

«Juvon o'lgur etimcha,
CHarximni qilding parcha!
CHarxim sinsa go'rga-ya,
Bir labimdan ayrildim,
Oqbilakka etmasdan
Sen ham bo'lgin mendaycha!»

deb qarg'aydi.

SHunga o'xshash qarg'ishlar dostonlarda ham uchraydi.

Masalan: «Nurali» dostonida, Jahongirni Boymat farzand qilib oladi. U ko'chada o'ynab yurib bir echkiboqar bola bilan urishadi. SHunda echkiboqar bolaning onasi Jahongirni bunday deb qarg'aydi:

Sen, juvonmarg, eshit mening tilimni,
Nega sen yig'latning mening ulimni?
Nega urding echkiboqar kalimni?
Sendek odam bilib yurgin yo'lingni!
Boymamat hurmati, siylab turayin,
Bundan bo'lay tekkin qani, ko'rayin,
E juvonmarg, bilganimday qilayin,
Qarab turib sen ham meni bilasan,
Echkiboqar kalga tegsang o'lasan.

Afsuski, qarg'ish bola tarbiyasida naqadar zararli metod bo'lishiga qaramay, bizning

zamonamizda ham ayrim oilalarda ota-onalar tomonidan qo'llanib kelinmoqda.

2) Jismoniy jazo

Xalq og'zaki ijodida tarbiya yuzasidan faqat shapaloq (tarsaki) urish shakligina uchraydi. SHunda ham uning yomon oqibatlari ochib tashlanadi.

Umuman xalq ijodida jismoniy jazo tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida aslo uchramaydi.

Masalan, «Sirli gilamcha» ertagida, mamlakat podshosi bir yigitga bir-biriga bog'liq bo'lgan besh shart qo'yib, shu shartlarni bajarishni buyuradi.

Ulardan biri - uzoq shaharlardan birida bir egarchi yashashi, har yili bittadan egar qilishi va egarga haridor kelishi bilan urib sindirishini; ikkinchidan, bir mamlakatdagi katta qabristonda uzoq yillardan beri bir mo'ysafidni yolg'iz va doimo yig'lab yashashligining sababini bilib kelishini shart qilib qo'yadi. Nihoyat, bola egarchini topib gaplashadi. U: «...Turmushimiz yaxshi o'tar, urush-janjalimiz yo'q, rohat va farog'atda yashar edik. O'g'limiz ikki yoshga to'lganda xotinim yana bir o'g'il tug'di. Katta o'g'lim to'rt yoshga, ikkinchisi ikki yoshga kirdi». SHu orada arzimagan narsa ustidan janjal chiqib, egarchi ularni uradi. Qechqurun hovliga kelsa hech kim yo'q emish. Qidirmagan joyi qolmaydi. Biroq ularni topa olmaydi. «SHundan buyon kunim o'tsin, shu bilan ovunay, ermak bo'lsin deb egar yasayman. Egarni sotib pulini olishim bilan, xotinim, o'g'illarim bilan kechirgan kunlarim ko'z oldimdan o'taboshlaydi, yaram yangi bo'ladi, yaramga tuz sepgandek bo'ladi-yu, rangim o'zgarib ketadi. Pulni egasiga qaytarib, egarni sindirib tashlagandan keyin hovurim bosilib, bir oz tinchlanaman», — deb egarchi o'z sarguzashtini tamom qilibdi. So'ng yigit qabristondagi cholning oldiga boradi. U: «Bir kun nomoz o'qiyotganimda nabiram kelib nomozimni buzdi. Bolam, sen bir oz tashqarida o'ynab yurgin, men nomozimni o'qib olay, keyin ikkalamiz bir joyga boramiz, deb aldab yubordim. O'zim nomozni o'qiy boshlagan edim, yana kelib nomozimni buzdi... yana buzdi.

Ming aqlli bo'lsa ham, bola bolaligiga boradi-da, bolaga qo'shilib o'zim ham bola bo'lib qolibman... bir shapaloq urdim.

...Mana shu go'rga ko'mganman. Endi pushaymon qilamanki, nima uchun men uni urdim, nomozimni yuz marta buzsa ham, ming marta buzsa ham mayli edi, men nima qildim,— deb yig'layman, foydasi yo'q», deb sirini aytib beribdi.

Ko'rinadiki, tarbiya nuqtai nazaridan qo'llangan jismoniy jazo yaxshi oqibatlarga olib kelmadi. Bolaga nisbatan qo'llangan jismoniy jazo tarbiyada hech qanday foyda keltirmasligi xalq og'zaki ijodi asarlarida ham o'zining badiiy ifodasini topgan. Bir tomondan, jazo jazolanayotgan bolaga g'oyat og'ir ruhiy va jismoniy azob bersa, jazolovchining ham ruhiy azob va vijdon qiynog'iga tushishiga sabab bo'ladi.

3) Tarbiya vositalari

Xalq ijodi materiallarida bolalarning odob va axloqiy tarbiyasi yuzasidan qo'llaniladigan metodlar bilan birga xilma-xil tarbiya vositalaridan ham foydalanilgani ko'rsatiladi.

Folklor materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalari juda ko'p tur va shakllarga ega bo'lsa ham, asosiy vosita sifatida:

1) Bolalar o'yinlari, 2) choyxo'rlik — choyxona gurungi, 3) bolalar gapi — rap eyish, 4) bolalarni kattalar bilan birlikda: a) to'y marosimlari — beshik to'y, sunnat to'y, nikoh to'y, hovli to'y; b) sayillar — dala sayli, gul barra (binafsha) sayli, qovun sayli; v) yig'in — tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz bazmi (majlisi), kelin salom — yuz ochish (ro'mol obqochish), uloq (ko'kbar) poyga, kurash, turli shakldagi yarashuvlar (musobaqalar); g) aza ma'rakasi; d) safarga chiqish, ovga borish; e) bizning zamonamizda yuqoridagilar bilan (ijobiylari bilan) birga kino, teatr, istirohat bog'i, ommaviy yig'in ham tomoshalarga borish hamda bayramlarni kutib olishda qatnashadilar.

SHubhasiz, bunday davra yoki yig'inlarning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan va hozir ham u juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Binobarin, bolalarning ijobiy yoki salbiy xatti-harakati ko'pchilikning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va shu ko'pchilik tomonidan baholanadi. Ko'pchilik ota-onalar ham o'z o'g'il-qizlarini ma'rakaga aralashganlaridan keyingina, ko'pchilik o'rtasida o'zlarini qanday tutishlariga oid odob va axloqiy qoidalarga amal qilishlarini davra yoki yig'indagilar tomonidan ijobiy yoki salbiy baholaganlaridan keyingina payqab oladilar.

Bu hol ota-onalarni ham o'z tarbiyaviy ishlaridan xulosalar chiqarishga olib keladi. Ko'pchilik tomonidan taqdirlangan bolalarning xatti-harakati ota-onalarni quvontirsa, ta'na va isnodga qolgan bolalarning ota-onasini afsuslantiradi, tashvishga soladi. CHunki bolalarning o'zlashtirish yoki odatlanishi kerak bo'lgan fe'l-atvor ham xatti-harakatlari ko'pchilik xalq o'rtasida qaror topgan umumiy odob va axloq normalari bo'lib, hammani unga amal qilishligi taqozo qilinadi.

SHuning uchun ham bolalarning oilaviy hayotdagi ijobiy yoki salbiy xatti-harakatlarini ko'pchilik oiladagi keksalar (ayniqsa ayollar) umum (ko'pchilik) nuqtai nazaridan baholab taqdirlaydilar yoki qoralaydilar. Keksalarning «Bolam, (o'g'lim, qizim) seni bu yurish-turishingni ko'rganlar, gap-so'zingni eshitganlar, xursand bo'ladi, «palonchining bolasi aqlli, odobli ekan» deb o'zingni maqtashadi, duo qilishadi», yoki «Bolam, (o'g'lim, qizim) seni bu yurish-turishingni ko'rganlar, gap-so'zingni eshitganlar nima deydi?! Mahalladagilardan uyat emasmi? Bizni uyatga qo'yding-ku (sharmanda qilding-ku)» degan jumalari ham ana shu

ko'pchilik nuqtai nazaridan baholanishlarining dalilidir.

Demak, ma'lum bir bolalar davrasi yoki yig'in (o'rtoqlar guruhi, mehmondorchilik, to'y-tomosha marosimlari va hokazo) va shu yig'inni kuzatuvchi kattalar yig'indagi har bir bolaning xatti-harakati yuzasidan ijobiy yoki salbiy fikr yuritish, xulosalar chiqarish-da asosiy faktor bo'lgani kabi, yana o'sha yig'in shu davradagi bolalarni tarbiyalab etishtirishdagi muhim omillardan biri bo'lib ham xizmat qiladi.

YUqorida ko'rib o'tganimiz kabi bolalar davrasi yoki yig'inning turi ko'pdir. SHu jumladan, bolalar o'yini ham juda ko'p shaklda ko'zga tashlanadi. Lekin bolalar o'yinining hammasida barcha o'yinlar uchun umumiy bo'lgan qoidalar birligiga amal qilinadi. SHu qoidalarga amal qiluvchi bolalar ayni paytda, intizomli, yaxshi o'yinchi bolalar hisoblanib, aksincha o'yinni buzuvchi, zo'ravonlik qiluvchi, o'yin jarayonida o'rtoqlarini haqorat qiluvchi, manmanlik yoki maqtanchoqlik qilib, o'yindagilarni ranjituvchilarni ko'pchilik o'yindan haydab chiqaradi. Uni «o'yin buzuvchi» deb atab, galdagi o'yinga aralashtirmaydilar.

SHunga o'xshash o'smir yoshdagi bolalarning choyxo'rlik — choyxona gurungining ham o'ziga yarasha qoidasi bor. YA'ni choyxonaga navbat bilan taklif qilish, choyxonadagi kattalardan yuqoriga o'tib ketmaslik, odamlarga teskari o'tirmaslik, o'rtoqlar o'rtasidagi hurmatli bolani to'rga o'tqazish, bir-biri bilan samimiy muomala, munosabatda bo'lish, so'zlovchining gapini bo'lmaslik, navbat bilan gapirish, navbat bilan choy quyish, choyni ma'lum me'yorda quyish va o'ng qo'l tarafdin muloyimlik va tabassum bilan uzatish, patnisdagi masalliqni teng baham ko'rish, bir-birini choy va masallig'lardan olib o'tirishga undash, o'rta tashlangan masalalar yuzasidan bir fikrga kelish va uni qo'llab-quvvatlashdagi hamkorlik va hokazo.

Davrada yangidan qo'shilgan bolaga o'rtoqlari tomonidan yuqoridagi qoidalar istisnosiz o'rgatiladi. Aksincha, ko'ra-bila turib qoidani buzuvchilar qattiq kulgi tanbehiga olinadi. Tanbehlar kor qilmasa, davrada qo'shmay qo'yadilar va hokazo.

O'smirlarni yuqoridagi kabi ma'lum bir davrada davomli qatnashuvlari «bolalar ulfati»ni tashkil qilardi. Binobarin, o'smirlarning eng yaxshi fazilatlar ham, yomon xatti-harakatlari ham ko'proq choyxona va boshqa yig'inlarda namoyon bo'lar, ma'qullanar va yoki qoralanar edi. Zamonasida choyxona gurungi yoki boshqa shakldagi ulfatchiliklarda qatnashgan o'smirlar xalq o'rtasidagi o'dob qoidalarini ham yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lardilar. SHuning uchun ham zamonasida, hatto hozirgi kunda ham, yoshlarning fe'l-atvoriga nisbatan baho berishda keksalarimiz tomonidan: «Ulfat ko'rgan yigit» iborasining ishlatilishini tez-tez uchratish mumkin.

Xuddi shu haqda xalq qo'shiqlarida bunday deyiladi:

Ot chopilsa kulo-tuzdan,
Naql so'z eshiting bizdan.
Axloqsiz bo'p o'sgan qizdan,
Majlisdagi qo'pol so'zdan,
Indamay ketgan yaxshiroq.

Do'mbiramning qopqog'i tutdan,
Men aytaman arzi-doddan,
Ustoz ko'rmagan shogirdang
Majlis ko'rmagan yigitdan,
Aqlli hayvon yaxshiroq.

Xalq og'zaki ijodi materiallarida eng ko'p uchraydigan va bola tarbiyasida muhim o'rin tutgan odob va axloqiy tarbiya vositalaridan biri mehmondorchilikdir.

Avvalo shuni aytish kerakki, mehmondorchilik va mehmondo'stlik xalqimiz tarixida uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan eng olijanob insoniy odatlardan biri bo'lib davom etib keladi va davom etib kelmoqda, bundan keyin ham shunday bo'lib davom etishligiga shubha yo'qdir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan marosim, yig'in, to'y-tomosha kabilarning hammasi turli shakldagi mehmondorchilik ko'rinishlarini o'z ichiga oladi.

Mehmondorchilik tor ma'nosiga ko'ra, alohida tayyorgarlik bilan, ma'lum bir guruh kishilar ishtirokida o'tkaziladigan ziyofatdir.

Shunday qilib, xalq pedagogikasi yoshlarni insoniy fazilatlar bilan tarbiyalab etishtirishda turli metod, usul va vositalardan foydalangan.

5-mavzu: XALQ PEDAGOGIKASIDA O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI

Xalqimiz o'z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros yaratgan. O'zbek folklorining barcha janrlari ya'ni miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, tarixiy qo'shiqlar, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, marosim folklori va bolalar folklorining barcha janrlari, xilma-xil qo'shiqlar, og'zaki drama, askiya va boshqalar katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadirlar. Xalq folklorida ta'lim va tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama etuk, yuqori axloqli shaxsni shakllantirishning hamma

tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan va tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotlar o'zbek folklorining sanab o'tilgan barcha janrlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, xalq og'zaki ijodining boshqa namunalari singari, xalq maqollari va ertaklarida halollik, to'g'rilik, yaxshilik, botirlik, sahiylik, go'zallik, kamtarlik kabi axloqiy sifatlar yuksak baholanadi. Va aksincha, tekinxo'rlik, egrilik, yomonlik, qo'rqqoqlik, baxillik, xunuklik, manmanlik singari salbiy xususiyatlar qoralanadi. Misol tariqasida bilimdonlik va ilmsizlikka oid ushbu maqollarni keltiramiz: «Bilgan o'qir, bilmagan to'qir», «Bildirish uchun bilish kerak», «Bilimsiz kishiga ish yo'q, ilmsiz kishiga osh yo'q. Yoki «Farhod va SHirin», «Uch o'g'il», «Aql va oltin» ertaklarida ilm-hunar ulug'lansa, «Etti ahmoq» «Kuygan chol», «Soqi mumsik bilan Boqi mumsik» kabi ertaklarda savodsizlik, ahmoqlik, faxrsizlik kabi illatlar kulgi ostiga olingan.

Ahloqiy tarbiya masalalariga xalq pedagogikasida keng o'rin berilganligi tufayli, xalq og'zaki ijodi janrlarida ahloq-odob haqida qimmatli g'oyalar ilgari surilgan. Ppofeccop A. Zunnunovning ta'kidlashicha, «har bir xalq, jumladan o'zbek xalqi ham ahloq qonun-qoidalarini yaratdi va u insoniylik asosi hisoblanadi. Misol uchun, «Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin» maqolini olaylik. Unda insonga bo'lgan munosabat yorqin ifodalanadi. Xalq tasavvurida olim bo'lishga nisbatan odam bo'lish mushkuldir. SHu sababli ham qadimdan insoniylik yosh avlodni go'zal ahloqli qilib tarbiyalashda asosiy mezon hisoblangan va u tarbiyaning asosi sifatida hozir ham davom ettirilmoqda. Milliy maktabda ta'lim-tarbiyani insoniylashtirish masalasi muhim o'rin tutadi. SHunday ekan, xalq pedagogikasi manbalaridan biri bo'lgan o'zbek folklorining yoshlarda insoniylikni, ahloqiy xususiyatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlaridan samarali foydalanmog'imiz zarur.

Xalq pedagogikasida bolaning mehnat tarbiyasiga, uni kasb-hunar egasi bo'lib etishishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Xalq og'zaki janrlarida mehnatning tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligi qayd etiladi. Mehnat bola tarbiyasida asosiy vosita dsb qaraladi. Masalan, xalq qo'shiqlarida mehnatsevarlik ulug'lanadi, sifatli, ijodiy, ixlos bilan va samarali qilingan mehnatga yuksak baho beriladi. Misol tariqasida o'zbek qizlarining mehnat tarbiyasida keng foydalanilgan kashta qo'shiqlarini keltirish mumkin:

Bosma tikar botirib,
Issiq suvga qotirib,
SHuning uchun botir qiz,
El ko'rganda shoshirib,
Jimalayni tepib tikar,

Ko'z nurina selday to'kar.
Guli tekis bo'lib chiqmasa,
Ko'rgan kishi boplab so'kar

Xalq pedagogikasiga ko'ra yosh avlodda mehnatsevarlikni shakllantirish insonning aqliy etukligi, jismoniy salomatligi va kamoloti, axloqiy pokligi va undagi nafosat xususiyatlarini vujuga kelishi bilan bog'liqdir. Xalq bolaning aqliy jihatdan rivojlanishiga alohida e'tibor bergan. O'tmishda o'zbek xalqi hayot tarzining ifodasi sifatida tematik jihatdan g'oyat boy va rang-barang bo'lgan topishmoqlar yaratilgan bo'lib, xalq og'zaki ijodining bu namunasi bolaning aqliy tarbiyasida keng qo'llanilgan. Topishmoqlar xalqimiz ijtimoiy-maishiy turmushining, yashaab turgan hudud tabiatining, jo'g'rofiyasiniig va umuman bizni o'rab turgan olamning barcha sohalarini qampab olgan. Demak, topishmoqlarning nafaqat tarbiyaviy, balki didaktik imkoniyatlari ham katta. Ulardan milliy maktabda ta'lim mazmunini milliylashrisha foydalanish mumkin. Masalan, canoq sonlar ishtirok etadigan o'zbek topishmoqlari matematik ta'limni milliylashtirishda juda qo'l keladi. Bunday topishmoqlarda narsa yoki hodisalar sanoq sonlar yordamida jumboqlanadilar. YA'ni ular orasidagi o'xshaishlik hisobga olinadi. SHunday ekan, jumboqni echishda o'quvchilar tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, narsa va hodisalarni o'zaro bog'lagan holda tekshirib, so'ngra xulosa chiqarish (sintez qilish) kabi mantiqiy operatsiyalarni bajaradilar. Topishmoqlar vositisida beriladigan matematik bilimlar hayot bilan bog'liq, amaliy yo'naltirilgan bo'ladi. Misol uchun ushbu topishmoqni keltiramiz:

Bir daraxtda o'n ikki shoxa,
Hap shoxada o'ttiz yaproq.
YAproqning bir yoni qora, bir yoni oq.
Javobi: bir yil, o'n ikki oy va o'ttiz kecha kunduz.

Xalq og'zaki ijodida jismoniy tarbiya g'oyalari ham keng o'rin olgan. Xalq azaldan yoshlarning sog'lom, epchil va baquvvat bo'lib o'sishiga doimo e'tibor berib kelgan. Xalqda jismoniy barkamollik, vatan himoyasi va mardlik tushunchalari bilan chambarchas bog'lanib kelgan. Navoiyning «Farhod va SHirin» dostonidagi Farhod obrazi so'zimizga dalil bo'la oladi. Ushbu obraz orqali jismonan kamolotga erishgan, mard va pahlavon inson shunday tasvirlanadli:

Ajabdur uch yoshida ko'zga atfol,
Nechukkim o'n yoshida o'zga atfol,
Qolib bu ishda el hayroni oning,
Spehru mehr sargardoni oning.

YA'ni, Farhod juda aqlli, zeharli bola bo'lib o'sadi, zo'r havas bilan ilm egallaydi, ammo

o'qib ilm olish bilangina cheklanib qolmaydi. U jismoniy va harbiy mashg'ulotlar bilan ham shug'ullanib, chiniqa boshlaydi. 10 yoshida unda 20 yashar yigitning kuch-quvvati bo'ladi. U o'zining aqli va jimoniiy mahorati bilan kishilarni hayratda qoldiradi. Farhod o'z ilmi, kuch-quvvati va hunarini ommaning manfaati uchun sarflaydi.

O'zbek qahramonlik dostonlaridagi obrazlar xalq pedagogikasida bolaning jismoniy va vatanparvarlik tarbiyasida qo'llanilib kelingan. Jumladan, Alpomish, Rustamxon obrazlarida jismoniy kamolotga erishgan, vatan himoyasiga tayyor, uning uchun jang qilishga shay kishilar gavdalandirilgan. Qahramonlik eposlaridagi ajoyib - g'aroyiblik, qiziqarlilik yoshlarni doimo o'ziga jalb etib kelgan va muxim tarbiya manbai bo'lib xizmat qilgan.

Bolalarning nafosat tarbiyasi xalq nazaridan chetda qolmagan. O'zbek xalqi boshka xalqlar qatori yoshlarni san'atning turli xillariga o'rgatib kelgan, ularni san'at orqali tarbiyalagan. Xalq og'zaki ijodining namunalari bo'lgan va xalq yig'inlarida aytilib kelingan qo'shiqlar, dostonlar, askiyalar yoshlarda san'at sohasidagi nafosat ehtiyojlarini shakllantirishga, ularda xalq badiiy qadriyatlarini o'rganishga intilishni tarbiyalashda ulkan hicca qo'shganlar. Masalan, o'zlarining badiiy jihatlari bilan diqqatga sazovor bo'lgan o'zbek xalq lirik qo'shiklari yoshlarning nafosat tapbiyasida muhiyam rol o'ynaydilar. Hayottda go'zallikni his qilish g'oyasi bilan sug'orilgan quyidagi lirik qo'shiq misolida fikrimizni dalillashimiz mumkin:

YOrim keladi yashnab,
Zar kokilini tashlab.
Xipcha belini ushlab,
SHakar labini tishlab.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq og'zaki ijodining bapcha janrlarida xalqning tarbiyaga bo'lgan qarashlari ifodalangan. Ulardagi tarbiyaviy g'oyalar, pedagogik ma'lumotlar va o'z ifodasini topgan xalq tarbiya tajribasi xalq pedagogikasining tarkibiy qismlaridir.

6-mavzu: Xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar. O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodi

1. Xalq pedagogikasi va xalq og'zaki ijodida dostonlar.

Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy tafakkurining mahsuli sifatida yuzaga kelgan nafis so'z san'ati durdonalari behisob. Ana shu ma'naviy namunalarni o'zida mujassam etgan badiiy og'zaki ijod turlaridan biri eposdir. Epos mazkur xalq haqidagi barcha ma'lumotlarni qomusiy qamrab oluvchi janrdir. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda yosh avlodni ma'naviy, jismoniy barkamol qilib tarbiyalashda qadimiy, milliy qadriyatlarning o'rni alohida

ta'kidlangan. Bu qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lgan dostonlar yoshlarga insoniy fazilatlarni singdirishda, ularni komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalq og'zaki ijodida dostonlar avlodlar dunyoqarashi va pedagogika olamining ko'zgusi bo'lib, komil insonni tarbiyalashda o'ziga xos bebaho qadriyatlardan biri hisoblanadi. Zero, xalq dostonlari qahramonlarining zargushatlari, ularning qiyinchiliklarni engib, har jihatdan chiniqib borishi har bir yosh uchun ibratdir. Dostonlar xalqning o'zligini, tilini, urf-odatlarini, qadriyat va an'analarini ifodalab beruvchi ko'zgu ekanligini yuqorida ta'kidladik. Xalq donishmandligi ruhi bilan sug'orilgan dostonlarni chuqur va atroflicha o'rganish esa yosh avlodning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi.

O'zbek folklorshunosligida xalq dostonlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borilyapti, maqolalar chop etilgan, bu izlanishlar o'z navbatida dostonlarning haqiqiy mohiyatini olishga yordam beradi.

«Doston» so'zi qissa, hikoya, shonu-shuhrat, sarguzasht, ta'rif va maqto'v ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida yirik hajmli etik asar nazarda tutiladi. Dostonlarda tasvirlangan voqea-hodisalar yakka shaxs favqulodda kuch qudratga ega bo'lgan xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Badiiy adabiyotda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan og'zaki tarzda kuylanib kelingan dostonlar bo'lsa, ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlardir. Masalan, «Alpomish», «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlar «Malikai ayyor», «Ravshan», «Kuntug'mish», «Rustamxon» kabilar og'zaki dostonlar namunalaridir. YUsof Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», A.Navoiyning «Xayratul abror», «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi. Og'zaki ijoddagi dostonlarni baxshilar kuylaydilar. Qadimda «Baxshi» so'zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi «tabib», ayrim hududlarda «ustoz» ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda xalq dostonlarini kuylaydigan san'atkor ma'nosini bildiradi. Dostonlar ham she'riy ham nasriy parchalardan bo'lib, baxshi soz chertganda sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytganda xonandaga aylanadi. Ijrochi baxshilar do'mbira, tor, dutor chalib, qo'biz chertib doston aytganlar. SHu bois dostonchilik kechalari har tinglovchi uchun katta bayram bo'lgan. Bunday kechalarda odamlar o'rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, Po'ltan shoir, Amat baxshi, Murod baxshi, Qurbannazar Abdullaev (bola baxshi) kabi folklorshunoslar tomonidan o'zbek xalq baxshilaridan 150 dan ortiq (variantlari bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingan bo'lib, ularning ko'pchiligi alohida-alohida kitoblarda nashr etilgan. Dostonlar mazmuniga ko'ra ham bir necha turlarga tavsiflanadi. Jumladan:

1. Qahramonlik dostonlari: «Alpomish», «Yodgor».

2. Jangnoma dostonlar: «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek», «Xoldorxon» va b.
3. Romantik dostonlar: «Rustamxon», «Murodaxon», «Kuntug'mish», «Go'ro'g'li» va b.
4. Tarixiy dostonlar: «Edega», «Shayboniyxon», «Oychinor» va b.
5. Kitobiy dostonlar: «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Zevarxon», «Oshiq G'arib va Shoxsanam», «Sayyod va Hamroh» va b.

Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g'oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma'naviy kamolot sari etaklagan.

Ana shunday umrboqiy asarlardan biri «Alpomish» dostonidir. O'n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qo'shmoqovning yozishicha: «Alpomish alp bo'lgan uchun ming yillar davomida xalq yuragida o'lmay yashab keladimi? Aslo! Alpik Alpomitsh obarizining bir qirrasi xolos. Alpomish aslida ma'naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma'naviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik kurashgan qahramon... Ma'naviyat qahramoni bo'lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. SHuning uchun o'zbek xalqi o'z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish o'g'illarni, Barchin qizlarni voyaga etkazdi».

«Alpomish» dostonida ishq - muxabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor, ma'lu sabab bilan ajalib ketgan xalqni birlashtirish yo'lida xizmat kursatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jixatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish kabi ibratli tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga quloq solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. SHuningdek, o'zbekning kadimiy urv-odatlaridan bulgan sovchilarni kutish, mexmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, izzatini qilish, shirinso'zlik bilan muomala qilish kabi axloqiy hislatlar ham o'z ifodasini topgan.

Dostondagi qahramonlik jasoratlarini Barchin obrazida ham khrishimiz mumkin. Barchin alplarning eng zo'ri Ko'kaldoshdan olti oy muhlat so'raydi, ular ko'nishadi; o'n yigitga o'n bedov otni berib xat yozib Alpomishga jo'natadi: «Olti oychalik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo'r yovning qo'lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin», -deydi. Doston yoshlarga yoriga vafodorlik, sadoqatlik kabi hislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi.

Dostonda aka-singil o'rtasida mehr-oqibat, oila sha'nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi hislatlar ham ifodalangan. Alpomishning singlisi Qaldirg'och «ahmok qalmoq» elida

to'qson alpning orasida talash bo'lib, ular zug'umidan azoblar ichra o'rtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan o'pkalab, unga so'z tg'ini sanchadi: «Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin, Nar-moda ishini bunda qilmagin», - deydi. Shunda Qaldirg'och o'sha gaplarni yanada qamchinliroq qilib aytadi:

«Har kim o'z elida bekmi, to'rami,
Nar – modalar sendan kamroq bo'lami,
Mardning yori toy talashda qolami?»

Ayni, «nar-moda», ya'ni «erkak-urg'ochi» so'zi o'zining ta'nador qudrati bilan yigitning hamiyatini uyg'otib, Alpomishni Boychiborga mindiradi, Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan elib boradi:

«Dubulg'a boshda dungullab,
Kark qubba qalqon qarqillab,
Tilla poyanak urilgan
O'zanglarga sharqillab,
Bedov otlari dirkillab,
Olg'ir qushdayin charqillab,
Qulda nayzasi so'lqillab,
YUrmokchi uzoq yo'liga,
Qaramay o'ngu so'liga,
Etsam deb yorning eliga
Siltab yuradi Boychibor...
Yo'l yurar davlatli shunqor...»

Alpomish Qalmoqshox yurtiga borib, Qorajon bilan do'st tutunadi, u Alpomish nomidan Barchinoyga sovchi bo'lib boradi va shunday deydi:

- «Qani, Barchin, Alpomish bo'lsa keldi, alplarning muhlati bo'lsa bitib qoldi, sen nima javob aytasan?» Barchin aytadi: «Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb men Alpomishning etagidag ushlab keta berayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi. Mening to'rt shartim bor, shu shartimni bajargan kishiga tegaman. Hohi Alpomish qilib olsin, hohi Qalmoqlarning biri qilib olsin. SHu so'zimni xon to'ramga aytib bor», - deydi.

Barchin qanchalik Alpomishni sevsa ham, lekin o'zbekona hayo bilan hamma qatori shartni bajarishini talab qiladi. Dostondagi bu parcha qizlarimizni iboli, hayoli, iffatli, or-nomusli qilib tarbiyalashda juda ahamiyatlidir.

Barchin alplarga 4ta shart qo'yadi: «Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman; kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman; yoy tortishsa yoyi sinmay qolganga tegaman, ming

qadamda tanga pulni urgan qarag'ay merganga tegaman», - deydi. Dostondagi qaxramonlik jasoratlari mana shu to'rtta shartni bajarishda o'z ifodasini topadi.

«Alpomish» dostoni o'zbek xalqining sevikli dostoni bo'lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylilik, samimiyat, to'g'rilik, hamiyatlilik, do'stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bulgan o'zbek milliy ruhiyati yaqqol ko'rinadi.

«Alpomish» dostonining 1000 yilligi 1999 yilda Termizda nishonlandi. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Maxmudov ta'kidlaganlaridek, «Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o'zbekning o'lmas so'zi timsoli sifatida munavvarlik olib kiradi. CHinakam xalq so'zining umri boqiydir».

Xalq dostonlarining juda katta qismi sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga bag'ishlanadi. Ishqiy – romantik dostonlarda voqea tuguni oshiqning ma'shuqa xakida xabar topishdan boshlanadi. Masalan, «Ravshan» dostonida Ravshan Zulxumorni uzukda ko'rib qoladi. «Kuntug'mish»da Holbeka yigitni tushida ko'radi, Kuntug'mish qizning sur'atiga oshiq bo'lib qoladi, ya'ni bir birini ko'rmagan odamlar o'rtasida g'oyibdan sevgi paydo bo'ladi. Sar sevgi esa hamisha odamni qaxramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi.

«Zevarxon» dostonida Zevar va Malikai Xubon o'rtasidagi chuqur insoniy munosabatlar, visol va xijron, vafo va sadoqat, do'stlik tarannum etiladi.

«Kuntug'mish» dostonida yoshlarni kasb – hunar o'rganishga undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug'mish degan yolg'iz o'g'li bo'lib, o'n to'rt yoshga to'lguncha ilm – hunar o'rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O'n to'rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo'lib etishadi.

«Ravshan» dostoni ham ishqiy – sarguzasht dostonidir. Bu doston ham «Go'ro'g'li» turkumiga mansub, «Ravshan» pok va samimiy muhabbatini kuylovchi maqsadga erishish yo'lida mardlik va botirlikni ulug'lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir.

«Malikai ayyor» dostoni ham «Go'ro'g'li» turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Unda muhabbat hongomalari va ishqiy sarguzashtlar serob. Dostonda or-nomus, imon-e'tiqod, insoniy iroda, chidam, topqrlik singari ezgu ma'naviy sifatlar tasvirlanadi. O'zbek yigitlariga xos eng olijanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqol, matal va qo'shiqlaridan juda keng foydalanilgan.

«Oysuluv» dostonidagi Oysuluv o'zbek xotin - qizlarining umumlashma obrazidir. Uning hozirgi zamon xotin - qizlariga ibrat bo'luvchi go'zal xslatlari juda ko'p. Masalan, Oysuluv o'g'lining zindonband bo'lganini eshitib esankirab qolmaydi, balki sabr – toqat qilib,

mulohaza bilan ish ko'radi, qo'rqmay Eron elchilariga qarata: «Men Turon mamalakatimni, elu – xalqimni unga bermayman!»-deb xitob qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan dostonlarning barchasi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasining eng muhim manbalaridan ekanigi bejiz emas.

Dostonlar xalqimizning o'ziga xos badiiy tarixi bo'lib, tarixiy – madaniy ahamiyati tengsizdir. Ularda xalqimizning asrlar bo'yi qilgan orzu-umidlari, kelajak xakidagi uy-fikrlari mujassamlashgan. Xalk dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik, o'zaro ishonch, do'stlik tuyg'ularini tarbiyalashda juda katta g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi.

Xalq dostonlari o'zbek xalki madaniyati rivojida ham katta ahamiyatga ega. Dostonlar motivlari asosida doamlar va badiiy filmlar yaratildi. Dostonlar yozuvchilar, shoirlar, dramaturglar, kinomatograflar, rassomlar, xaykaltaroshlar, fan va madaniyat arboblari uchun bitmas – tugalmas ijod tashmasidir.

Dostonlar ko'rib turganimizdek, yigitlarimizni mardlikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka chorlaydi. SHuningdek, do'stga vafodorlik, aka-uka o'rtasidagi mehribonlik, ota-onaga fidoyi bo'lishga o'rgatadi. Masalan, aka-uka o'rtasidagi mehribonlik «Kuntug'mish» dostonida Turkiboy va Mohiboy obrazlarida do'stlar o'rtasidagi sadoqatlik «Zevarxon» dostonida Zevarxon va Xasanxon, «Alpomish» dostonida Alpomish va Qorajon obrazlarida tasvirlangan.

Dostonlarda ko'plab hikmatli so'z va maqollarni uchratish mumkin. Masalan: «G'aribning ko'nglini ovlamoq savob», «Qilichdan seskanmas botirning tani», «Kamlikning kamoli bordir, manmanning savoli bordir», «YAxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, yomon odam qilgan ishi minnatdir», «O'zingdan kattani uchratsang ter bil, o'zingni er bilsang, birovni sher bil» kabilar shular jumlasidandir. Xususan. «Alpomish» dostonida xalq donoligining durdonalari – xikmatli so'zlar juda serob. Ularni xalqimiz boshidan o'tkazgan tajribalar asosida yuzaga kelgan xulosalar desak adashmaymiz.

«Kuchuk bosmas yulbars-sherning izini,

Esi bor biladi gapning tuzini»;

«To o'lguncha so'ylab qolgan til bo'lsin,

G'animning shavkati kuyib kul bulsin»;

«Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,

Boshing eson, davlatingni kam dema»;

«Davlat qunsa bir chibinning boshiga,

Semurg' qushlar solom berar qoshiga»;

«Sozandalar sozin chertar qul bilan,

YOmon odam kuydiradi til bilan»;

«Xozon bo'lsa, zog'lar qo'nar gulshanga»;

«Gul ketar bo'lsa, guliston emranar,
SHaxar vayron bo'lsa sulton tebranar
Mol borida hamma odam do'st edi,
Boshdan davlat qaytsa tuqqan emranar»

Dostonlar mavzusiga singdirilgan yuqoridagi kabi maqollar va xikmatli so'zlarning ahloqiy tarbiyadagi ahamiyati cheksizdir. Ishqiy romantik dostonlar yoshlarni sevgida vafodor, do'stga sadoqatli qilib tarbiyalasa, qaxramonlik va jangnoma dostonlar yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik kabi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Go'zal xulq, mukammal ma'naviy axloqiy fazilatlarni har bir insonda mujassam bo'lishi ta'lim tarbiyaga bog'liq. Mazkur qo'llanmaning ikkinchi mavzusida ta'kidlanganidek, yuksak ma'naviy axloqli yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining boshqa manbalari qatori dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini ta'lim tarbiya jarayoniga singdirishimiz lozim.

Xalq dostonlarida milliy an'analar, urf – odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar, xatti – harakatlari bilan bog'lab tasvirlanadi, ular timsolidi adolatparvarlik, rostgo'ylik, mardlik, insonga mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, do'stlik va samimiyat kabi xislatlar mehnat tarbiyasi, jismoniy kamolot, aqliy va ahloqiy sifat ulug'lanadi. Dostondagi ijobiy qaxramonlarni xalq o'z donishmandlarina aylantirdi.

Demak, dostonlarda ilgari surilgan muhim g'oyalar, ijobiy qaxramonlar timsolida mujassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi ishonch-e'tiqodlar, urf-odatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga etkazishning eng samarali yo'li ham xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdan iboratdir. Zero, dostonlar turli ramziy obrazlar orqali o'tmishimiz bilan hozirimizni bir biri bilan chambarchas bog'lab turadi, yoshlarga estetik did va zavq bog'ishlashdan tashqari ahloqiy shuurini ham uyg'otadi.

7-mavzu: XALQ PEDAGOGIKASIDA MILLIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR, UDUMLAR, MAROSIMLARNING TARBIYA VOSITASI SIFATIDAGI O'RNI

O'zbekistonda mustaqillik tantanasi tufayli ta'lim-tarbiya tizimida tub o'zgarishlar vujudga keldi. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq an'analariга e'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. O'lkamizda buyuk rejalar bunyodkorlik ishlari, aql-idrok, sabr-qanoat bilan, tarixiy an'alarimiz, tajribalarimizni hisobga olgan holda qadam-baqadam amalga oshirilmoqda.

Oliy va o'rta-maxsus, kasb-hunar tizimida ta'lim olayotgan yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularning O'zbekiston Respublikasiga sadoqatini shakllantirish, qolaversa, mamlakatimizga xos milliy urf-odatlarini, marosimlar (rituallar)ni yaratish, ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish - shu kunning dolzarb masalalaridan biri deb belgilangan. Ushbu matnda an'ana, urf-odat, marosimlar hamda rituallar haqida, ularning kelib chiqishi tarixi, tarbiyaviy ishlaridagi ahamiyati to'g'risida axborot beriladi.

Rituallar eng qadimiy davrlardan boshlab shakllana boshlagan. Asrlar bo'yi avloddan-avlodga o'tib, kamol topib, bebaho merosga aylangan rituallar ko'p. Rituallar din paydo bo'lgunga qadar paydo bo'lgan.

Lekin rituallarning ma'lum qismi tarixning qcos~ shamollariq- bosqinchilar va turli tarixiy shaxslar-hukmdorlar tazyiqiga uchrab, noxaq yo'qotilgan, ayrim qarama-qarshiliklarni engib, ko'pgina fazilatlaridan ajrala-da butunlay yo'qolib ketmagan, yana boshqalari esa xalq hayotidan mustahkam o'rin olib, bizning zamonamizgacha etib kelgan.

Xullas, eng qadimiy davrlardan xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan, muayyan vaqtlarda ta'qiqlangan, katta qapama - qarshiliklar, to'siqlarni engib, boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan rituallar o'zoq va boy tarixga ega.

Ibtidoiy jamoa davridan boshlab paydo bo'lgan rituallar o'sha davr odamlari tomonidan o'z davrining nafasini, dunyoqarashini, mehnat faoliyati, madaniyati, turli odatlari, marosimlari, ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish va keyingi avlodga etkazish maqsadida yoshlarga o'rgatilgan va ular bizgacha turli kuy, qo'shiq, o'yinlar orqali etib kelgan.

Qadimiy rituallar, asosan, ikki turga bo'lingan: tantanali va motam yoki tantanali-motam yurishlari, tantanali rasmiy ko'zatish va kutib olishlar. Keyinchalik ular takomillashib borib quyidagi turlarga bo'lingan: ijtimoiy, oilaviy, milliy, diniy, harbiy, mehnat, bilan bog'liq, kundalik-hayotiy, o'quv - tarbiya bilan bog'liq va boshqalar.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ibtidoiy davrda ovchilar o'yinlari, harbiy o'yinlar, diniy, ilohiy o'yinlar, ayiq ovi o'yini va turli hayvonlar o'yinlari ko'plab qo'llanilgan, ularni bajarishning o'ziga yarasha tartib-qoidalarini ishlab chiqilgan, ortiqcha harakatlar olib tashlangan, natijada ushbu o'yinlarning o'ziga yarasha marosimlari-rituallari paydo bo'lgan. Keyinchalik dehqonchilik boshlangach, dehqonchilikka bog'liq bo'lgan marosimlar – rituallar paydo bala boshlagan: mehnat o'yinlari, yomg'ir chaqirish, bevaqt sovuq tushsa «Kuyoshga sig'inish», omad kelmaganda «qurbonlik qilish» va boshqalar. SHuningdek, yoshlarni sog'lom, baquvvat bo'lishlari, o'z yurtlarini vatanparvari bo'lishlari uchun «erkaklikka o'tish», ya'ni turli sinovlardan, qiynoqlardan o'tish, o'zini hayotga tayyorligi, kuchini namoyish etish kabi marosim (ritual)lar kelib chiqqan. Har bir ritual o'zining tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatiga ega bo'lgan. Ularning har biri odamlarning tarbiyasi, bilmi, hayotiy tajribalarini ortishiga yordam bergan. Rituallar yillar davomida charxlanib borgan va aniq xatti-harakatlar bilan belgilangan marosimlarga aylangan.

RITUAL (lotin so'zidan «marosim») - xulq-atvorning tarixiy shakli bo'lib, o'zaro ijtimoiy va madaniy munosabatlarni, qadr-qimmatni anglatuvchi bir maromga keltirilgan harakatlar tizimidir. Bu tushuncha bilan birga, biz, ushbu rituallar haqidagi ma'lumotimizda ritualga juda yaqin bo'lgan an'ana, odat, marosim tushunchalari haqida ham bir oz to'xtalib o'tamiz.

An'ana - bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Odat - («urf-odat») - kishilarning turmushiga singib ketgan ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalarini, ko'nikma. Masalan,

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
- erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish;
- mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish;
- bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish;
- yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya'ni

- kishilar turmushi;
- mehnati;
- xulq-atvori;
- muloqoti;

- oilaviy munosabatlarda ko'proq mavjud bo'ladi.

Marosim — bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

Masalan,

- ism qo'yish marosimi;
- nikohdan o'tish marosimi;
- dafn qilish marosimi;
- xotiralash marosimi;
- urug' qadash marosimi;
- o'rimga kirish marosimi va boshqalardir.

Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrashi mumkin bo'lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Uning asosiy burilish daqiqalarini (masalan, tug'ilish, uylanish, o'lim kabilarni) qayd etadi, rasmiylashtiradi.

Marosimning avloddan-avlodga o'tadigan ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud.

Marosimga bo'layotgan voqeaga, «guvoh» sifatida odamlar chaqirilgan, ular dardga yoki quvonchga sherik bo'lishgan, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishgan.

Har bir marosimning o'ziga xos umumiy qabul qilingan tuzilishi (boshlanishi, o'rtasi, oxiri) bo'ladi.

Ko'pincha an'ananing tarkibiy bo'lagi odat, odatning muhim bir qismi marosim bo'ladi. Shu sababli inson hayotida bo'lib o'tadigan yoki bo'lib o'tayotgan muhim voqeani turmushda burilish yasaydigan «nuqtalari»ni nishonlash jarayonida ham an'ana, ham odat, ham marosim sodir bo'lishi mumkin.

Masalan, yoshlar voyaga etganda — yigitlar uylanishi, qizlar turmushga chiqishlari kerak. Buni avloddan-avlodga o'tib keladigan an'ana desak bo'ladi.

Bir-birini sevgan yigit-qizning oila qurishi uchun nikoh to'yi o'tkaziladi. Bu o'z navbatida insoniyat hayotiga singan, muayyan qoidaga ma'lum tartibda ega bo'lgan urf-odat hisoblanadi (lekin har bir millatda bu urf-odatlar har xil).

Nikoh to'ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinni nikohdan o'tishlaridir. Zamonaviy shakliga ko'ra — mashinada yurish, guvohlar bilan ZAGSdan o'tish, uzuk taqish, ZAGS xodimlarining savollariga javob berish, hujjatlarga imzo chekish. Bu rasmiy va tantanali ravishda o'tadigan marosim.

Yuqorida aks ettirilgan jarayonlar — kelin-kuyov, ularning qarindosh-urug'lari, yoki do'stlari uchun bayramga aylanishi mumkin. To'y kechasini o'tkazilishi, barcha tanishlar va qarindoshlarni taklif etilishi bu bayramga yanada tantanali tus beradi.

«An'ana», «odat», «marosim» tushunchalarining izohi bir-biri bilan bog'liq hodisalar bo'lishi bilan bir qatorda an'analarning tarkibiy qismi esa marosim bo'lishi mumkin.

Masalan, - bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarning ishlab- chiqarishga borib, ish boshlashi, bu odat tusiga kirib qolgan;

- bu muhim voqeaga bag'ishlanib har yili an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin; - bu odatning tarkibiy qismi - yoshlarni tantanali ravishda ishchilar safiga qabul qilish o'z-o'zidan marosimga aylanadi.

Marosimlar:

- chigit qadash;
- ishchilar safiga qabul qilish;
- yangi korxona, firma, markaz ochilishi (prezentasiya);
- diplom topshirish;
- pasport topshirish;
- dafn qilish va boshqalar.

«An'ana», «marosim» kabi bayram bilan bog'liq atamalar «standart» tushuncha emas, ularning mazmuniga hayot rivojlanishi va turmush ehtiyojlari ta'sir etishi mumkin.

Ijtimoiy hayot taraqqiy etish bilan uning talabiga javob bermaydigan an'analar va bayramlar, marosimlar asta-sekin unutila boshlanadi.

Marosim inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi. Marosimning avloddan-avlodga ramziy va rasmiy harakatlari, qoidalari mavjud.

Bu harakatlar va qoidalarining ixchamligi, aniq bir maqsadga yo'naltirilganligi, hatti-harakatlarni bir maromga keltirilgani biz yuqorida aytib o'tgan ritual tushunchasiga tug'ri keladi.

Rituallar haqida gapirganimizda birinchi o'rinda O'zbekiston Respublikasi ramzlariga bo'lgan xurmat ko'rsatish rituallari haqida fikr yuritamiz.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'i, Madhiyasi, Gerbi - bizning asosiy ramzlarimiz hisoblanadi. Ular haqida davlat tomonidan Qonunlar qabul qilingan, ushbu hujjatlarda davlat ramzlariga bo'lgan hurmat, ularga bo'lgan munosabat, ularni ishlatish, caqlash usullari haqida tavsiyalar berilgan. Lekin hayotimizda ko'pchilik rahbarlar, ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchilar bu qonunlardan bexabar bo'lganliklari yoki e'tiborsizliklari tufayli davlat ramzlariga bo'lgan munosabatda ko'pgina siyosiy va qo'pol xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. Masalan, Davlat bayrog'ini ko'tarish va tushurishda, uni devorga mix yoki knopka bilan ilib qo'yishda, Davlat madhiyasi ijro etilganda unga hurmat yuzasidan o'rindan turishda, ramzlarni jihozlash ishlarida qo'llashda va boshqalar.

Bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun, albatta, Vazirlar Mahkamasining davlat ramzlari to'g'risidagi qarorlarini o'qib o'rganib chiqish kerak. O'quvchi yoshlar o'rtasida esa Davlat

ramzlariga bo'lgan hurmat va munosabat haqida suhbatlar tashkil etish kerak. Ularni Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tanishtirish lozim. Davlat ramzlariga bag'ishlangan darslar yoki rituallar darslarini tashkil etish kerak.

O'quv muassasalarida o'tkaziladigan rituallar (marosimlar), ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar, tadbirlarni tashkil etishni hamda ularning tizimini to'rt guruhga bo'lish mumkin.

BIRINCHI GURUH. Yoshlarni Vatanga, o'z xalqiga vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni shakllantirishga qaratilgan rituallar tizimi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Umumxalq, bayramlarini o'tkazish: Mustaqillik bayrami, O'qituvchi va murabbiylar bayrami, Konstitutsiya, Yangi yil, Xalqaro xotin-kizlar bayramlari, Navro'z, Xotiralash va qadrlash bayramlari, shuningdek, Ramazon va Qurbon hayitlarining birinchi kunlari kabi bayramlar.

2. Yosh fuqarolar bayrami (pasport topshirish).
3. «Vatanni sevmok iymondandir» bayram rituali.
4. Davlat ramzlariga hurmat ko'rsatish rituali.
5. Rituallar darsi.
6. Davlat tiliga bag'ishlangan bayram rituali.
7. «Ajdodlarimiz merosi-qadriyatlarimiz asosi» mavzusidagi rituallar.
8. Xotira kuni (tantanali lineyka, gulchambar qo'yish rituallari).

IKKINCHI GURUH. Yoshlarni fuqarolik burchi, tanlagan kasbiga mas'uliyat hissini shakllantiruvchi rituallar tizimi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchi, talabalikka bag'ishlov rituali.
2. Talabalarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga, guruhdan-rypyhga o'tkazish rituali.
3. Bitiruvchilar tantanasi.
4. Kasb-hunar bayrami.
5. O'quv yurtini tashkil etilganligiga bag'ishlangan an'anaviy bayram rituali.
6. Hafta navbatchiligini qabul qilish, yakunlash va topshirish rituallari.
7. Kundalik hayotni boshlashga bag'ishlangan ritual (saflanish).
8. Kasb sulolasini ulug'lash bayrami rituali.
9. Bitiruvchilarni o'z ilm dargohlariga o'zlari tayyorlagan kasbiy sovg'alarni taqdim etish rituali.
10. «Xomiylarga balli» kechasini o'tkazish rituali.
11. «Birinchi qo'ng'iroq», «Oxirgi qo'ng'iroq» rituallari.
12. Ustozlarga bag'ishlangan «CHin dildan» bayrami rituali.
13. «Quvnoq ustalar o'lkasi» ko'rik - tanlov rituali.
14. «Alpomish avlodimiz» ug'il bolalar bellashuvi va boshqalar.

UCHINCHI GURIH. YOshlarni ahloqiy fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan rituellar tizimiga quyidagilar kiradi:

1. «Milliy — madaniy, odob-axloq darslarini tashkil etish (taxminan quyidagi mavzularda: tashqi qiyofa, salomlashuv, o'zini tuta bilish va boshqara olish, so'zlashuv madaniyati).

2. Mavsumiy sport bayramlarini o'tkazish.

3. Mavsumiy xasharlarni o'tkazish.

4. O'quvchilar o'rtasida bahs-munozara o'tkazish: (taxminiy mavzular: «Ota-onang — toji-taxtini», «Nima savobu, nima gunoh», «Nonni e'zozlang», «Yigit kishiga yetmish hunar oz», «Bepul narsaning baxosi qancha?», «Yo'lbars izidan, yigit so'zidan qaytmas» va boshqalar.

5. «Farzand burchi» ko'rigini o'tkazish.

6. «Odobnoma» choyxonasini o'tkazish rituali.

7. Notiqlik turniri.

8. «Mehmonnoma» davrasi.

9. Topishmoqlar kechasi. (Xalq topishmoqlari).

10. Kulgu kechasi.

TO'RTINCHI GURUH. Kelgusida ritualga aylanishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Kasbiy mahorat tanlovlarini o'tkazish (estafeta shaklida).

2. Musiqaviy diskoteka o'tkazish.

3. O'quv yurtining «Faxriy a'zolidiga» qabul qilish rituali.

4. Xalqaro talabalar kuniga bag'ishlangan festival.

5. Mavsumiy sayllar rituellari.

b. Kitob haftaligi, o'quv predmetlari haftaliklarini o'tkazish tartiblari.

Yuqorida berilgan marosim (rituallar)dan tashqari har bir o'quv yurtida (sharoitdan kelib chiqqan holda) turli xil tashkiliy tadbirlar ham bo'lishi mumkin, ularga quyidagilarni kiritish bo'ladi:

1. O'quv yurtining mutaxassisligi yo'nalishi, xususiyatidan kelib chiqqan holda o'quv yurtining madhiyasi, emblemasi, qasamyodi, shaklini tayyorlash.

2. O'quv yurtining o'ziga xos musiqaviy qo'ng'irog'ini tayyorlash.

3. Iqtisodiyot, tadbirkorlik, tejamkorlik va hunarmandlik ruhida tarbiyalashga bag'ishlangan tadbirlar.

4. O'quv yurtida talaba va o'quvchilar uchun tanaffus madaniyatini tashkil etish ritualini ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha marosimlar o'quv yurtida o'tkazilishi shart deb bo'lmaydi, chunki ularning tayyorgarligi, o'tkazilishi, tarbiyaviy ta'siri o'quv yurtining sharoiti, tashkilotchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi, bilimi, tajribasiga bog'liqdir.

O'quv yurtlarida O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi kalendar bayramlarini o'rganish, ularni tashkil etib o'tkazish talabalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lardi.

Bu bayram - marosimlar quyidagilar:

Baxoriy tengkunlikda — «Navro'z» bayrami (21-22 mart).

Ko'zgi tengkunlikda - «Mexrjon» bayrami (22 sentyabr).

Qishning eng uzun tuni — «Sada» (Olov) bayrami (22 dekabr).

Yozning eng uzun kuni - «Angom xayit» (suv sayli) bayrami (22 iyun).

Yuqorida ko'rsatilgan bayramlar o'zbek xalqining qadimiy bayramlari hisoblanadi. Ularning jadval yilnomasi quyidagicha:

O'ZBEK XALQ BAYRAMLARINING JADVAL-YILNOMASI

1. **21-22 mart – NAVRO'Z**

eski maxalliy nomlaridan biri — «Yil boshi»

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

Qadimgi bahor bayramlari asosida taxminan 28-30 asr muqaddam paydo bo'lgan. Tabiat uyg'onishi, kunduz va tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi kabi hodisalarni aks ettirib kelgan. «Yil boshi» - yangi yil bayrami sifatida ham mashhur bo'lgan.

BAYRAMNING ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILY SHAKLLARI. Tabiat jonlanishi, bahor kelishi, dalalarda yangi mehnat mavsumi boshlanishiga bag'ishlangan sayllar, tomoshalar, o'yinlar, musobaqalar, xalq ijodi ko'riklarini o'tkazish, maxsus taomlar tayyorlanishi va boshqalar.

2. **GUL SAYLLARI** (lola sayli, qizil gul sayli, sunbula sayli) Aprel oyining boshi — may oyining oxiri.

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

Qadimiy davrlardan boshlab dalalar, qir-adirlar, tog' yon bag'rida turli tabiiy gullar (boychechak, lola, sunbula, binafsha) ochilishi munosabati bilan o'tkaziladigan sayllar sifatida vujudga kelgan.

BAYRAMNING ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILIY SHAKLLARI,

Tabiiy go'zallikni, gullarni, o'simliklarni e'zozlash, saqlash va ko'paytirishga bag'ishlangan tadbirlar, sayllar, tabiiy saylgohlarga dam olishni uyushtirish.

3. 21 iyun — SUV SAYLI (yoz bayrami)

Qadimiy nomi «Angom».

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

Yuqorida ko'rsatilgan bayramlar o'zbek xalqining qadimiy bayramlari hisoblanadi. Ularning jadval yilnomasi quyidagicha: O'rta Osiyo iqlimi sharoitida suvga bo'lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan, suv xavzalari bor sharoitda taraqqiy etgan.

BAYRAMNING ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILIY SHAKLLARI

Suvning qadriga etish, e'zozlash tadbirlari, suv xavzalari yonida turli dam olish, sog'lomlashtirish va cho'milish tadbirlarini o'tkazish.

4. QOVUN SAYLI, UZUM SAYLI, ANOR, ANJIR SAYLLARI, TABIAT VA MEHNAT BAYRAMLARI.

Avgustning oxiri.

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

Qadimgi hosil yig'ish odatlari asosida shakllangan. Turli nomi va bog' mahsulotlari pishganda dehqonlar o'z yaqinlari, qo'shnilari, qarindoshlarini chaqirib, ularni o'z hosillari bilan siylagan, qariyalarning duosini olgan.

Qovun ekkanlar — «Qovun sayli», uzum ekkanlar — «Uzum sayli» o'tkazib kelishgan. Pishiqchilik mavsumida hashap va Bog' sayllari xam uyushtirilgan.

ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILIY SHAKLLARI.

Pishiqchilik davrida qishloq, dala-bog'larda boshlanib, shahar bozorlari, maydonlarda va madaniy bog'larda sodir bo'ladigan meva ko'rgazma — savdolari, tomoshalar, sayllar, «Kimning mevasi shirin» nomli ko'rik-konkurslar.

5. 22 sentyabr — MEHRJON — (Kuz bayrami) Bu bayramning qadimiy nomlari:

Xorazmda «Chiri-ruj», Sund — Samarqandda — «Nim-sarda».

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

Eng qadimgi Mitra (quyosh)ga sig'inish odatlari va kuz (hosil) marosimlari asosida taxminan 2-3 ming yil muqaddam vujudga kelgan. U kuzni kun va tun tengligini, hosil yig'ish yakunini, qishga tayyorgarlik ko'ra boshlash kabi hodisalarni aks etgiran bayram. Tarixda 10-15 asr mobaynida Navro'zdan so'nggi ikkinchi katta bayram hisoblangan, yil yarmo vazifasini ham o'tagan. O'rta asrlarda turli bayramlarga bo'linib ket).

ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILIY SHAKLLARI.

Xozirgi kunda kuz bayrami, ko'zgi tun va kun tengligi, an'anaviy (eski) «yil yarmi» mehr-shavkat tadbirlari sifatida tabiiy sayllarda, madaniy bog'larda, o'yingohlarda, maydonlarda turli ko'rgazmalar, ko'riklar, tomoshalar, musobaqalar, sayllar kabi shakllardan foydalanib utkazilsa bo'ladi.

22 dekabr — SADA — (qish bayrami)

BAYRAMNING MOHIYATI, VUJUDGA KELISHI.

Bu bayram qadimdan olov kashf etilgan kun deb qabul qilingan. U qadimiy ajdodlarimizning qishda olov (isinish)ga bo'lgan ehtiyojlari asosida taraqqiy etgan.

Otashparastlik davrida «Sada» eng katta bayramlarning biri bo'lgan. Islom istilosidan so'ng (o'rta asrlarda) bu bayram yo'qola borgan. Biroq uning ko'pgina qoldiqlari saqlanib qolgan.

ZAMONAVIY MAZMUNI VA TASHKILIY SHAKLLARI.

Xozirgi kunda uni qish bayrami sifatida hamda dunyodagi eng katta kashfiyotlardan biri — olov mo'jizalariga, yildagi eng uzoq tun («Yaldo kechasi») va qisqa kunga, qishki chilla boshlanishiga bag'ishlab, turli ochiq maydonlarda, zallarda gulxanlar yoqib, tomosha — sayllar qilib, rang- barang musobaqalar bilan uyushtirsa bo'ladi.

Biz taklif etgan marosimlar (ritual)larning barchasi katta tayyorgarlik, o'quvchi-talabalarning qiziqishi hamda ularni tashkil etishga bog'liq bo'lib ularning har biri ustida alohida fikr yuritish, o'ylash, shuningdek, ularni o'tkazish uchun ishchi yoki ijodiy guruhlar tuzish kerak bo'ladi, shu bilan birga marosimlarni tayyorlash va o'tkazish vaqtida ko'ppoq o'quvchilarning tashabbusiga, ularning qiziqishiga hamda fikrlariga diqqat-e'tiborni qaratish kerak.

Har bir o'tkazilgan marosim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi va o'quvchilarning tarbiyasiga ta'sir etadigan bo'lishi kerak.

Biz quyida turli mavzulardagi ritual marosimlar ro'yxatini sizlarga havola qilamiz:

ZAMONAVIY BAYRAMLAR TASNIFI

1. TABIAT BAYRAMLARI.

— Zamonaviy NAVRO'Z.

- Yangi yil bayrami.
- Tabiatsevarlar bayrami
- Gul va qush bayramlari.
- Mexrjon bayrami.
- Mustaqillik bayrami va boshqalar

2. *MEHNAT BAYRAMLARI.*

1. Qishloq xujalik xodimlarining Mehnat bayramlari.
 - «Urug' qadash» va «Birinchi gul» tantanalari.
 - Hosil bayrami, sabzavot va mevalar sayllari.
2. Sanoat ishchilarining mehnat bayramlari.

3. *MADANIYAT BAYRAMLARI:*

- Ma'rifiy bayramlar.
- «San'at bayrami».
- Folklor bayramlari.
- Badiiy sport bayramlari.
- Xalqaro do'stlik bayramlari.

4. *OILAVIY - XUSUSIY BAYRAMLAR:*

- Ism qo'yish marosimi
- Tug'ilgan kunlar va muchal yoshini nishonlash marosimi.
- Beshik to'yi
- «Birinchi qadam» bayrami.
- Sunnat to'yi
- Maktab yoshidagi bolalar bayramlari.
- O'zbek to'ylari. Nikoh to'ylari.
- Kumush, oltin va olmos to'ylar.
- Pensiyaga kuzatish va qariyalar bayramlari va boshqalar.

5. *IJTIMOIIY — SIYOSIY BAYRAMLAR:*

- Umumxalq bayramlari (Mustaqillik, O'qituvchi va murabbiylar, Konstitutsiya, Xotira va qadrlash, xotin-qizlar) va kasb bayramlari.

b. DINIY BAYRAMLAR:

- Ro'za va Qurbon hayitlari

7. HAR XIL SHAKL, MAVZU VA KO'RINISHDAGI

MAROSIMLAR:

Choyxona «ODOBNOMA», Topishmoqlar kechasi (Xalq topishmoqlari), «MEXMONNOMA» davrasi, Og'zaki jurnal (O'zbekiston, Navro'z, Mehrjon, Bahor mavzularida), «Odam ko'rki-libos» konkurs — kecha, «Otangga raxmat» suhbat- munozara, milliy o'yinlar kechasi (raqslar va bolalar o'yinlari) va boshqalar.

8-mavzu: XALQ PEDAGOGIKASIDA DINIY TA'LIMOTLAR.

Tarbiya haqidagi diniy g'oyalar o'z vaqtida har bir musulmon kishining ahloqiy qiyofasiga jiddiy ta'sir qilgan. Islom dinining muqaddas manbalari bo'lgan Qur'oni Karim hamda hadislarda odob-ahloqqa, insoniylikka oid qimmatli pedagogik g'oyalar ilgari surilgan. Olloh o'n sakkiz ming olamni yaratgandan so'ng unga sarvar qilib Insonni-Hazrati Odam Atoni yaratgan ekan. Odam Ato qovurg'asidan Momo Havoni yaratib, zaminda odam urug'ini ko'paytirgan ekan. Aytishlaricha odamning ko'ngliga uch narsa urmas ekan. Dastlabkisi yer uchun ayol, ayol uchun er, chunki ular bir vujudan yaralgan, vujudda esa oshiqcha a'zo yo'q. Inson ko'ngliga urmaydiga ikkinchi narsa rizq-ro'zi, yashash omili bo'lgan non ekan. Mana necha ming-ming yillar o'tsa ham, Odam Ato va Momo Havo ilk bor ta'mini tatib ko'rgan bug'doy hamon ularning avlodlari nasibasi bo'lib xizmat qilib kelayotir. Bashariyat farzandi uchun uchinchi ulug' narsa bu kitob ekan. Zero Qur'ondagi dastlabki oyat «Iqro» ekanligi, ulug' payg'ambarimiz Muhammad Rasululloh(s.a.v) o'qishni o'rganib Ollohning so'zlaridan xabardor bo'lib, ularni xalqqa etkazgani, musulmlar diliga simngidirgani ma'lumdir.

Kitobning muqaddasligi yana shundaki, odamlar u orqali fikran boyidilar, aqlan o'sadilar, ahloqiy kamol topadilar, qanday so'zlash, qanday yashash zarurligini, iymon-e'tiqodni asrashni biladilar. SHu boisdan ham o'zbek xalq pedagogikasi an'analari sahifalaridan asosiy o'rinni yorug' olamning gultoji – Inson, uning rizq-ro'zi Non va aql-idroki mahsuli kitob odobnomasi va ibratnomasining o'rin olishi bejiz emas.

Xalq odamgarchilik, mehr-oqibat, to'g'ri so'zlash, munofiqlik qilmaslik, halollik, mehnatsevarlik, tejamkorlik va boshqa insoniy hislatlar haqida yozilgan hadislardan tarbiyaviy tajribada keng foydalangan. Islom dinining tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Zero, diniy ta'limotlar o'zbek xalqi madaniyatining bir bo'lagi sifatida qaralsa ulardagi pedagogik fikrlar xalq pedagogikasining tarkibiy qismlari bo'lib xizmat qiladi.

Imom-al Buxoriy xadislari, ularning taxlili.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, Imom al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Uning “Al-Jome' as-saxix” (“Ishonchli tuplam”), “Al-adab al-mufrad”, “At-Tarix al-kibor” (“Katta tarix”), “At-Tarix as-sagiyr”, (“Kichik tarix”), “Al-kiroatu xalfa-l-Imom” (“Imom ortida turib ukish”), “Vaf'ul-yadini fi-s-Saloti” (“Namozda ikki kulni kutarish”) kabi ishlari mavjud bulib, kulyozmalari bizgacha etib kelgan. Amma “At-Tarix al-avsat” (“Urta tarix”), “At-Tafsir al-kabir” (Katta tafsir”), (“Al-Jome' al-kabir” (“Katta tuplam”), “Kitob-ul-xiba” (“Xadya kitobi”) nomli asarlari xam bulganligi ma'lum, lekin bular bizgacha etib kelmagan. SHubxasiz, bu

asarlardan eng etuk, shox asari “Al-Jome’-as-saxix”dir. Bu asar “Saxix al-Buxoriy” nomi bilan xam dunyoda mashxur. 4-jildan iborat mazkur kitobda paygambarimiz sallolloxu alayxi vasallam xadislardan tashkari, islom xukukshunosligi, islom marosimlari, axlok-odob, ta’lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma’lumotlar xam berilgan. Unga 600 ming xadisdan 7275 ta eng “saxix” xadislar kiritilgan bulib, takrorlanmaydigan 4000 xadisdan iboratdir. Bu kitob islom ta’limotida kur’oni karimdan keyingi manba xisoblanadi. Ma’lumki, islom dini insonni ma’naviy kamolot sari etaklovchi ta’limot. Shu sababli Kur’oni Karimda xam, xadislarda xam yaxshi xulk va odob keng targib etilgan.

“Saxix” yunalishining asoschisi, eng etuk va mashxur muxaddis Abu Abdulox Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy xadis ilmida “Amir ul-mu’minin”. “Imom al-muxaddisiyn” (“Barcha muxaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bulgan. U 810 yil, 13 mayda (ba’zi manbalarda 810 yil, 20 iyulda) (xijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tugilgan. Gudakligida otadan etim kolgan. Ukuv muassasasida savod chikargan, 10 yoshidanok arab tili va kitoblaridan ularni yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy xadis ilmini katta kizikish bilan urgana boshlaydi. Yoshlik chogidan boshlab turli roviylardan eshitgan xadislarni yodlab boror edi. Abdullox ibn ol-Muborak, Vaki’ ibn Jarrox kabi olimlar tuplagan xadislarni yod olgan, xadis rivoyatchilari xakidagi baxslarda katnashgan.

Al-Buxoriy 825 yilda, un olti yoshida onasi va akasi bilan Xijozga safar kiladi. Makkayu Mukarrama va Madinayu Munavvarada bulib, xaj ibodatini ado etadi. Balx, Barsa, Kufa, Bag’dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madinada bulib, safar jarayonida muxaddislardan xadis ukir edi. Olti yil Xijozda kolib, xadis ilmidan ta’lim oladi. Shu bilan birga, Damashk, koxira, Basra, Bagdod shaxarlarida mashxur olimlardan fikx olmidan dars oladi, uzi xam baxs va munozaralarda katnashadi, tolibu ilmlarga dars xam beradi.

Imom Buxoriy iste’dodli, utkir muxofazali, ziyrak olim bulgan. “Manbalarga ko’ra, Bag’dodda istiqomat qilgan paytida ko’pincha oyning nurida ijod kilib, korongi kechalari sham yorugida kitob ukir ekan. Agar tunda bexosdan biror-bir fikr-muloxaza kelib kolsa, shamni yokib darxol fikrini kogozga tushirar, shu taxlitda ba’zi kechalari shamni yigirma martagacha uchirib-yokar ekan”.

Imom Buxoriyning utkir zexn egasi ekanligini kuyidagi misoldan xam bilish mumkin.

Rivoyatlarga kura “U kaysi bir kitobni kulga olib, bir marotaba mutolaa kilsa, xammasi yod kolaverardi”. Imom Buxoriyning uz suziga kura, yuz ming saxix (ishonchli) va ikki yuz ming gayri saxix (ishonchsiz) xadisni yod bilar ekan. Uz shogirdlaridan Amir ibn Fallos “Muxammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma’lum bulmagan xadis, albatta ishonchli xadis emasdur”, - deydi. Ustozi Imom Axmad ibn Xanbal al-Marvaziyning aytishicha, “Butun Xurosondan Muxammad ibn Ismoil kabi olim chikkan emas”.

Imom Buxoriyning utkir zexni xakida shunday rivoyat keltiriladi: “Imom Buxoriy bilan Basrada xadis darsiga katnashgan sheriklaridan biri Xoshid ibn Ismoil aytadi: “Imom Buxoriy bizlar bilan ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan xadislarni biz yozib olar edik, ammo Buxoriy fakat kulok solibgina utirardi. SHu tarzda kancha kunlar utib, orada ustoz kariyb 15 ming xadis rivoyat kildi. SHunda biz Buxoriyga: “Sen nega xadislarni yozmaysan?” - deb ta’na qilgan vaktimizda: “Sizlar yozib borayotgan xadislarni men ustoz ogzidan yodlab olayotirman”, - dedi-da, ustoz rivoyat qilgan xamma xadislarni bir chekkadan yoddan ukib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan xadisalarimizdagi xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan buldik”.

Imom Buxoriy juda kup zabardast olimlardan ta’lim oladi. Manbalarda uning ustozlarini taksonga yakin deb kursatishadi. Muxammad ibn YUsuf al-gartobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Xamiydiy, ibn Raxavayx nomi bilan mashxur imom Isxok ibn Ibroxim, Imom Axmad ibn Xanbal, Ali ibn al-Madiyniylar uning ustozlaridir.

Imom al-Buxoriyning uzi xam yirik va mashxur olimlar Isxok ibn Muxammad al-Ramoziy, Abdullox ibn kutayba, Ibroxim al-Xarbiy, Muxammad ibn Abu Iso at-Termiziy, Muxammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn Al-Xajjajlarga uz vaktida ustozlik qilgan.

Imom Buxoriy uta kamtar, insonparvar, xulk-odobda tengsiz, saxovatli inson xam bulgan. U xadis ilmining etuk olimi bulsa xam, vakti kelganda zamondoshlari, shogirdlaridan xam urgangan. Imom Buxoriy bir ming saksonta muxaddisidan xadis eshitgan. Undan tukson ming kishi ishonarli xadisni tuplagan, 100 ming “saxix” va 200 ming “gayri saxix” xadislarni yod olgan.

Imom al-Buxoriy uzok safardan ona yurti Buxoroga kaytgach, talabalar va ulamolarga xadis ilmidan sabok beradi va uning targibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga kura, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Axmad ibn Xolid az-Zuxaliy uni saroyiga kelib xadis ilmidan sabok berishga taklif etadi. Ammo Imom Buxoriy bu taklifni kabul etmaydi va: “Men ilmni xorlab sulton amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bulsa, tarbiyalanuvchilarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin”, - deb javod beradi. Al-Buxoriy bilan amir Xolid ibn Axmad az-Zuxalliy munosabatlariga raxna tushadi. Bunga ba’zi xasadguy shaxslarning igvolari xam sabab buladi. Amir buyuk allomani shaxardan chikib ketishga farmon beradi. Uni Samarkand ulamolari uz yurtlariga taklif etadilar. Imom Buxoriy yulga chikadi. Ammo Samarkandga yakin Xaftang kishlogida (xozirgi Poyarik tumani) betob bulib koladi va shu erda xijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 870 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi.

9-mavzu:XALQ PEDAGOGIKASIDA XALQ AMALIY SAN'ATI VA MADANIYATINING O'RNI

Xalq pedagogikasini o'rganish va undan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanish uchun avvalo xalq ommasi to'plagan pedagogik ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishimiz lozim. YA'ni, xalq pedagogikasi manbalari bo'lib nimalar xizmat kilishini aniqlashimiz zarur.

Etnopedagogika fanining asoschilaridan biri G.N.Volkovning quyidagi ta'rifi xalq pedagogikasi manbalari xaqida yorqin tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi: «Xalq pedagogikasi – xalq og'zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o'yinchoqlari va o'yinlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir». Ta'rifda keltirilgan xalq pedagogikasi manbalari turli xalqlar tarbiya madaniyatiga taaluqlidir. SHu bilan bir qatorda har bir xalq bir, jumladan o'zbeklarning tarixiy ijtimoiy taraqqiyotida, hayot tarzida, madaniyatida, faoliyat turlarida umuminsoniy harakterdagi xususiyatlar bilan yonma-yon milliy o'ziga xos, betakror tomonlari ham mavjuddir. Demak, xalq pedagogikasi manbalarida ham o'ziga xoslik, takrorlanmaslik mavjud.

O'zbek xalq pedagogikasi manbalari quyidagilar:

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi(folklori).
2. Milliy urf-odatlar, an'analar va marosimlar.
3. Xalq uyinlari va uyinchoklar.
4. Diniy ta'limotlar.
5. Xalq amaliy san'ati va xunarmandchiligi.
6. Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati.
7. Tasviriy san'at.
8. Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik.
9. Xalq raqs san'ati(xoreografiyasi).
10. O'rta Osiyo va o'zbek xalqi mutaffakirlarining asarlari.

Xalq o'yinlari va o'yinchoqlari. Xalqning yashashi, mehnati va o'z-o'zini himoya qilish ehtiyojlaridan xalq o'yinlari kelib chiqqan. O'zbek xalq o'yinlari o'zlarning serharakatligi, barcha organizm va muskullarni o'rgatuvchanligi, chidamlilikka o'rgatuvchanligi, chiniqtiruvchi harakatlardan tashkil topganligi bilan boshqa xalqlar o'yinlaridan farq qiladi. Xalq o'yinlari har bir faslga mos bo'lgan.

Xalq o'yinlari xalq pedagogikasining manbalaridan biri bo'lib, bolalarda ko'plab insoniy sifat va xususiyatlarni shakllantirish imkonini beradi. Har qaysi ma'lum darajada xalqning

mehnat faoliyatini aks ettiradi, ya'ni bolalarda mehnat uchun zarur ko'nikmalar va xislatlarni hosil qilishga qaratilgan bo'ladi. Bolalarning jismonan baquvvat, qo'rqmas, qiyinchiliklarni mustaqil engib o'tadigan, o'zini va Vatanini himoya qilishga shay, go'zallikni his etuvchi bo'lib etilishida xalq o'yinlarining imkoniyatlari katta. Ilmiy o'yinlar yoshlarda badantarbiya bilan muntazam shug'ullanish ehtiyojini tugdirish vazifasini ham to'laroq hal etadi. Eng asosiysi, xalq o'yinlari xalq o'yinlari xalqning yashash ehtiyojlaridan kelib chiqqanligi sababli bolalarni kelajakda aynan shu milliy-ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli turmush kechirishni ta'minlashga qaratilganligidir.

Xalq o'yinchoqlari. "Bola boshdan",- deydi dono xalqimiz. Bolaning tarbiyasi xalqda u esini tanigandan boshlangan. Ilmiy pedagogika esa bolani ma'lum faoliyatga jalb etibgina tarbiyalash mumkinligini allaqachon isbotlab bergan. Bola dunyoga kelgach, u o'z rivojlanishida birinchi bo'lib o'yin faoliyati bilan shug'ullanadi. O'yin faoliyatida o'yinchoqlar ta'lim-tarbiya vositasi sifatida qo'llaniladi. Xalq azaldan bola tarbiyasida turli-tuman o'yinchoqlardan keng foydalanib kelgan. Ota-onalar va mahalliy hunarmandlar loy, latta-putta, yog'och, jun va boshqa arzon materiallardan bolalar uchun turli xil, chiroyli bezaklar berilgan, bolani o'ziga tezda rom etuvcha o'yinchoqlar yasaganlar. Bir necha avlodlarning ijodiy faoliyati evaziga o'ziga xos, bejirim, takrorlanmas o'zbek milliy o'yinchoqlari vujudga kelgan. Bunday o'yinchoqlar qatoriga o'zbek milliy libosidagi qo'g'irchoqlar, xalq ertaklarining qahramonlari, mahalliy uy hayvonlari, zobitlar, uy-ro'zg'or va maishiy xizmat buyumlari, xalq turmushida qo'lliladigan texnikaviy qurilmalar(suz tegirmonlari, milliy hunarmandchilik dastgohlari, uylar va boshqa inshootlarning modellari) va hokazolarni kiritish mumkin.

O'yinchoqlarda xalqning turmushi, uning qadriyatlari va xatto orzu-istaklari o'ta ustalik bilan tasvirlangan. Xalq o'yinchoqlari bozorlarda, bayramlar va ommaviy xalq sayllaridagi tomoshalarda qo'g'irchoq o'yinlarini namoyish qilishda keng qo'llanilgan. Bunday tomoshalarda insoniylik, aql-idrok, mardlik, xalqparvarlik, kabi oliyjanob xislatlar ulug'lanib, yovuzlik, boylikka o'ta hirs qo'yish, qalloblik kabi sifatlar o'tkir kulgi ostiga olingan. Xalqning urf-odatlar ahloqiy me'yorlari qo'g'irchoq vositasida bolalar ongiga etkazilgan. Oilaviy tarbiyada ham milliy o'yinchoqlar tarbiyaning muhim vositasi sifatida qo'llanilgan.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi. O'ymakorlik (yog'och, ganch va mis o'ymakorligi), zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, maishiy buyumlar(beshiklar, kelilar, belanchaklar va hokazolar) yasash, milliy liboslarni tikish kabi xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining sohalari xalq moddiy hayotining ko'zgusi va ijtimoiy hayotining aksidir. O'tmishda yaratilgan xalq amaliy san'ati namunalari yoshlarda o'zbek xalqi o'tmishini ulug'lash, tarixini o'rganish, va undan to'g'ri xulosa chiqarishni tarbiyalash imkonini beradi. O'quvchilarda nafosat his-tyyg'ularini shakllantiradi. Xalq orasida xanuzgacha saqlanib kelgan

va ustalar tomonidan davom ettirilayotgan amaliy san'at va hunarmandchilik turlari milliy o'zligimizni anglash, milliy hayot tarzimizni davom ettirish uchun katta ahamiyatga ega

Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati, musiqa asboblari. Musiqa tarbiyaning muhim manbaidir. U ma'lum darajadahayotni va davrni aks ettiradi. SHunday ekan, o'zbek milliy musiqasi xalqimizning turmushini, uning quvonchlarini, orzu-istaklari va hayotiy tashvishlarini o'zida mujassamlashtirgan. Musiqa o'z tabiatiga ko'ra insonlar hayotini, ularning voqelikka bo'lgan munosabatini va turli ichki kechinmalirini xilma-xil tovush bo'yoqlari orqali badiiy obrazlar vositasida ifodalaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta oladi va shuning uchun ham nafosat tarbiyasining muhim manbai hisoblanadi. "Dilxiroj", "Andijon polkasi", "Rohat", "Jamalagim", "Dolloncha" kabi milliy kuylar, "CHo'li iroq", "Eshvoy", "Samarqand ushshog'i", "Feruz" singari xalq qo'shiqlari yoshlarning badiiy nafosat tarbiyasida keng qo'llanilgan. Doira, rubob, g'ijjak, tanbur, tor va boshqa milliy cholg'u asboblari ijrosidagi kuylar ham yoshlarda turli ruhiy kechinmalar paydo qiladi.

Tasviriy san'at. Alisher Navoiy asarlariga buyuk rassom Bexzod ishlagan gravyuralardan tortib, to so'nggi davrda yashab ijod qilgan o'zbek tasviriy san'atiniig namoyondalari O'rol Tansiqboev, Ro'zi CHoriev, Samig' Abdullaev kabi mo'yqalam sohiblari yaratgan san'at asarlarida xalq tarixi, unda iz qoldirgan shaxslar, o'zbek xalqining yashash tarzi, qadriyatlari, orzu-istaklari va xatto axloqiy me'yorlari o'z ifodasini topgan. O'zbek tasviriy san'ati namunalari yoshlarning nafosat tarbiyasigagina emas, balki vatanparvarlik ahloqiy va mehnat tarbiyasiga, ularda ona tabiatga muhabbatni yanada oshirishga va uni asrab-avaylashga o'rgatishga yordam beruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy yodgorliklar va milliy me'morchilik. O'zbek xalqining bir necha avlodi yaratgan moddiy boyliklar qatorida me'morchilik asarlari ham tarbiyaning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Har bir tarixiy yodgorlik zaminida xalqning ma'lum davrdagi tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy hayoti yotadi. O'tmishdagi tarixiy voqealar ularda ishtirok etgan taniqli shaxslar xalqning o'sha davrdagi turmush tarzi odamlarning tashqi qiyofasi va kiyinishi kabi ko'plab ma'lumotlar tarixiy yodgorliklarda aniq namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlarimiz tarixiy yodgorliklar yordamida to'laroq va chuqurroq o'zlashtiriladi.

Xalq raqs san'ati va xoreografiya. O'zbek milliy raqs san'ati ham xalq hayotini ma'lum darajada aks ettiradi. O'ziga xos ma'noni anglatuvchi chiroyli mutanosib harakatlar tarbiyaning muhim vositalridan biri bo'lib kelgan. Bizgacha saqlanib kelgan, qarsaklar yoki milliy cholg'u asboblari ijrosidagi kuylar va qo'shiqlar jo'rligi ostida ijro etiladigan xalq raqlari yoshlarning badiiy tarbiyasida o'zgacha ahamiyat kasb etgan. O'zbek raqsLARining farg'onacha, xorazmcha va buxorochoa dastalari bir necha avlodlardan bizgacha etib kelgan va xalqimiz orasida keng tarqalgan.

10-mavzu: O'zbek xalqining axloqiy me'yorlari, mehmondo'stligi, turmush kechirish tartib - qoidalarining xalq pedagogikasida aks etishi

O'zbek xalqining aqliy-ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar negizida shakllangan. Xarakterdagi milliy o'ziga xoslikning negizini esa shu xalqning hayotiy tajribalari, urf-odatlar, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi. SHu o'rinda o'zbek xalqi budda, zardushtiylik, islom, kommunizm kabi to'rtta katta diniy-mafkuraviy bosqichni o'z boshidan kechirganligini ham aytib o'tishimiz joiz. Har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davrida necha avlodlar almashgani va bu jarayonlarning millat fe'l-atvoriga o'chmas iz qoldirganini ham hisobga olishimiz kerak. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan iboralarni olaylik. ...Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu-shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir".

Darhaqiqat, o'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzining ko'proq an'ana, urf-odatlar orqali boshqarilishidir. "Biz buni ayniqsa xalqimizning to'y-tantanalarga o'ta o'chligida, yillar davomida yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motamgacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarimizda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo boshqosh bo'lishi kabi udumlarda kuzatamiz".

Xalqimizga xos bo'lgan axloqiy me'yorlar bag'rikenglik, hojatbarorlik, mardlik, lafz halolligi, saxovatpeshalik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to'g'rilik, donolik, mehmondo'stlik, kamtarlik, saxiylilik, epchillik, sabr-qanoatlilik, rostgo'ylik, mehr-oqibatlilik, ahillik, samimiylilik, andishalilik, farosatlilik, tejamkorlik, mas'uliyatlilik kabi xislatlarda namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi manbalarida ana shu ajoyib insoniy fazilatlarni tarannum etuvchi behisob misollar mavjud. Jumladan, "**Ezgu ish**" rivoyatida xalq manfaatiga yaraydigan ezgulik va himmat haqida so'z yuritiladi: "Bir alloma shogirdlari bilan har gal ko'rishganida: " Qanday ezgu ish qildinglar? Kimlarga yaxshiliklaring tegdi?" – deb so'rar ekan. Navbatdagi uchrashuvda shogirdlaridan biri: "Kechagi tunda eshigim oldiga notanish kishi kelib qoldi. Qarasam, bir faqir. YOrdamga narsa tiladi. Uni ichkariga olib kirdim, izzat – hurmat bilan xonaning to'riga o'tqazib, egnimdagi choponimni unga kiydirdim. So'ng arzini eshitib, bor mol-mulkimni hadya etdim. Ustimdagi

kiyimlarimdan bo'lak hech vaqo qolmadi. SHundan xursand bo'lib, huzuringizda tiz cho'kib o'tiribman", -debdi. Alloma shogird so'zlarini tinglabdi-yu, munosabatini sezdimabdi.

Gal boshqa shogirdga kelibdi: "Qaysi kun shoh o'rdasi yonidan o'tib ketayotsam, bir odamni jazolamoqchi bo'lib turishgan ekan. Hukm bo'yicha uning bir qo'li chopilishi kerak ekan. Uni bu og'ir qiynoqdan qutqarmoq uchun o'z qo'limdan kechdim. Ko'rib turibsizki, endi yakdastman."

Ustozdan yana sado chiqmabdi. SHunda yonidagilari undan: "Bularning qaysi biri fidoyi va komilroqdir?" -deb so'rashibdi. "Bularning yaxshiliklari faqat ikki kishi uchungina qilingan yaxshilik. Odam qilgan yaxshiliklardan barcha el bahra topmog'i kerak, xalq manfaatiga yaraydigan ezgulik va himmatgina tahsinga loyiqdir", - debdi ustoz."

Xalqimizga xos bo'lgan zukkolik, hozirjavoblik, aqllilik va do'stga sodiqlik fazilatlarini "**Navoiyning do'sti**" rivoyatida o'z aksini topgan. "Ulug' shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirda ham do'sti bor ekan. SHoir uni juda yaxshi ko'rар, shogirdi bo'lsa ham qadrdon, sirdosh do'sti deb bilar ekan. Kunlardan bir kun Pahlavon Muhammad kichik bir gunohi tufayli Sulton Xusaynning qattiq g'azabiga uchrabdi. CHunki Pahlavonning kichik gunohini Sulton g'azab otiga minib turganida etkazishibdi. Xusayn Boyqaro:

- Pahlavonning soqol-mo'ylovini qirib tashlanglar, so'ng kaltadum libos kiydirib, ko'cha-ko'yda sazoyi qilinglar, deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo'lganini Navoiyga aytishibdi. Navoiy, agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavon Muhammadning izzat-nafsi kamsitilib, u bunga chidolmay o'lib qolishini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqarish harakatiga tushibdi. Tezlikda Xusayn Boyqaro huzuriga etib borib:

- Sultoni Bokaram, ma'lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo'ylov qo'yib, do'st-birodar bo'lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o'rtadagi ahd buzilib, gapimiz tuzsiz, o'zimiz subutsiz bo'lib qolamiz. Buyursangiz, mening ham soqol-mo'ylovlarimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga berilgandek, kalta libos kiygizilib, do'stim bilan birga ko'cha aylantirsinlar, - debdi.

Navoiyning shogirda hamda do'stiga bo'lgan sadoqatini, mehr – oqibatini ko'rgan Xusayn Boyqaro g'azab otidan tushib, "Pahlavonning gunohidan o'tdim, jazo qoldirilsin," – deb buyuribdi.

O'zbek xalqining milliy fazilatlaridan biri mehmondorchilikdir. Har bir mahallada dasturxon bezatuvchi uquvli, ozoda va pokiza tabiatli kishi bo'lgan. O'zbek dasturxonining o'ziga xos xususiyati shundaki, issiq ovqatlardan tashqari hamma noz-ne'matlar dasturxonga birdaniga qo'yiladi. (Evropa dasturxonidan shunisi bilan farqlanadi.) Bunday dasturxon bezatishdan maqsad mehmonlar taom va noz-ne'matlarning xiliga qarab tegishli ishtaha saqlay olishlari va ovqatlanish gigienasiga imkon yaratishdir. Milliy odatga binoan dasturxon to'riga yoshi ulug'lar o'tiradi. Diniy udumga ko'ra tanovuldan avval albatta duo – fotiha o'qiladi. Unda Allohga shukronalar aytiladi,

o'tganlar ruhi yodga olinadi, el – yurt xotirjamligi, qut – baraka, yoshlar kamoloti, keksalarga mustahkam imon tilagi bildiriladi. Agar dasturxon atrofidagi biror kishi safarga otlansa: “Oy borib, omon kelishi, yo’lda balo – qazoga uchramasligi” tilanadi. Yangi oila qurganlar bo’lsa, “Qo’shgani bilan qo’sha qarishi, uvali – juvali bo’lishi, farzandining rohatini ko’rishi” so’raladi. Fotiha o’qilgach, avval non ushatiladi, choy quyiladi, keyin issiq ovqatlar tortiladi. Shu tariqa mehmon izzat-ikrom bilan kutib olinadi, va “Xush ko’rdik”, “Tashrifingizdan boshimiz osmonga etdi”, “Tez-tez mehmonimiz bo’ling”, “Kelganingiz uchun rahmat” kabi tavozei jumlar bilan kuzatiladi.

Madaniyatimizning ko’hna manbalarida mehmondorchilik xalqimizning odamiylik, saxovat, madaniy va ma’naviy aloqasi, kengfe’llik, shirinsuxanlik kabi xislatlar mezoni sifatida juda qadrlanadi. O’zbek xalq maqollarida mehmondo’sstlik, mehmondorchilik odobi masalalari pand-nasihat tarzida o’z aksini topgan:

- Mehmon-aziz, mezbon-laziz.
- Mehmon – atoyi xudo.
- Kelmoq ixtiyor bilan, ketmoq ijozat bilan.
- Mehmonning oldida mushugingni pisht dema.
- Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.
- Shirmoy noningni berma, shirin so’zingni ber.
- Mehmon ko’rki – dasturxon.
- Mehmon otangdek ulug’ va h.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, qadimdan SHarqda mehmonlar uchun musofirxonalar, karvonsaroylar, rabotlar qurilganini bilib olamiz. Hozirgi kunda ham millatimizga xos mehmondo’sstlik namunalarini ko’ramiz, ya’ni har bir o’zbek oilasi istiqomat qiladigan uyning alohida bir xonasi mehmonlar uchun ajratib qo’yiladi va shunga yarasha jihozlanadi.

O’zbek xalqining mehmonnavozligi haqida professor M.Quronov shunday deydi: “...Sayyohlarga dunyoning hamma joylarida “turist” deb qarashgan, o’zbeklar esa ularga “mehmon”deb qaraydi. Necha marta kelsa ham mezbon bo’lib kutib oladi. Ularning ko’nglini olish, xursand qilishning yo’lini qidiradi va topadi. O’zbek ana shunday bag’rikeng xalq. O’zining vaqti, e’tibori, mablag’ini berib, birovning ko’nglini olib, o’zi xursand bo’ladi. Uning molu-dunyosi butun dunyoga balki etmas, lekin mehri etadi.”¹

YAxshi niyat bildirish, duo –olqishlar aytish o’zbek xalqiga xos odatlardan biridir. Bola tug’ilganda uning umri uzun bo’lsin, rizqi – nasibasi mo’l bo’lsin, deyiladi. Ota-onasiga esa farzandining huzur – halovatini, kamolini ko’rishni tilaydilar. To’ylari bo’layotgan kelin-kuyovga

¹ M.Quronov. Biz angelayotgan haqiqat. 92-b.

“iloho ikki yoshning baxtini bersin, qo’shgani bilan qo’sha qarisin, serfarzand, serdavlat bo’lishsin, avlodning munosib davomchilari bo’lsin”, kabi yaxshi niyatlar qilinadi. Uzoq safar yoki ziyoratdan kelgan kishilarga “ziyoratlar qabul bo’lsin”, deyiladi. Unga javoban “murodingiz hosil bo’lsin” degan lutf aytiladi. Buning ma’nosi shuki, ezgu niyatlar bilan ziyoratga chiqib, mo’jizalar bosib, ulug’ avliyolarni ziyorat qilib qaytibsiz, yaxshi niyatlaringizni xudo o’z dargohida qabul qilsin, deyilyapti. Oxiri yaxshilikka olib bormaydigan, ko’ngillari to’lmagan ish, yoki shaxs haqida “oxiri baxayr bo’lsin, oxirini yorlaqasin, noumid shayton”, deb mulohaza-tilak aytishadi.

Dardkashlik, hamdardlik, kishining ko’ngliga qarash o’zbek xalqining nozik xislatidir. SHu bois ham o’zbek o’zganing shodligidan quvonib, dard – tashvishiga sherik bo’ladi. Marhumlar xotirasiga fотиha o’qilganda “xudo dargohida qabul bo’lsin, arvo’hi shod bo’lsin, joylari jannatdan bo’lsin” kabi tilaklar ishlatiladi. Xonadon sohibiga “xudo sabr bersin, marhumning qolgan umrini sizga, farzandlaringizga bersin, xudoning irodasi shu ekan, bandalik”, deya yupatiladi. Jabrdiyda kishidan ko’ngil so’raganda “ko’nglingizni cho’ktirmang, oyning o’n beshi qorong’u bo’lsa, o’n beshi yorug’”, “boshingiz omon, joningiz sog’ bo’lsin”, “bu kunlar unut bo’lib ketadi” kabi jumlar, maqol va naqlar ishlatiladi. Adolatsizlik oldida ojiz qolib, zorlanib-yig’lab turgan odamga “kuyinmang, keng bo’ling, u xudo bexabarga ham boqqan balo bordir”, “xudoning g’azabiga uchraydi”, “o’shanda meni aytdi deysiz”, deya tasalli berishadi. O’zbek o’zga xonadonga qadam ranjida qilganda “iloho tinchlik – xotirjamlik, omonlik bo’lsin, qadam etdi, balo etmasin”, deya fотиha o’qiydi. YAngi libos kiygan kishiga “qulluq bo’lsin, muborak bo’lsin, nasib etsin, tepkilab-tepkilab kiying, egningizda to’zisin, yarashibdi, buyursin”, deydi. Odamlarga yaxshilik qilish, birovning koriga yarash, odamgarchilik xalqimizda insoniy burch sanaladi.

Demak, “o’zbekning har gapida ishlatiladigan yaxshi niyat, olqishu-duolari xalqimizning odob-axloqi yuksak bo’lgan qadimiy madaniyat egasi ekanligidan dalolat beradi.”²

Xalq og’zaki ijodida o’zbek xalqiga xos bo’lgan olijanoblik, iltifotlilik, saxovatlilik fazilatlarini tarannum etuvchi namunalar juda ham ko’p. SHulardan biri **“Olijanoblik”** rivoyatida hikoya qilinishicha,³¹

Sulton Xusayn bir qancha olimu shuarolarga ziyofat berib, suhbatdan qulfi-dili ochilib o’tirar ekan. Xizmatkorlar nafis kosalarda suyuq taomlarni tashiy boshlabdilar. SHunda xizmatkorlardan biri ostonada nimagadir qoqindi-yu, qo’lidagimastavali idish to’g’ri Xusayn Boyqaroning quchog’iga tushib to’kilibdi.

Sultonning zarrin liboslari mastavadan shalabbo bo’lib ketibdi.

² M.Sattor.O’zbek udumlari. T.Fan. 1993y.

³ A.Karimov. Bir gapim bor uch tillo. 36-b.

Anjumandagilarning hammasi beixtiyor “Oh!” deb yuboribdilar. “Nima bo’larkin endi?” –degan savol bilan Sultonga qarashibdi. Lekin Boyqaro kayfiyatidagi samimiyat aslo yo’qolmabdi. U jilmayganicha sochiq bilan liboslarini artib, yiqilgan xizmatkorga: “Bo’tam, tur o’rningdan, ko’zingga qarab yursang bo’lardi. Bora qol, kiyimlaringni almashtirib ol, - debdi mehribonlik bilan. Sultondan bunday olijanoblikni kutmagan kishilar hayrat bilan Xusaynga boqishibdi. SHunda mehmonlardan biri o’z hissiyotini yashirolmay: “Ey, saxovatli Xusayn! SHu lahzadagi olijanobligingiz hammamizni maftun etdi. Boshqa sulton bo’lganida gunohkorni o’limga buyurishi hech gap emas edi”, -debdi.

- Tavba! – debdi Xusayn Boyqaro engil jilmayib. – Ul xizmatkorimiz falokat bosib yiqilib tushganidayoq hijolatdan o’lib bo’lganku! Nechuk endi biz o’lgan odamni yana o’limga buyurar ekanmiz.

Mehmonlar Xusaynning olijanobligi-yu, donishmandligiga tahsinlar o’qibdi. Zero, “Gunohni yashirgan kishilar marddir, zulmkor johillik bedavo darddir,” – deb xulosa qilishibdi.²

Xalq pedagogikasi manbalaridan biri bo’lgan diniy ta’limotlarda ham xalqimizga xos insoniy fazilatlar o’z aksini topgan, yosh avlodni fozil, oqil va barkamol qilib tarbiyalash masalalari keng yoritilgan. Masalan, Hazrat Xoja Bahouddin Naqshbandning insonlarga bergan ta’limoti sakkiz fasldan iborat bo’lib, ular:

1. Xush har dam – doimo hushyor va ogoh bo’lmoq.
2. Nazar va qadam – yurgan yo’lni bilib bosmoq.
3. Safar dar Vatan – Vatanni kezib ko’rmoq va uni sevmok.
4. Xilvat dar anjuman – hamma joyda o’zlikni anglamoq.
5. YODkard – iymon-e’tiqodni doimo dilda saqlamoq.
6. Bozgasht – yomon fikrlarni dildan, hayoldan quvmoq.
7. Nigohdasht – hayolu-fikrlarni sof saqlamoq.
8. Yoddosht – Haq taoloni hamisha yodda tutmoqdan iboratdir.

Dono xalqimizning ta’kidlashicha, quyidagi sakkiz xil kishining suhbatini g’animat bilmoq kerak: birinchisi - yaxshilikni biladigan, haq-huquqni ado qiladigan; ikkinchisi – mehru-muhabbati zamonaning har qanday hodisalari ostida ham o’zgarmaydigan; uchinchisi – ulug’ kishilarni tarbiya qilgan arboblarga izzat va hurmat ko’rsatadigan; to’rtinchisi – fisqu-fujurdan, yolg’ondan, takabburlikdan parhez qiladigan; beshinchisi – g’azab paytida o’zini qo’lga oladigan; oltinchisi – saxovat bayrog’ini ko’tarib, bechoralar hojatini chiqaradigan; ettinchisi – sharmu-hayoni o’ziga qurol qilib olib, har qanday holatda ham odob chegarasidan tashqariga chiqmaydigan; sakkizinchisi – olim va dono kishilar bilan do’stlik aloqalarini o’rnatib, fisqu-fujur ahlidan qochadigan kishidir.

Suhbatidan qochish lozim bo'lgan sakkiz kishidan birinchisi – tuz xaqini bilmaydigan va tuzlig'ingga tupuradigan, ikkinchisi – besabab g'azablanadigan va g'azabini bosolmaydigan; uchinchisi – uzoq umri bilan mag'rurlanadigan, o'zini oddiy axloq qonun –qoidalaridan ozod deb hisoblab, ko'ngliga yoqadigan ishlarni qilaveradigan; to'rtinchisi – har bir ishni makru-hiyla bilan ado qiladigan va bu yo'lni to'g'ri deb tushunadigan; beshinchisi – yolg'on va xiyonatni shior qilib olib, rostlik va vijdonlilikni tan olmaydigan; oltinchisi – nafs ko'yiga tushib, hoyu-havasni maqsad qiblasini deb tushunadigan; ettinchisi – besharm, behayo bo'lib, sho'rlik va beodoblik bilan kun o'tkazadigan; sakkizinchisi – hech qanday sababsiz yaxshi odamlar haqida yomon o'ylaydigan va hech qanday hujjatsiz ilmu donish arboblarga tuhmat toshini otadigan kishidir. (Donolar bisotidan.)⁴

Nutq madaniyati, muloqot odobi, go'zal va ta'sirli so'zlash SHarqda, xususan, o'zbeklarda tarbiyalanganlikning, ma'rifatlilikning, ziyolilikning asosiy belgilaridan biri hisoblangan. SHu bois ham xalqimiz so'zlashish odobi masalalariga katta e'tibor qaratgan. Jumladan, “ **Nima eksang, shuni o'rasan**” rivoyatida so'zning sehri va kuchi haqida, insonning yuqori martabalarga erishishi, boyishi bir og'izgina xushmuomalalik bilan aytilgan so'zga bog'liq ekanligi haqida hikoya qilinadi. Zero, muomala odobi, so'z sehri kishining qanday odob-axloqqa ega ekanligini ko'rsatuvchi ko'zgudir: “Bir dehqon yo'lda ketayotgan yo'lovchidan:

- Ey donishmand, nima eksam men boyib ketaman? – deb so'rabdi. Yo'lovchi unga piyoz ekishini tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosar-tusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchraganida:

- Ey gado, nima eksam men yanada boyib ketaman? – deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi. SHunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida

- davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi.

Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat u notanish yo'lovchi bilan duch kelibdi va:

-Ey notavon, nega meni aldading? Sening gapiingga kirib yana boyish o'rniga butkul kambag'allashib ketdimku? – deb g'azab qilibdi.

- O'zingni bos, - debdi yo'lovchi. – Birinchi yili sen menga “donishmand” deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar

⁴ Salomatlik taqvimi.65-bet. Donolar bisotidan.

esa menga “gado”so’zini munosib ko’rding va men senga gadoning javobini berdim, - degan ekan”.⁵

“**Tabib va ilon**” haqidagi rivoyatda esa, tilning zahri ilon zahridan ham dahshatliroq ekanligi haqida gap ketadi:

“Tabib bir bemorni davolash uchun ilon izlab topadi. SHunda ilon undan so’raydi: - Sen meni o’ldirib, zahrin bilan bir odamning hayotini saqlab qolmoqchi bo’lyapsan, to’g’rimi?

Tabib: - To’g’ri, - debdi.

Endi quloq sol, - debdi ilon. – Bekor qilyapsan, bemor mening zahrin bilan tuzalmaydi. Agar biz chaqqanimizda tuzalar edi. Uni do’slisi chaqqan. Odamning zahrini ilonning zahri yo’q qila olmaydi. Bilasanmi, Olloh bizni shunday sovuq, erda sudralib yuruvchi qilib yaratdi, qo’l-oyoq ham, insonlar kabi aql ham bermadi. Ammo biz ilonlar bir-birimizni chaqmaymiz. Siz insonlarga esa aqlga qo’shib butun borliqni berdi. SHunda ham noshukurchilik qilib, bir-biringizni chaqasizlar, - debdi. Tabib ilonni qo’yib yuboribdi. Haqiqatan ham bemorni o’z do’slisi haqoratli so’zlar bilan chaqqan ekan, hech qanaqa dori kor qilmay olamdan o’tibdi. Bemorning do’slisi tishi bilan emas, tili bilan, zahar-zaqqum gaplar bilan chaqib, boshiga etgan.”

Rivoyatning ma’nosiga uyg’un keluvchi xalq maqollari tili bilan aytganda:

- Til borki, bol keltiradi, til borki balo keltiradi;
- Ilonning zahri ketsa ham, so’zning zahri ketmas.

Xalq pedagogikasi manbalariga kiradigan diniy ta’limotlarda ham so’zlashish odobi, nutq madaniyati haqida juda ko’p misollar, pand va o’gitlar mavjud. Masalan, “Islomda muloqot odobi”¹ kitobida nutq odobi quyidagi tartibda ifoda etiladi:

1. Insonlar o’rtasidagi so’zlashuv to’g’rilikka va haqiqatga yo’g’rilgan, yolg’on, safsata, xomhayollardan uzoq bo’lishi kerak.

Qur’oni karim oyatlari payg’ambarlar va ularning qavmlari o’rtasida bo’lib o’tgan, faqat to’g’rilikka asoslangan so’zlashuvlarning xillarini bayon etgan.

2. Islom ta’limoti haqiqatni yuzaga chiqarish uchun insonlar o’rtasidagi so’zlashuv va tortishuvlarni tartibga solib turadi.

Payg’ambarlar bilan qavmlari o’rtasida kechgan bahslar, munozaralarda u zotlarning mavzudan chetga chiqmaganlarini ko’ramiz.

3. Islom ta’limotida tortishuvlarga barham berish uchun aniq dalil, hujjat bilan gapirish talab etiladi hamda tortishuv mavzuida tomonlarning bir-biriga haqiqatni aytishlari lozimligi uqtiriladi.

⁵ Tantoviy M.S. Islomda muloqot odobi. T., Movarounnahr. 2007y.

Imom G'azzoliy "Ihyo ulumud-din" kitobida "Bahslashayotganlar xatoni aniqlab, haqiqatga intilishlari lozim. Raqibini dushman emas, do'st sifatida ko'rishi kerak. Agar u xatoni ochib bersa va haqiqatni aytsa, minnatdorchilik bildirish zarur", - deydi.

4. Nutq madaniyati, muloqot, bahs-munozarani tartibga solish uchun islom dini joriy qilgan odoblardan yana biri tavozeli bo'lish, kibrdan saqlanishdir.

Buning ma'nosi shuki, o'zini ko'z-ko'z qilish, gerdayish, boshqalardan ustunligini ta'kidlash ruhiga qurilgan muloqot samarasiz tugaydi, eng yomoni, ikki tomon orasidagi tafovut kuchli ziddiyatga aylanadi.

5. Suhbatdoshning fikrini bosiqlik bilan tinglash, uning so'zini og'zidan tortib olmaslik, shaxsiyatiga tegmaslik, sabr-toqat va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishdir.

Tomonlardan biri boshqasiga o'z fikrini bayon qilarkan, go'zal muomala doirasida, mantiqqa tayanib, hurmat bilan muloqot qilishi kerak. Donishmandlar bejiz aytishmagan: "Men to'g'ri deb bilgan fikrimda xato ham bo'lishi mumkin. Menga yanglishdek tuyulgan boshqa birovning fikri esa, ehtimol, to'g'ridir. Biz faqat haqiqatni aniqlash va o'zaro kelishish uchun muloqot qilamiz. Bahs nihoyasiga etib, masala hal bo'lgach, bir-birimizdan uzr so'raymiz."

6. Islomdagi so'zlashuv odoblaridan yana biri bu haqgo'y, go'zal xulqli, ta'masiz, qalban pok, oqil insonlarning hurmatini joyiga qo'yish bo'lsa, yana biri xukm va xulosalarni umumlashtirish, so'zlayotgan paytda o'ta ehtiyot bo'lish, muammo va masalalarning mohiyatini sinchiklab o'rganish, iboralarni o'z o'rnida ustalik bilan ishlatishdir. SHuningdek, hoyi-xavaslariga ergashib, ko'zlari ko'r, quloqlari kar bo'lib qolganlar bilan oqilona muomalada bo'lish ham Islomning o'ziga xos muloqot odoblari sirasiga kiradi.

7. O'zaro muloqot har ikki tomonga ham foydali bo'lishi, go'zal oqibat va yaxshi natijalarga erishish uchun lozim bo'lgan odoblardan biri – yolg'on mish-mishlarga emas, to'g'ri gaplarga tayanish, uydirma xabarlariga emas, balki aniq ma'lumotlarga asoslanishdir.

Darhaqiqat, nutqiy farosat, nozik muomala odobi Turonda inson umumiy axloqining tayanch ustunlaridan sanalgan. Hadisi sharifda: "Kishining zebu-ziynati, go'zalligi uning tilidadir", - deyilsa, xalq maqollarida: "YAxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi", - deyiladi. Buyuk allomalarimizdan Majdiddin Xavofiy: "So'zni me'yor bilan so'zlagan, hayot qadrini anglagan, butun kuch va qudratini ilm va kamolot hosil qilishga sarflagan kishilar aqlli kishilardir", - degan bo'lsa, buyuk mutafakkirAlisher Navoiy "Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so'zi, nutqidir, zero suvning mazasi muz bilan, odam yaxshiligi so'z bilan bilinadi", - deydi.("Mahbub ul-qulub.")

Xulosa qilib aytganda, yoshlarga xalqimizga xos bo'lgan axloqiy me'yorlarni o'rgatishda va ularga insoniy fazilatlarini shakllantirishda hamda barkamol shaxs tarbiyasi masalalarida xalq

pedagogikasining barcha manbalarida, ya'ni halq og'zaki ijodi janrlarida ham, diniy ta'limotlarda ham, buyuk mutafakkirlar ijodida ham yaxlit uyg'unlik borligiga amin bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent. SHarq, 1998 yil.
2. Karimov I.A. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». Toshkent. 1998 yil.
3. Razzoqov H., T.Mirzaev, O.Sobirov «O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi». Toshkent. O'kituvchi, 1980 yil.
4. Qurboniyozova Z. «Dostonlar vositasida milliy o'zlikni anglash». Toshkent. Til va adabiyot, 2001 yil.
5. Jo'raem M. Buyuk qaxramonlik eposi «Alpomish» dostoni xaqida. Toshkent. O'zbek tili va adabiyoti, 2000 yil.
6. Jalilov T. «An'analar hayot sabog'i». Toshkent. O'zbekiston, 1992 yil.
7. Hoshimov K. Pedagogika tarixi.
8. Jumaniyozova R. Xalq ijodi. Toshkent. O'zbekiston, 1989 yil.
9. Maxmudov N. Til. Toshkent. Yozuvchi, 1998 yil.